Yordamchi funksiya v ni tanlash mumkinligidan foydalanib, uni o‘rta qavs ichidagi ifoda 0 ga aylanadigan qilib olamiz, ya'ni

$$v' + P(x)v = 0 \tag{3}$$

talab qilamiz. Bu o‘zgaruvchilarga ajratiladigan tenglama. (3) dan

$$v' + P(x)v = 0 \Rightarrow \frac{dv}{v} = -P(x)dx \Rightarrow \ln|v| = -\int P(x)dx + \ln C \Rightarrow$$

$$v = Ce^{-\int P(x)dx} \tag{4}$$

v-ni bu ifodasini (2) tenglamaga qo‘ysak, u uchun o‘zgaruvchilari aratiladigan tenglamani hosil qilamiz, ya'ni (3) o‘rinli bo‘lsa (2) quyidagicha bo‘ladi.

$$u'v = Q(x)$$

(4) dan esa

$$Ce^{-\int P(x)dx}u' = Q(x)$$

$$Cu' = Q(x)e^{\int P(x)dx}, \tag{5}$$

$$Cdu = Q(x)e^{\int P(x)dx}dx$$

$$u = \frac{1}{C}\left[\int Q(x)e^{\int P(x)dx}dx + C_1\right]. \tag{6}$$

$y = u \cdot v$ bo‘lgani uchun (4) va (6) dan (1) tenglamaning umumiy yechimi uzil-kesil quyidagicha ko‘rinishida bo‘ladi:

$$y = e^{-\int P(x)dx}\left[\int Q(x)e^{\int P(x)dx}dx + C_1\right]. \tag{7}$$

(3) tenglamaning integrallashdan hosil bo‘lgan C o‘zgarmas u ni v ga kupaytirganda qisqarib ketgani uchun (4) yechimda oldindan $C = 1$ deb olish va (3) chi tenglamaning umumiy yechimi o‘rniga

$$v = e^{-\int P(x)dx}$$

xususiy yechimni olish mumkin edi, amalda shunday qilinadi. O‘rniga quyish usuli bitta (1) tenglamani o‘zgaruvchilarga ajraladigan ikkita (3) va (5) tenglamalarning yechimlarini izlashga olib keladi.

1-misol. $y' - ay = e^{bx}$ tenglamani o‘rniga qo‘yish usuli bilan yeching.

b) O‘zgarmasini variatsiyalash usuli. Bu usulda bir jinsli bo‘lmagan (1) tenglamani ($Q(x) \neq 0$) yechimini izlash o‘rniga dastlab unga mos bir jinsli

$$y' + P(x)y = 0 \tag{8}$$

tenglamani yechamiz, bu tenglama o‘zgaruvchilari ajladigan tenglamadir. Uning umumiy yechimi:

$$\frac{dy}{dx} + P(x)y = 0 \Rightarrow \frac{dy}{y} = -P(x)dx \Rightarrow y = Ce^{-\int P(x)dx}. \tag{9}$$

Bu yerda C o‘zgarmasni $C = C(x)$ funksiya deb qaraydigan bo‘lsak, u holda $C(x)$ formulani shunday tanlab olish mumkin ekanki, (9) funksiya bir jinsli bo‘lmagan (1) tenglamaning yechimi bo‘lar ekan.

$C(x)$ funksiyani topishi uchun $y = C(x)e^{-\int P(x)dx}$ funksiyaning hosilasini hisoblaymiz, y va y' ning ifodalarni (1) tenglamalarga qo‘yamiz, ya'ni

$$y' = C'(x)e^{-\int P(x)dx} - C(x)P(x)e^{-\int P(x)dx}$$

bo‘lgani uchun (1) tenglama ushbu tenglamaga o‘tadi:

$$C'(x)e^{-\int P(x)dx} - C(x)P(x)e^{-\int P(x)dx} + C(x)P(x)e^{-\int P(x)dx} = Q(x)$$

$$C'(x)e^{-\int P(x)dx} = Q(x) \tag{10}$$

Biz yana o‘zgaruvchilari ajraladigan va noma'lum funksiya $C(x)$ bo‘lgan tenglamani hal qilishga keldik. (10) dan

$$C'(x) = Q(x)e^{\int P(x)dx}$$
$$dC(x) = Q(x)e^{\int P(x)dx}dx$$
$$C(x) = \int Q(x)e^{\int P(x)dx}dx + C_1$$

kelib chiqadi. Bu (10) ni umumiy yechimi bo‘ladi. $C(x)$ ning tanlangan ifodasini (9) tenglikka qo‘yib bir jinsli bo‘lmagan (1) tenglamaning izlanayotgan yechimini yana (7) ko‘rinishda hosil qilamiz:

$$y = e^{-\int P(x)dx}\left[\int Q(x)e^{\int P(x)dx}dx + C_1\right]. \qquad (7)$$

Oldingi (7) bilan bir xil bo‘lar ekan.

Bu usulning nomi C o‘zgarmasni x ning funksiyasi deb qarab, uni variatsiyalaganimizdan (o‘zgartirganimizdan) kelib chiqqan.

Bu usul o‘rniga quyish usuli kabi (1) tenglamani o‘zgaruvchilarga ajratiladigan ikkita (8) va (10) tenglamaga keltirildi.

2-misol. $\frac{dy}{dx} - yctgx = a\sin x$ tenglamani o‘zgarmasni variatsiyalash usuli bo‘yicha yeching.

3. Bernulli tenglamasi.

Bernulli tenglamasining umumiy ko‘rinishi:

$$y' + P(x)y = Q(x)y^n,\ n \in R, \qquad (11)$$

bu yerda $n = const$. $n = 0$ da Bernulli tenglamasi chiziqli tenglamaga aylanadi, $n = 1$ da o‘zgaruvchilarga ajraladigan tenglama bo‘ladi, chunki uni

$$y' + [P(x) - Q(x)]y = 0$$

ko‘rinishga keltirish mumkin. Shuning uchun $n \neq 0,\ n \neq 1$ deb faraz qilamiz.

Bernulli tenglamasini tegishli o‘rniga qo‘yish orqali chiziqli ko‘rinishga keltirish mumkin. Buning uchun tenglamaning ikkala qismini $y^n \neq 0$ ga bo‘lamiz:

$$\frac{1}{y^n}y' + P(x)\frac{1}{y^{n-1}} = Q(x).$$

$\frac{1}{y^{n-1}} = z$ deylik, u holda

$$z' = -(n-1)y^{-n}y' = (1-n)\frac{1}{y^n}y'$$

va Bernulli tenglamasi ushbu ko‘rinishga keladi:

$$\frac{1}{y^n}y' = \frac{z'}{1-n}$$
$$\frac{z'}{1-n} + P(x)z = Q(x)$$
$$z' + (1-n)P(x)z = (1-n)Q(x)$$

Bu z ga nisbatan birinchi tartibli chiziqli tenglama, bu tenglamani yechishni bilamiz. Misol ko‘riladi.

4.Rikkati tenglamasi.

Ba'zi tenglamalar o‘zgaruvchini almashtirish yordamida Bernulli tenglamasiga keltiriladi. Masalan, Rikkati tenglamasi uning bitta xususiy yechimi ma'lum bo‘lganda Bernulli tenglamasiga keltiriladi. Ushbu

$$y' + p(x)y + q(x)y^2 = f(x) \qquad (12)$$

ko‘rinishdaga tenglama Rikkati tenglamasi deyiladi.

$y = y_1(x)$ funksiya (12) tenglamaning xususiy yechimi bo‘lsin. Agar $y = y_1(x) + z$ almashtirishni bajarsak

$$y' = y_1'(x) + z' \Rightarrow y_1'(x) + z' + p(x)(y_1(x) + z) + q(x)(y_1(x) + z)^2 = f(x)$$

kelib chiqadi.

$$y_1'(x) + p(x)y_1(x) + q(x)y_1^2(x) = f(x)$$

ekaniligini e'tiborga olsak, ushbu

$$z' + \left[p(x) + 2q(x)y_1(x)\right]z + q(x)z^2 = 0$$

Bernulli tenglamasi hosil qilamiz.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние дифферциальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. O‘zgaruvchilari ajralgan va unga keltiriladigan differensial tenglamalar.
2. Bernulli va Rikkati tenglamalari.

Glossariy

Birinchi tartibli chiziqli differensial tenglama – Noma'lum funksiya va uning hosilasiga nisbatan chiziqli (birinchi darajali) bo‘lgan tenglamalar birinchi tartibli chiziqli tenglamalar deyiladi.

Chiziqli bir jinsli differensial tenglama – $y' + P(x)y = Q(x)$ tenglamada $Q(x) = 0$ bo’lgan hol.

Bernulli tenglamasi – $y' + P(x)y = Q(x)y^n, n \in R$ ko’rinishdagi tenglama.

Rikkati tenglamasi – $y' + p(x)y + q(x)y^2 = f(x)$ ko’rinishdagi tenglama.

Keyslar banki

Keys: Masala o’rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching: $\frac{x^2dy}{dx} - 2xy = 3$.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma’lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. Birinchi tartibli chiziqli tenglamalar deb (nima) qanday tenglamaga aytiladi?
2. Bernulli tenglamasining umumiy ko‘rinishi qanday?
3. Ba'zi tenglamalar o‘zgaruvchilarga almashtirish yordamida qanday tenglamaga keltiriladi?
4. Qanday ko‘rinishdagi tenglama Rikatti tenglamasi deyiladi?
5. Rikatti tenglamasi orqali Bernulli tenglamasini keltirib chiqaring?

Amaliy mashg'ulot-4

1. $y'+a(x)y=b(x)$ (1) tenglama chiziqli tenglama deyiladi. Uni yechish uchun avval bir jinsli $y'+a(x)y=0$ (2) tenglamani yechish kerak. Uni o‘zgaruvchilarini ajratib yechish mumkin.

$$\frac{dy}{y}=-a(x)dx$$

Umumiy yechimdan o‘zgarmas *s* ni $c=c(x)$ funksiya deb va topilgan yechim $y=y(x)$ ni (1) ga qo‘yib s(x) topiladi.

2. Ba'zi tenglamalarda x o‘zgaruvchini funksiya, *u* o‘zgaruvchini argument deb olinsa, chiziqliga aylanadi.

Masalan: $y=(2x+y^3)y'$, $y=y(x)$ tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$ydx=(2x+y^3)dy \Rightarrow \frac{dx}{dy}-\frac{2}{y}x=y^2$$

va tenglama (1) ga o‘xshab yechiladi.

Bayon qilingan bu usul ixtiyoriy o‘zgarmasni variatsiyalash (yoki Langranj) usuli deyiladi. O‘rniga qo‘yish usulini kiritish mumkin.

3. Bernulli tenglamasi

$$y'+a(x)y=b(x)y^n \qquad (3)$$

ikkla tomonini y^n ga bo‘linib, $\frac{1}{y^{n-1}}=z$ almashtirish bajarib, chiziqli tenglamaga keltiramiz.

4. Rikkatti tenglamasi:

$$y'+a(x)y+b(x)y^2=c(x) \qquad (4)$$

umumiy holda kvadraturalarda yechilmaydi. Lekin uning biror $y_1(x)$ xususiy yechimi topilsa tenglama $y=y_1(x)+z$ almashtirish yordamida Bernulli tenglamasiga keltiriladi. Ba'zan (4) tenglamaning xususiy yechimi o‘ng tomon s(x) ko‘rinishga qarab topilishi mumkin.

Masalan: $y'+y^2=x^2-2x$ tenglamada $y=ax+b$ almashtirish bajarsak, chap va o‘ng tomonda bir xil hadlar paydo bo‘ladi. Noma'lumlar oldidagi koeffitsientlarni tenglashtirib xususiy yechimni topamiz, lekin buni har qachon ham qilib bo‘lmaydi.

Masalan: $y'+2y=\frac{6}{x^2}$ tenglamada yuqoridagi fikrlashlar xususiy yechimni $y=\frac{a}{x}$ ko‘rinishda olishga undaydi. Uni tenglamaga qo‘yib, a noma'lumni topamiz.

$$y'=-\frac{a}{x^2} \Rightarrow -\frac{a^2}{x^2}+\frac{2a}{x}=\frac{6}{x^2} \Rightarrow -a+2ax=6 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow 2ax-(a-6)x^0=0 \Rightarrow 2a=0 \Rightarrow a+6=0.$$

bunday a yo‘q.

Misol-1: $(x^2-x)y'+y=x^2(2x-1)$ tenglamaning umumiy yechimini va $y(-2)=2$ boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi xususiy yechimni toping.

yechish: Berilgan tenglamaning ikkala qismini $x^2-x\neq 0$ ga bo‘lib, uni (1) ko‘rinishdagi tenglamaga keltiramiz:

$$y'+\frac{y}{x^2-x}=\frac{x^2(2x-1)}{x^2-x}$$

Bunda $a(x)=\dfrac{1}{x^2-x}=\dfrac{1}{x(x-\alpha)};\ b(x)=\dfrac{x^2(2x-\alpha)}{x(x-1)}=\dfrac{x(2x-1)}{x-1}$

Quyidagi $y=e^{-\int a(x)dx}\left(\int b(x)e^{\int a(x)dx}dx+c\right)$ formulaga asosan berilgan tenglamaning umumiy yechimi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$y=e^{-\int\frac{dx}{x(x-1)}}\left(\int\frac{x(2x-1)}{x-1}e^{-\int\frac{dx}{x(x-1)}}dx+c\right).$$

Bu yechimdagi integrallarni topamiz:

$$\int\frac{dx}{x(x-1)}\left|\frac{A}{x}+\frac{B}{x-1}=\frac{1}{x(x-1)},\ A=-1,\ B=1\right|=$$

a) $$=\int\left(-\frac{1}{x}+\frac{1}{x-1}\right)dx=-\ln|x|+\ln|x-1|=\ln\left|\frac{x-1}{x}\right|;$$

$$\int\frac{x(2x-1)}{x-1}e^{\ln\frac{x-1}{x}}dx=\int\frac{x(2x-1)}{x-1}\cdot\left|\frac{x-1}{x}dx=\right|$$

v) $$=\pm\int(2x-1)dx=\pm(x^2-x);$$

bunda musbat va manfiy ishoralar $\left|\dfrac{x-1}{x}\right|=\pm\dfrac{x-1}{x}$ tenglamadan hosil bo‘ladi. Topilgan (*a*) va (*v*) integrallarni umumiy yechimga qo‘yamiz:

$$y=e^{-\ln\left|\frac{x-1}{x}\right|}(\pm(x^2-x)+c)=\left|\frac{x}{x-1}\right|\cdot(\pm x^2-x)+c)=$$

$$=\pm\frac{x}{x-1}\cdot(\pm x(x-1)+c)=x^2+\frac{cx}{x-1}.$$

Undan $y(-2)=2$ shartni qanoatlantiruvchi xususiy yechimni ajratib olamiz:

$$2=4-\frac{2c}{-2-1}\Rightarrow c=-3\Rightarrow y=x^2-\frac{3x}{x-1}.$$

Misol-2: $\dfrac{x^2dy}{dx}-2xy=3$ differensial tenglamani umumiy yechimini toping.

yechish: Bu tenglamaning barcha hadlarini x^2 ga bo‘lib, qayta yozamiz:

$$\frac{dy}{dx}-\frac{2}{x^2}y=\frac{3}{x^2}.$$

Demak, berilgan misolda $a(x)=-\dfrac{2}{x},\ b(x)=\dfrac{3}{x^2}$ bo‘lib berilgan tenglama

$\dfrac{dy}{dx}+a(x)y=b(x)$ tipdagi birinchi tartibli chiziqli differensial tenglama ekan. Berilgan tenglamada $y=u\cdot v$ deb olamiz, u holda

$\dfrac{dy}{dx}=v\dfrac{du}{dx}=u\dfrac{dv}{dx}$ almashtirishdan so‘ng quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$x^2\left(v\frac{du}{dx}+u\frac{dv}{dx}\right)-2xuv=3$$

$$x^2v\frac{du}{dx}+x^2u\frac{dv}{dx}-2xuv=3$$

yoki $x^2v\frac{du}{dx}+u\,x/\,x\frac{dv}{dx}-2v/=3$ (*)

Bu yerda v ni shunday tanlaymizki, $x\frac{dv}{dx}-2v=0$ bo‘lsin. Xuddi shuningdek $xv\left[x\frac{du}{dx}-2u\right]+x^2u\frac{dv}{dx}=0$ tenglamada u ni $x\frac{du}{dx}-2u=0$ bo‘lsin deb tanlash mumkin.

$x\frac{dv}{dx}-2v=0$ tenglamada o‘zgaruvchilarni ajratib, v ni topamiz:

$\frac{dv}{v}-2\frac{dx}{x}=0$ bundan $\ln v-2\ln x=\ln c$ yoki $v=cx^2$. Yuqoridagi aytib o‘tilgani c = 1 bo‘lganidagi $v=x^2$ xususiy yechim bilan cheklanish mumkin. v ning ifodasini almashtirilgan (*) tenglamaga qo‘yib u ni topamiz:

$$x^2\frac{du}{dx}=3 \quad \text{yoki} \quad du=\frac{3dx}{x^4}$$

bundan $u=-\frac{1}{x^3}+c.\quad y=u\cdot v$ formulaga u va v uchun topilgan ifodalarni qo‘yib, berilgan chiziqli differensial tenglamaning umumiy yechimini hosil qilamiz:

$$y=cx^2-\frac{1}{x}.$$

Misol-4: Ushbu $\frac{dy}{dx}-\frac{3}{x}y=-x^3y^2$ Bernulli tenglamasini umumiy integralini topaylik.

Tenglamani ikkala qismini u^2 ga bo‘lib, quyidagini hosil qilamiz: $\frac{1}{y^2}\frac{dy}{dx}-\frac{3}{x}\frac{1}{y}=-x^3$.

$\frac{1}{y}=z$ deb olamiz; u holda $-\frac{1}{y^2}\frac{dy}{dx}=\frac{dz}{dx}$ va tenglama ushbu ko‘rinishga keladi:

$$\frac{dz}{dx}+\frac{3}{x}z=x^3.$$

Bu chiziqli tenglama variatsiyalash usuli bilan integrallaymiz. Bir jinsli $\frac{dz}{dx}+\frac{3}{x}z=0$ tenglamaning umumiy yechimi: $z=\frac{c}{x^3}$. Bu yerda $c=c(x)$ deb quyidagini hisoblaymiz: $\frac{dz}{dx}=\frac{dc(x)}{dx}\cdot\frac{1}{x^3}-\frac{3c(x)}{x^4}$ va chiziqli bir jinsli bo‘lmagan tenglamaga qo‘yamiz:

$\frac{dc(x)}{dx}\cdot\frac{1}{x^3}-\frac{3c(x)}{x^4}+\frac{3}{4}\frac{c(x)}{x^3}=x^3$ yoki $dc(x)=x^5dx,$ bu yerdan $C(x)=\frac{x^7}{7}+C_1$, binobarin bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning umumiy yechimi $z=\frac{x^4}{7}+\frac{c_1}{x^3}$ bo‘ladi z ni $\frac{1}{y}$ bilan almashtirib, quyidagini hosil qilamiz:

1. $\frac{1}{y}=\frac{x^4}{7}+\frac{c_1}{x^3}$ yoki $y\left(\frac{x^7}{7}+C_1\right)=x^3$. $\frac{dy}{dx}-\frac{y}{x}=x$ j: $y=cx+x^2$

2. $\frac{dy}{dx}+\frac{2y}{x}=x^3$ j: $y=\frac{1}{6}x^4+\frac{c}{x^2}$.

3. $(1+y^{r})dx=(\sqrt{1+y^2}\sin y-xy)dy$ j: $x\sqrt{1+y^2}+\cos y=c$

4. $y^2dx-(2xy+3)dy=0$ j: $x=cy^2-\frac{1}{y}$

5. $xy'+y-e^x=0;\quad y(a)=b$ j: $y=\frac{e^x}{x}+\frac{ab-e^a}{x}$

6. $y'-\frac{y}{1-x^2}-1-x=0;\quad y(0)=0$ j: $y=\frac{1}{2}(x\sqrt{1-x^2}+arc\sin x)\sqrt{\frac{1+x}{1-x}}$

7. $y'-ytgx=\frac{1}{\cos x};\quad y(0)=0$ j: $y=\frac{x}{\cos x}$

8. $y'-\frac{3y}{x}=x$ j: $y=cx^3-x^2$

9. $y'+\frac{2y}{x}=\frac{e^{-x^2}}{x}$ j: $y=\frac{c-e^{-x^2}}{2x^2}$

10. $y'\cos x-y\sin x=\sin 2x$ j: $y=\frac{c-\cos 2x}{2\cos x}$

11. $(a^2+x^2)y'+xy=1$ j: $y=\frac{\ln c(x+\sqrt{a^2+x^2})}{\sqrt{a^2+x^2}}$

12. $y'-ytgx=ctgx$ j: $y=1+\frac{\ln ctg\frac{x}{2}}{\cos x}$

13. $y'+ay=e^{mx}$ j: 1) $m\neq -a\quad y=ce^{-ax}+\frac{e^{mx}}{m+a}$; 2) $m=-a\quad y=(c+x)e^{mx}$

14. $2ydx+(y^2-6x)dy=0$ j: $y^2-2x=cy^3$

15. $y'=\frac{1}{2x-y^2}$ j: $x=ce^{2y}+\frac{1}{2}y^2+\frac{1}{2}y+\frac{1}{4}$

16. $y'=\frac{y}{2y\ln y+y-x}$ j: $x=y\ln y+\frac{c}{y}$

17. $x(y'-y)=(1+x^2)e^x$ j: $y=e^x\left(\ln|x|+\frac{x^2}{2}\right)+ce^x$

18. $y'+y\Phi'(x)-\Phi(x)\Phi'(x)=0,\ \Phi(x)-$ berilgan funksiya.

j: $y=ce^{\Phi(x)}+\Phi(x)-1$

19. $y'-ytgx=\sec x;\quad y(0)=0$ j: $y=\frac{x}{\cos x}$

20. $xy'+y-e^x=0;\quad y(a)=b$ j: $y=\frac{e^x+ab-e^a}{x}$

21. $xy'-\frac{y}{x+1}=x;\quad y(1)=0$ j: $y=\frac{x}{x+1}(x-1+\ln|x|)$

22. $t(1+t^2)dx=(x+xt^2-t^2)dt;\quad x(1)=\frac{\pi}{4}$ j: $x=-tarctgt$

TEST

Quyidagi funksiyaning bir jinslilik o'lchovini aniqlang: $f(x,y)=\dfrac{x-xy}{x+y^2}$	* o'lchovi yo'q	2-o'lchovli	1-o'lchovli	0-o'lchovli
$f(x,y)$ 0 o'lchovli 1 jinsli funksiyani ko'rinishini aniqlang:	* $f(x,y)=\varphi\left(\dfrac{y}{x}\right)$	$f(x,y)=\varphi(x+y)$	$f(x,y)=\varphi(xy)$	$f(x,y)=\varphi\left(\dfrac{1}{xy}\right)$
Birinchi tartibli bir jinsli differensial tenglamani yechishda qanday almashtirish bajariladi?	* $z=\dfrac{y}{x}$	$z=xy$	$z=x-y$	$z=x+y$
$\dfrac{dy}{dx}=f\left(\dfrac{ax+by+c}{a_1x+b_1y+c_1}\right)$ tenglamada $\Delta=\begin{vmatrix} a & b \\ a_1 & b_1 \end{vmatrix}\neq 0$ bo'lsa, qanday almashtirish bajariladi.	* $x=\alpha+u,\ y=\beta+v$	$x=\dfrac{\alpha}{u},\ y=\dfrac{\beta}{v}$	$x=\alpha u,\ y=\beta v$	$x=zy$
$\dfrac{dy}{dx}=f\left(\dfrac{ax+by+c}{a_1x+b_1y+c_1}\right)$ tenglamada $\Delta=\begin{vmatrix} a & b \\ a_1 & b_1 \end{vmatrix}=0$ bo'lsa, qanday almashtirish bajariladi.	* $z=ax+by$	$z=ax$	$z=by$	$z=ax+c$
Birinchi tartibli chiziqli tenglamani yechish usuli nomini aniqlang.	* Ixtiyoriy o'zgarmasni variatsiyalash usuli	Aniqmas koeffitsientlar usuli	Ketma-ket yaqinlashish usuli	Ketma-ket yo'qotish usuli
O'rniga qo'yish usulida qanday almashtirish bajariladi?	* $y=uv$	$y=u^2v$	$y=uv^2$	$y=u+v$
Umumlashgan bir jinsli tenglamada qanday almashtirish bajarilishini aniqlang.	* $y=z^\alpha$	$y=z+x$	$y=\dfrac{u}{v}$	$y=uv$
Quyidagi tenglamaning umumiy yechimini toping: $y'=\dfrac{y+\sqrt{x^2-y^2}}{x}$	* $y=x\sin(\ln cx)$	$y=x\ln(\sin cx)$	$y=x\ln(\cos cx)$	$y=xtg(\ln cx)$
Tenglamaning umumiy yechimini aniqlang: $y'+\dfrac{1}{x}y=\dfrac{\sin x}{x}$	* $y=\dfrac{1}{x}(c-\cos x)$	$y=\dfrac{1}{x}(c-\sin x)$	$y=\dfrac{1}{x}(c-\cos\sin x)$	$y=\dfrac{1}{x}(c-\arccos x)$

MA'RUZA 5

5. Mavzu: To‘liq differensialli tenglama. Integrallovchi ko‘paytuvchi.

Reja:

1. To‘liq differensialli tenglama .
2. Funksiya to‘liq differensialli bo‘lishining zaruriy va yetarli sharti.
3. Integrallovchi ko‘paytuvchi.

Tayanch so’z va iborlar: *to‘liq dıfferensial tenglama, tenglama to‘liq bыlishining zaruriy va yetarli sharti, integrallovchi ko‘paytuvchi.*

1. Agar

$$M(x,y)dx + N(x,y)dy = 0 \tag{1}$$

tenglamaning chap tomoni birorta $U(x,y)$ funksiyaning to‘liq differensiali, ya'ni

$$M(x,y)dx + N(x,y)dy = dU(x,y)$$

bo‘lsa, (1) tenglama *to‘liq dıfferensialli tenglama* deyiladi. Bu holda uni quyidagicha yozish mumkin:

$$dU(x,y) = 0$$

Buni integrallash bilan quyidagi umumiy integralni (yechimni) hosil qilamiz:

$$U(x,y) = C$$

Quyidagi savolning yuzaga kelishi tabiiy: qanday shartlarda (1) tenglama to‘liq differensialli $dU(x,y) = 0$ tenglama bo‘ladi va $U(x,y)$ funksiya qanday topiladi? Quyidagi teorema bu savolga javob beradi.

2. **Teorema.** *Ushbu*

$$M(x,y)dx + N(x,y)dy \tag{2}$$

dıfferensial ıfoda (bu yerda $M(x,y)$ va $N(x,y)$ funksiyalar xOy tekislikning D sohasida aniqlangan va uzluksiz bo‘lib, uzluksiz $\dfrac{\partial M(x,y)}{\partial y}$ va $\dfrac{\partial N(x,y)}{\partial x}$ xususiy hosilalarga ega) birorta $U(x, y$ funksiyaning to‘liq dıfferensialli bo‘lishi uchun D sohaning barcha nuqtalarida

$$\frac{\partial M}{\partial y} = \frac{\partial N}{\partial x} \tag{3}$$

shart bajarilishi zarur va yetarlidir.

Isbot. Dastlab bu shartning zarurligini isbot qilamiz. Buning uchun shunday $U(x,y)$ funksiya mavjudki, uning uchun $dU = M(x,y)dx + N(x,y)dy$ bo‘ladi deb faraz qilamiz va (3) tenglikni isbot qilamiz. $U(x,y)$ funksiyaning to‘liq differensialli

$$dU(x,y) = \frac{\partial U}{\partial x}dx + \frac{\partial U}{\partial y}dy$$

ifoda bo‘ladi. U (2) ga teng bo‘lgani sababli istalgan dx va dy uchun o‘rinli bo‘lgan

$$M(x,y)dx + N(x,y)dy \equiv \frac{\partial U}{\partial x}dx + \frac{\partial U}{\partial y}dy$$

ayniyatga ega bo‘lamiz. dx va dy oldidagi ko‘paytuvchilarni taqqoslab topamiz:

$$M(x,y) = \frac{\partial U}{\partial x}, \quad N(x,y) = \frac{\partial U}{\partial y}$$

1-tenglikning ikala tomonini u bo‘yicha, 2-tenglikni x bo‘yicha differensiallaymiz, natijada:

$$\frac{\partial M}{\partial y}=\frac{\partial^2 U}{\partial x\partial y},\quad \frac{\partial N}{\partial x}=\frac{\partial^2 U}{\partial y\partial x}$$

$U\in C^2(D)$ bo‘lgani uchun $\dfrac{\partial^2 U}{\partial x\partial y}=\dfrac{\partial^2 U}{\partial y\partial x}$ bo‘ladi.

Teorema shartiga ko‘ra aralash hosilalar teng bo‘ladi, ya'ni

$$\frac{\partial^2 U}{\partial x\partial y}=\frac{\partial^2 U}{\partial y\partial x}$$

Bularni chap tomoni $\dfrac{\partial M}{\partial y},\ \dfrac{\partial N}{\partial x}$ mavjud bo‘lgani uchun (xususiy hosilalar uzluksizligidan) bu hosilalar mavjudki, ya'ni $U\in C^2(D)$ bo‘ladi, $\dfrac{\partial^2 U}{\partial x\partial y}=\dfrac{\partial^2 U}{\partial y\partial x}$ aralash hosila teng bo‘ladi.

Bundan $\dfrac{\partial M}{\partial y}=\dfrac{\partial N}{\partial x}$ kelib chiqadi.

Endi yetarliligini isbtlaymiz. Buning uchun (3) shart bajarilgan deb, faraz qilamiz. (2) ifoda birorta $U(x,y)$ funksiyaning to‘liq differensialli bo‘lishini, ya'ni

$$\frac{\partial U}{\partial x}=M(x,y),\ \frac{\partial U}{\partial y}=N(x,y) \tag{4}$$

tenglik o‘rinli ekanligini isbot qilamiz.

Bu bilan masala xususiy hosilalai ikkita differensial tenglamadan iborat (4) sistemani qanoatlantiruvchi $U(x,y)$ funksiyani topishga keltiriladi:

(4) tenglamalarning birinchisini olamiz:

$\dfrac{\partial U}{\partial x}=M(x,y)$ buni $[x_0,x]$oraliq bo‘yicha integrallab quyidagi yechimni topamiz:

$$U(x,y)=\int_{x_0}^{x}M(x,y)dx+\varphi(y) \tag{5}$$

bu yerda x_0 D sohaning birorta $P_0(x_0,y_0)$ nuqtasining absissasi $\varphi(y)$ esa uning $\forall C$ o‘zgarmasning o‘rnini bosuvchi birorta funksiya, chunki x bo‘yicha differensiallasak, yana oldingi tenglama hosil bo‘ladi ($\varphi'_x(y)=0$). $\varphi(y)$ni shunday aniqlaymizki, (4) tenglamalarning ikkinchisi ham qanoatlantirilsin. (5) ni ikkala qismini y bo‘yicha differensiallaymiz, u holda

$$\frac{\partial U}{\partial y}=\frac{\partial}{\partial y}\int_{x_0}^{x}M(x,y)dx+\varphi'(y)$$

biroq $\dfrac{\partial U}{\partial y}=N(x,y$ bo‘lgani uchun va aniq integralni parametr bo‘yicha differensiallash teoremasiga ko‘ra

$$\frac{\partial}{\partial y}\int_{x_0}^{x}M(x,y)dx=\int_{x_0}^{x}\frac{\partial M(x,y)}{\partial y}dx$$

,

bo‘lgani uchun

$$N(x,y)=\int_{x_0}^{x}\frac{\partial M(x,y)}{\partial y}dx+\varphi'(y)$$

Shartga ((3) shart) $\dfrac{\partial M}{\partial y}=\dfrac{\partial N}{\partial x}$ ga ko‘ra

$$\varphi'(y)=N(x,y)-\int_{x_0}^{x}\frac{\partial N(x,y)}{\partial x}dx$$

Keyingi integral

$$\int_{x_0}^{x}\frac{\partial N(x,y)}{\partial x}dx=N(x,y)\Big|_{x_0}^{x}=N(x,y)-N(x_0y)$$

ga teng, shu sababli

$$\varphi'(y)=N(x,y)-N(x,y)+N(x_0,\,y)\Rightarrow\varphi'(y)=N(x_0,y)$$

ni $[y_0,y]$ gacha integrallaymiz (y bo‘yicha) bu yerdan

$$\varphi(y)=\int_{y_0}^{y}N(x_0,y)dy+C$$

bu yerda y_0 D sohadagi $P_0(x_0,y_0)$ nuqtaning ordinatasi , C-o‘zgarmas.

$\varphi(y)$ ni topilgan qiymatini (5) tenglikka qo‘yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$U(x,y)=\int_{x_0}^{x}M(x,y)dx+\int_{y_0}^{y}N(x,y)dx+\varphi(y) \tag{6}$$

Shunday qilib $U(x,y)$ funksiyaning mavjud ekanligini isbotlanibgina qolmasdan, hatto bu funksiyani topish uchun formula ham keltirib chiqarildi.

Aslini olganda tegishli masalalar yechganda tayyor (6) formuladan foydalanmasdan, umumiy holdagi kabi yo‘l tutish mumkin (yoki aniq integrallarni aniqmass integrallar bilan almashtirish kerak)

Misol ko‘riladi.

1-misol. $(7x+3y)dx+(3x-5y)dy=0$

3. Agar $\dfrac{\partial M}{\partial y}=\dfrac{\partial N}{\partial x}$ shart bajarilmagan bo‘lsa, u holda (1) tenglama to‘liq differensialli tenglama bo‘lmaydi. Biroq bu tenlamani μ(x,y) funksiyaga ko‘paytirish bilan uni to‘liq differensialli tenglamaga keltirish mumkin. Bunday funksiya berilgan differensial tenglama uchun **integrallovchi ko‘paytuvchi** deyiladi. Har qanday differensial tenglama uchun integrallovchi ko‘paytuvchi mavjud, Biroq uni topish oson emas. (1) tenglamaning integrallovchi ko‘paytuvchisini qanday izlanishini ko‘rsatamiz.

Ushbu

$$\mu(x,y)M(x,y)dx+\mu(x,y)N(x,y)dy=0$$

tenglama to‘liq diffrensialli tenglama bo‘lishi uchun

$$\frac{\partial(\mu M)}{\partial y}=\frac{\partial(\mu N)}{\partial x}$$

yoki

$$M\frac{\partial\mu}{\partial y}+\mu\frac{\partial M}{\partial y}=N\frac{\partial\mu}{\partial x}+\mu\frac{\partial N}{\partial x}$$

$$N\frac{\partial\mu}{\partial x}-M\frac{\partial\mu}{\partial y}=\mu\left(\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}\right) \tag{7}$$

shart bajarilishi kerak.

(7) tenglik birinchi tenglamaning integrallovchi ko‘paytuvchilarining differensial tenglamasidir, chunki uning har bir yechimi (1) tenglamaning ikkala tomoniga ko‘paytirilgandan so‘ng uni to‘liq differensiallardagi tenglamaga keltiriladi. $\mu(x,y)$ ni topish uchun xususiy hosilali (7) differensial tenglamani integrallash kerak. Umumiy holda bu masalani yechish qiyin. Agar μ faqat birgina x yoki y o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘lsa, masala ancha soddalashadi. Biz shu ikki holni qaraymiz.

1-hol. $\mu=\mu(x)$ bo‘lsin. U holda (7) tenglama ushbu ko‘rinishini egallaydi.

$$N\frac{d\mu(x)}{dx}=\mu\left(\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}\right)$$

yoki

$$\frac{d\mu(x)}{\mu(x)}=\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{N}dx$$

bu yerdan

$$\ln\mu(x)=\int\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{N}dx+C,$$

ya'ni

$$\mu(x)=e^{\int\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{N}dx} \tag{8}$$

($\forall C$ o‘zgarmas nolga teng deb olingan, chunki qandaydir bitta integrallovchi ko‘paytuvchiga ega bo‘lsak, kifoya).

Bu holda $\dfrac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{N}$ ifoda y - ga bog‘liq bo‘lmasligi ravshan.

2-hol. $\mu=\mu(y)$ bo‘lsin. U holda (7) tenglama ushbu ko‘rinishda bo‘ladi: $\dfrac{d\mu}{dx}=0$

$$M\frac{d\mu(y)}{dy}=-\mu\left(\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}\right)$$

yoki

$$\frac{d\mu(y)}{\mu(y)} = -\frac{\frac{\partial M}{\partial y} - \frac{\partial N}{\partial x}}{M} dy$$

bu yerdan

$$\mu(y) = e^{-\int \frac{\frac{\partial M}{\partial y} - \frac{\partial N}{\partial x}}{N} dy} \qquad (9)$$

bu yerda $C = 0$ deb olingan.

Bu holda $\frac{\frac{\partial M}{\partial y} - \frac{\partial N}{\partial x}}{M}$ ifoda x-ga bog'liq emas.

(1) tenglamani to'liq diferensialli tenglama ko'rinishiga keltirish uchun qaralayotgan xususiy hollarda odatda quyidagicha yo'l tutiladi. $\frac{\partial M}{\partial y} - \frac{\partial N}{\partial x}$ ifoda tuziladi va uning N ga nisbati olinadi. Agar bu ifoda y ga bog'liq bo'lmasa, integrallovchi ko'paytuvchini topish uchun (8) formuladan foydalanish kerak; aks holda $\frac{\partial M}{\partial y} - \frac{\partial N}{\partial x}$ ifodaning M ga nisbati olinadi, agar bu nisbat x ga bog'liq bo'lmasa, u holda x ga bog'liq bo'lmagan μ ko'paytuvchi mavjud va uni (9) formula bo'yicha topish mumkin.

$\mu = \mu(\omega(x, y))$**-ko'rinishidagi integrallovchi ko'paytuvchi.** $\omega(x, y)$- berilgan funksiya

$$M(x, y)dx + N(x, y)dy = 0 \qquad (1)$$

$$N\frac{\partial \mu}{\partial x} - M\frac{\partial \mu}{\partial y} = \mu\left(\frac{\partial M}{\partial y} - \frac{\partial N}{\partial x}\right) \qquad (7)$$

$$\frac{\partial \mu}{\partial x} = \frac{\partial \mu}{\partial \omega} \cdot \frac{\partial \omega}{\partial x}, \quad \frac{\partial \mu}{\partial y} = \frac{\partial \mu}{\partial \omega} \cdot \frac{\partial \omega}{\partial y},$$

$$N\frac{\partial \mu}{\partial \omega} \cdot \frac{\partial \omega}{\partial x} - M\frac{\partial \mu}{\partial \omega} \cdot \frac{\partial \omega}{\partial y} = \mu\left(\frac{\partial M}{\partial y} - \frac{\partial N}{\partial x}\right)$$

$$\frac{\partial \mu}{\partial \omega} \cdot \left(N\frac{\partial \omega}{\partial x} - M\frac{\partial \omega}{\partial y}\right) = \mu\left(\frac{\partial M}{\partial y} - \frac{\partial N}{\partial x}\right)$$

$$\frac{1}{\mu} \cdot \frac{\partial \mu}{\partial \omega} = \frac{\frac{\partial M}{\partial y} - \frac{\partial N}{\partial x}}{N\frac{\partial \omega}{\partial x} - M\frac{\partial \omega}{\partial y}}$$

$$\frac{\partial\mu}{\partial y}=\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{N\frac{\partial\omega}{\partial x}-M\frac{\partial\omega}{\partial x}}\partial\omega$$

$$\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{N\frac{\partial\omega}{\partial x}-M\frac{\partial\omega}{\partial x}}=\psi(\omega)$$

$$\mu(\omega)=e^{\int\psi(\omega)d\omega}=f(\omega)=f(\omega(x,y))$$

bog‘liq bo‘lsa $\Rightarrow$ (1) tenglama uchun $\mu=\mu(\omega(x,y))$ integrallovchi ko‘paytuvchi

1) $\omega(x,y)=x,\ \omega(x,y)=y\Rightarrow\mu(x),\ \mu(y)$ mavjud.

2) $\omega(x,y)=x\pm y$ (10) da $\frac{\partial\omega}{\partial x}=1,\ \frac{\partial\omega}{\partial y}=\pm1$

$$\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{N\pm M}=\omega(x\pm y)$$

bo‘lsa, u holda $\mu=\mu(x\pm y)$mavjud.

3) $\omega(x,y)=x^2\pm y^2$ (10) da

$$\frac{\partial\omega}{\partial x}=2x,\qquad \frac{\partial\omega}{\partial y}=\pm2y$$

$$\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{2(xN\pm yM)}=\omega(x^2\pm y^2)$$

bo‘lsa, u holda $\mu=\mu(x^2\pm y^2)$ mavjud.

4) $\omega(x,y)=x\cdot y$ (10) da $\frac{\partial\omega}{\partial x}=y,\ \frac{\partial\omega}{\partial y}=x$

$$\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{yN-xM}=\omega(xy)$$

bo‘lsa, u holda $\mu=\mu(x\cdot y)$ mavjud.

5) $\omega(x,y)=\frac{y}{x}$ (10) da

$$\frac{\partial\omega}{\partial x}=-\frac{y}{x^2}\qquad \frac{\partial\omega}{\partial y}=\frac{1}{x}$$

$$\frac{\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}}{-\frac{y}{x^2}N-\frac{1}{x}M}=\omega\left(\frac{y}{x}\right)$$

bo‘lsa, u holda $\mu=\mu\left(\frac{y}{x}\right)$ mavjud.

$\mu(x,y)=\mu_1(x)\mu_2(y)$ **ko‘rinishida integrallovchi** ko‘paytuvchi qidiramiz:

$$N\frac{\partial\mu}{\partial x}-M\frac{\partial\mu}{\partial y}=\mu\left(\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}\right) \tag{7}$$

$\mu(x,y)=\mu_1(x)\mu_2(y)$ ni (7) ga qo‘yamiz.

$$N\mu_2(y)\frac{\partial\mu_1(x)}{\partial x}-M\mu_1(x)\frac{\partial\mu_2(y)}{\partial y}=\mu_1(x)\mu_2(y)\left(\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}\right)\Bigg|:\mu_1(x)\mu_2(y)\neq 0$$

$$N\frac{1}{\mu_1(x)}\cdot\frac{\partial\mu_1(x)}{\partial x}-M\frac{1}{\mu_2(y)}\cdot\frac{\partial\mu_2(y)}{\partial y}=\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}$$

$$\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}=N\psi_1(x)-M\psi_2(y),$$

bu yerda

$$\psi_1(x)=\frac{1}{\mu_1(x)}\frac{\partial\mu_1(x)}{\partial x}\Rightarrow\frac{\partial\mu_1(x)}{\mu_1(x)}=\psi_1(x)dx,$$

$$\mu_1(x)=e^{\int\psi_1(x)dx},$$

$$\frac{\partial\mu_2(y)}{\mu_2(y)}=\psi_2(y)dy\Rightarrow\psi_2(y)=\frac{1}{\mu_2(y)}\frac{\partial\mu_2(y)}{\partial y},$$

$$\mu_2(y)=e^{\int\psi_2(y)dy}.$$

Misol.

$$(y^4-4xy)dx+(2xy^3-3x^2)dy=0\quad(x>0,y>0)\ (1/4y^3<x<2/3y^3)$$

tenglama umumiy yechimini toping. Bu tenglama to‘liq differensialli bo‘lmaydi.

$$M=y^4-4xy,\ N=xy^3-3x^2$$

va

$$\frac{\partial M}{\partial y}=4y^3-4x,\ \frac{\partial N}{\partial x}=2y^3-6x\Rightarrow\frac{\partial M}{\partial y}\neq\frac{\partial N}{\partial x}$$

Berilgan tenglama $\mu(x,y)=\mu_1(x)\mu_2(y)$ ko‘rinishidagi integrallovchi ko‘paytuvchiga ega, chunki

$$\frac{\partial M}{\partial y}-\frac{\partial N}{\partial x}=4y^3-4x-(2y^3-6x)=(2xy^3-3x^2)\frac{2}{x}-(y^4-4xy)\cdot\frac{2}{y}=N\frac{2}{x}-M\frac{2}{y}$$

Bundan

$$\psi_1(x)=\frac{2}{x},\quad \psi_2(y)=\frac{2}{y},\quad \mu_1(x)=e^{\int\frac{2}{x}dx}=x^2,\quad \mu_2(y)=e^{\int\frac{2}{y}dy}=y^2.$$

Demak, $\mu(x,y)=x^2y^2$. U holda

$$x^2y^2(y^4-4xy)dx+x^2y^2(2xy^3-3x^2)dy=0\Rightarrow$$
$$\Rightarrow(x^2y^6-4x^3y^3)dx+(2x^3y^5-3x^4y^2)dy=0$$

Oxirgi tenglama uchun esa

$$\frac{\partial M}{\partial y}=6x^2y^5-12x^3y^2=\frac{\partial N}{\partial x}=6x^2y^5-12x^3y^2\Rightarrow$$

Bundan tenglama to‘liq diffenrensialliligi kelib chiqadi. Bu esa tenglama to‘liq yechildi degani.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние дифферциальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. O‘zgaruvchilarigi nisbatan bir jinsli va umumlashgan bir jinsli tenglamalar.
2. To‘la differensial tenglamalar.

Glossariy

To‘liq differensial tenglama – Agar $M(x,y)dx+N(x,y)dy=0$ tenglamaning chap tomoni birorta $U(x,y)$ funksiyaning to‘liq differensiali, ya'ni $M(x,y)dx+N(x,y)dy=dU(x,y)$ bo‘lsa, (1) tenglama to‘liq differensialli tenglama deyiladi.

To’la dıfferensial tenglama bo’lish zarur va yetarli sharti **-** Ushbu $M(x,y)dx+N(x,y)dy$ differensial ifoda (bu yerda $M(x,y)$ va $N(x,y)$ funksiyalar xOy tekislikning D sohasida aniqlangan va uzluksiz bo‘lib, uzluksiz $\frac{\partial M(x,y)}{\partial y}$ va $\frac{\partial N(x,y)}{\partial x}$ xususiy hosilalarga ega) birorta $U(x,y)$ funksiyaning to‘liq differensialli bo‘lishi uchun D sohaning barcha nuqtalarida $\frac{\partial M}{\partial y}=\frac{\partial N}{\partial x}$ shart bajarilishi zarur va yetarlidir.

Integrallovchi ko'paytuvchi – Agar $\frac{\partial M}{\partial y} = \frac{\partial N}{\partial x}$ shart bajarilmagan bo'lsa, u holda (1) tenglama to'liq differensialli tenglamaga aylantirish uchun tenglamani ko'paytirish lozim bo'lgan μ (x,y) funksiya.

Keyslar banki

Keys: Masala o'rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching: $y' + \frac{y}{x+1} + y^2 = 0$.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma'lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. Qanday tenglama to'liq differensialli tenglama deyiladi?
2. Qanday shart bajarilmasa N(x,y)dx+N(x,y)dy=0 tenglama to'liq differensialli tenglama deyiladi?
3. Berilgan differensial uchun integrallovchi ko'paytuvchi deb nimaga aytiladi?
4. N(x,y)dx+N(x,y)dy=0 tenglama to'liq differensialli tenglama bo'lishi uchun qanday shart bajarilishi kerak?
5. $(y^4 - 4xy)dx + (2xy^3 - 3x^2)dy = 0 \qquad (x>0, y>0) \quad (1/4y^3 < 2/3y^3)$ tenglama to'liq differensial tenglama emasligini isbotlang?

Amaliy mashg'ulot-5

1. $y' + y = x\sqrt{y}$ j: $y = \left(x - 2 + ce^{-\frac{x}{2}}\right)^2$
2. $\frac{dy}{dx} + \frac{y}{x} = -xy^2$ j: $y(x^2 + cx)1$
3. $2xy\frac{dy}{dx} - y^2 + x = 0$ j: $y^2 = x\ln\frac{c}{x}$
4. $ydx + \left(x - \frac{1}{2}x^3y\right)dy = 0$ j: $x^2 = \frac{1}{y + cy^2}$
5. $3xdy = y(1 + x\sin x - 3y^3\sin x)dx$ j: $y^3(3 + ce^{\cos x}) = x$
6. $xy' + 2\sqrt{xy} = y$ j: $x > 0\sqrt{\frac{y}{x}} = \ln\frac{c}{x}; \quad x < 0\sqrt{\frac{y}{x}} = \ln cx$
7. $y' + xy = xy^3$ j: $y^2 = \frac{1}{1 + ce^{x^2}}$
8. $3y^2y^1 + y^3 = x + 1; \quad y(1) = -1$ j: $y^3 = x + ce^{-x}; \quad y^3 = x - 2e^{1-x}$
9. $(1 - x^2)y' - xy = xy^2; \quad y(0) = 0,5$ j: $y = \frac{1}{3\sqrt{1 - x^2} - 1}$
10. $y' + 2xy = 2x^3y^3$ j: $\frac{1}{y^2} = ce^{2x^2} = x^2 + \frac{1}{2}$
11. $y' + \frac{y}{x+1} + y^2 = 0$ j: $y = \frac{1}{(1+x)[c + \ln|1+x|]}$

12. $y^{n-1}(ay'+y)=x$ j: $ny^n = ce^{\frac{-nx}{a}} + nx - a$

13. $xdx = \left(\dfrac{x^2}{y} - y^3\right)dy$ j: $x^2 = y^2(c-y^2)$

14. $xy'+y = y^2\ln x$ j: $y(1+\ln x + cx) = 1$

15. $y' - ytgx + y^2\cos x = 0$ j: $y(x+c) = \sec x$

16. $y' + \dfrac{2y}{x} = \dfrac{2\sqrt{y}}{\cos^2 x}$ j: $y = \left(\dfrac{c+\ln(\cos x)}{x} + tgx\right)^2$

17. $xy' - 4y - x^2\sqrt{y} = 0$ j: $y = \dfrac{x^4}{4}\ln^2|cx|$

18. $ydy - \dfrac{ay^2}{x^2}dx = \dfrac{bdx}{x^2}$ j: $y^2 = ce^{\frac{-2a}{x}} - \dfrac{b}{a}$

19. $y' = \dfrac{y\varphi'(x) - y^2}{\varphi(x)}$, $\varphi(x)-$ berilgan funksiya.

j: $y = \dfrac{\varphi(x)}{x+c}$

20. $(2x^2 y\ln y - x)y' = y$ j: $xy(c - \ln^2 y) = 1$

TEST

O‘rniga qo‘yish usulida qanday almashtirish bajariladi?	* $y = uv$	$y = u^2 v$	$y = uv^2$	$y = u + v$
Umumlashgan bir jinsli tenglamada qanday almashtirish bajarilishini aniqlang.	* $y = z^\alpha$	$y = z + x$	$y = \dfrac{u}{v}$	$y = uv$
Quyidagi tenglamaning umumiy yechimini toping: $y' = \dfrac{y + \sqrt{x^2 - y^2}}{x}$	* $y = x\sin(\ln cx)$	$y = x\ln(\sin cx)$	$y = x\ln(\cos cx)$	$y = xtg(\ln cx)$
Tenglamaning umumiy yechimini aniqlang: $y' + \dfrac{1}{x}y = \dfrac{\sin x}{x}$	* $y = \dfrac{1}{x}(c - \cos x)$	$y = \dfrac{1}{x}(c - \sin x)$	$y = \dfrac{1}{x}(c - \cos\sin x)$	$y = \dfrac{1}{x}(c - \arccos x)$
Quyidagi tenglamalarni qaysi biri Bernulli tenglamasi hisoblanadi:	* $y' + P(x)y = Q(x)y^\alpha$	$y' + P(x)y + Q(x)y^2 = F(x)$	$y' + Q(x)y^2 = F(x)$	$y' + Q(x)y^2 = F(x)y^\alpha$
Bernulli tenglamasi qanday tenglamaga keltiriladi?	* Chiziqli	Bir jinsli	Eyler	Rikkati
Rikkati tenglamasini aniqlang.	* $y' + P(x)y + Q(x)y^2 = F(x)$	$y' + Q(x)y^4 = F(x)$	$x^2 y' + P(x)y^{\frac{1}{2}} = 0$	$y' + P(x)y^3 = Q(x)$
Rikkati tenglamasi avval qanday tenlamaga keltiriladi?	* Bernulli	Lagranj	O‘zgaruvchilarga ajralgan	Klero
Rikkati tenglamasining yechishda qanday almashtirish bajariladi.	* $y = y_1(x) + z$	$y = uv$	$y = \dfrac{u}{v}$	$y = y_1(x)z$

Differensial tenglama to'liq bo'lishining zaruriy va yetarli shartini aniqlang: $(M(x,y)dx + N(x,y)dy = 0)$	* $\frac{\partial N}{\partial x} = \frac{\partial M}{\partial y}$	$\frac{\partial M}{\partial x} = \frac{\partial N}{\partial x}$	$\frac{\partial^2 M}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 N}{\partial y^2}$	$\frac{\partial^2 M}{\partial x \partial y} = \frac{\partial^2 N}{\partial x \partial y}$

MA'RUZA №6 (№7)
Mavzu: Koshi masalasi yechimi mavjudligi va yagonaligi .

Reja

1. Koshi masalasi haqida tushuncha.
2. Mavjudlik va yagonalik teoramalari. Koshi, Pikar-Lindelef, Peano teoremasi.
3. Ekvivalentlik lemmasi. Gronuoll lemmasi.

Tayanch so'z va iboralar: *birinchi tartibli differensial tenglama uchun Koshi masalasi, Koshi teoremasi, Pikar – Lindelef teoremasi, Pikar teoremasi, ekvivalentlik lemmasi, Gronuoll lemmasi.*

Koshi masalasining qo'yilishi:

$$\frac{dy}{dx} = f(x,y) \tag{1}$$

tenglama berilgan bo'lib, unda $f(x,y)$ funksiya R^2 tekislikning D sohasida aniqlangan, uzluksiz va I interval Ox o'qidagi interval bo'lsin, x_0 ni o'z ichiga oladigan I intervalni va shu I intervalda aniqlangan uzluksiz differensiallanuvchi hamda ushbu

$$\begin{cases} 1^0.(x,\varphi(x)) \in D \ (x \in I) \\ 2^0.\varphi'(x) = f(x,\varphi(x)) \ (x \in I) \\ 1^0.\varphi(x_0) = y_0, \ (x_0, y_0) \in D \end{cases} \tag{2}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $y = \varphi(x)$ funksiyani topish talab etiladi. Bu masala qisqacha

$$\begin{cases} y' = f(x,y) & (1) \\ y(x_0) = y_0 & (2) \end{cases}$$

kabi yoziladi va (1) tenglama uchun Koshi masalasi (yoki boshlang'ich masala) deyiladi. Yuqoridagi 1^0, 2^0 va 3^0 shartlarni qanoatlantiradigan funksiya I intervalda Koshi masalasining *yechimi* deyiladi.

Har bir (1) ko'rinishdagi differensial tenglama uchun Koshi masalasi (1) va (2) ning yechimi bormi? Agar bunday yechim bor bulsa yagonami?- degan savollarga javob berish kerak bo'ladi. Bu savollarga javob beradigan teoremalar *mavjudlik va yagonalik teoremalari* deb yuritiladi. Quyida ulardan asosiylarni keltiramiz va Koshi-Pikar teoremasini isboti bilan beramiz.

1-TEOREMA(Koshi teoremasi). *Agar $f(x,y)$ funksiya D sohada aniqlangan va uzluksiz bo'lib, uning y bo'yicha xususiy hosilasi $\frac{\partial f(x,y)}{\partial y}$, biror $G (G \subset D)$ sohada* *aniqlangan va uzluksiz bo'lsa, u holda:*

1⁰. (1) tenglamaning x_0 *–ni o'z ichiga oladigan biror intervalda aniqlangan va har bir berilgan* $(x_0, y_0) \in G$ *nuqta uchun* $y(x_0) = y_0$ *boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud.*

2⁰ . Agar (1) tenglamaning ikkita $y = \varphi(x)$ *va* $y = \psi(x)$ *yechimlari* x_0 *da ustma-ust tushsa, ya'ni* $\varphi(x_0) = \psi(x_0) = y_0$*, bo'lsa, u holda bu* $y = \varphi(x)$ *va* $y = \psi(x)$ *yechimlar aniqlanish sohalarining umumiy qismida ustma-ust tushadi.*

TA'RIF. Agar $f(x, y)$ funksiya D sohada aniqlagana bo'lib, shu funksiya uchun shunday $L \geq 0$ son mavjud bo'lsaki, ixtiyoriy $(x, y_1) \in D, (x, y_2) \in D$ nuqtalar uchun ushbu

$$|f(x, y_1) - f(x, y_2)| \leq L|y_2 - y_1| \qquad (L)$$

tengsizlik bajarilsa, u holda $f(x, y)$ funksiya D sohada y argumenti bo'yicha *Lipshits shartini qanoatlantiradi* deyiladi, L esa *Lipshits o'zgarmasi* deyiladi.

2-TEOREMA (Koshi-Pikar-Lindelef teoremasi). *Agar*

$$\frac{dy}{dx} = f(x, y) \qquad (1)$$

tenglamada $f(x, y)$ *funksiya:*

1⁰) $D = \{(x, y) : x_0 - a \leq x \leq x_0 + a,\ y_0 - a \leq y \leq y_0 + a\}$ *tugri to'rtburchakda uzluksiz (demak, unda chegaralangan, ya'ni* $\exists M > 0\ |f(x, y)| \leq M$ *) bo'lsa,*

2⁰) y *argumenti bo'yicha Lipshits shartini qanoatlantirsa, u holda (1) tenglamani (2) boshlang'ich shartni qanoatlantiradigan va* $|x - x_0| \leq h,\ h = \min(a, \frac{b}{M})$ *intervalda aniqlangan yagona yechimga ega bo'ladi.*

3-TEOREMA(Peano teoremasi). *Agar* $f(x, y)$ *funksiya* D *sohada aniqlangan va uzluksiz bo'lsa, u holda* D *sohaning berilgan* $(x_0, y_0) \in D$ *nuqtasi uchun (1) tenglamaning ikkinchi shartini qanoatlantiradigan kamida bitta yechimi mavjud bo'ladi.*

Pikar teoremasini isbotiga o'tishdan avval zarur ikki tasdiqni keltiramiz:

1-Ekvivalentlik lemmasi. *Agar* $y = \varphi(x)$ *funksiya* x_0 *nuqtani o'z ichiga olgan biror* I *intervalda aniqlangan bo'lib, (1) va (2) Koshi masalasining yechimi bo'lsa, u holda* $y = \varphi(x)$ *funksiya* I *intervalda*

$$y(x) = y_0 + \int_{x_0}^{x} f(\tau, y(\tau))d\tau \qquad (3)$$

integral tenglamaning yechimi bo'ladi, va aksincha, agar $y=\varphi(x)$ *funksiya* I *intervalda uzluksiz bo'lib, (3) tenglamaning yechim bo'lsa, u holda* $y=\varphi(x)$ *funksiya (1) va (2) Koshi masalasining ham yechimi bo'ladi.*

Isbot. $y=\varphi(x)$ funksiya (1) tenglamaning yechimi bo'lgani uchun uni ayniyatga aylantiradi, ya'ni:

$$\frac{d\varphi(x)}{dx}\equiv f(x,\varphi(x)).$$

Bu ayniyatni x_0 dan x gacha $(x_0\in I,\, x\in I)$ integrallaymiz. ($\varphi(x_0)=y_0$ ekanini hisobga olib):

$$\varphi(x)=y_0+\int_{x_0}^{x} f(\tau,\varphi(\tau))d\tau$$

Bundan $y=\varphi(x)$ funksiya (3) integral tenglamaning yechimi ekani kelib chiqadi. Endi $y=\varphi(x)$ funksiya (3) tenglamaning yechimi bo'lsin. Undan $\varphi(x_0)=y_0$ ekani va

$$\varphi'(x)=\frac{d}{dx}(y_0+\int_{x_0}^{x} f(\tau,\varphi(\tau))d\tau)=0+\frac{d}{dx}(\int_{x_0}^{x} f(\tau,\varphi(\tau))d\tau)=f(x,\varphi(x))$$

dan $y=\varphi(x)$ funksiya (1) tenglamaning yechimi ekanligi kelib chiqadi. Lemma isbot bo'ldi.

2-Gronoull lemmasi. *Agar* $u(x)$ *funksiya* $[x_0,x_0+h]$ *intervalda* $u(x)\geq 0$, *uzluksiz bo'lib, shu intervalda ushbu*

$$u(x)\leq A+B\int_{x_0}^{x} u(\tau)d\tau,\ A\geq 0, B\geq 0 \qquad (4)$$

integral tengsizlikni qanoatlantirsa, shu $u(x)$ *funksiya uchun quyidagi*

$$u(x)\leq Ae^{B(x-x_0)},\ x\in[x_0,x_0+h] \qquad (5)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Isbot. Ushbu

$$u(x)=e^{B(x-x_0)}v(x)$$

belgilashni kiritamiz. Lemma shartiga ko'ra $u(x)\geq 0$, bo'lgani uchun $v(x)\geq 0$ va $v(x)$ ham $[x_0,x_0+h]$ intervalda uzluksiz bo'ladi. Shuning uchun $v(x)$ funksiya o'sha yopiq intervalning biror x_1, $x_1\in[x_0,x_0+h]$ nuqtasida maksimumga erishadi. (4) munosabatga $u(x)$ funksiya uchun ifodani qo'yib, $x=x_1$ deymiz:

$$e^{B(x_1-x_0)}v(x_1)=u(x)\le A+B\int_{x_0}^{x_1}e^{B(\tau-x_0)}v(\tau)d\tau\le$$

$$\le A+Bv(x_1)\int_{x_0}^{x_1}e^{B(\tau-x_0)}d\tau=A+Bv(x_1)\frac{e^{B(\tau-x_0)}}{B}\Bigg|_{x_0}^{x_1}=$$

$$=A+v(x_1)e^{B(x_1-x_0)}+v(x_1)$$

Bundan $v(x_1)\le A$ kelib chiqadi. Demak,

$$u(x)=v(x)e^{B(x-x_0)}\le v(x_1)e^{B(x-x_0)}\le Ae^{B(x-x_0)}$$

ya'ni $u(x)\le Ae^{B(x-x_0)}$. Lemma isbot bo‘ldi.

Gronoull lemmasidan natija sifatida $A=0$ bo‘lganda (5) ga ko‘ra $u(x)\equiv 0,\ x\in[x_0,x_0+h]$ kelib chiqadi.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние дифферциальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Chiziqli differensial tenglamalar. Yechimning xossalari.
2. Integrallovchi ko‘paytuvchi va uning mavjudligi haqida teorema.

Glossariy

Koshi masalasi – $\frac{dy}{dx}=f(x,y)$ tenglama berilgan bo‘lib, unda $f(x,y)$ funksiya R^2 tekislikning D sohasida aniqlangan, uzluksiz va I interval x o‘qidagi interval bo‘lsin, x_0 ni o‘z ichiga oladigan I intervalni va shu I intervalda aniqlangan uzluksiz differensiallanuvchi hamda ushbu $\begin{cases}1^0.\ (x,\varphi(x))\in D\ (x\in I)\\ 2^0.\ \varphi'(x)=f(x,\varphi(x))(x\in I)\\ 3^0.\ \varphi(x_0)=y_0,\ (x_0,y_0)\in D\end{cases}$ shartlarni qanoatlantiruvchi $y=\varphi(x)$ funksiyani topish talab etiladi. Bu masala qisqacha $\begin{cases}y'=f(x,y) & (1)\\ y(x_0)=y_0 & (2)\end{cases}$ kabi yoziladi va (1) tenglama uchun Koshi masalasi (yoki boshlang‘ich masala) deyiladi.

Koshi teoremasi - Agar $f(x,y)$ funksiya D soxada aniqlangan va uzluksiz bo‘lib, uning y bo‘yicha xususiy xosilasi $\frac{\partial f(x,y)}{\partial y}$, biror $G(G\in D)$ soxada aniqlangan va uzluksiz bo‘lsa, u xolda :

1^0. (1) tenglamaning x_0–ni o‘z ichiga oladigan biror intervalda aniqlangan va xar bir berilgan $(x_0, y_0)\in G$ nuqta uchun $y(x_0)=y_0$ boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud.

2^0 . Agar (1) tenglamaning ikkita $y=\varphi(x)$ va $y=\psi(x)$ yechimlari x_0 da ustma-ust tushsa, ya'ni $\varphi(x_0)=\psi(x_0)=y_0$, bo‘lsa, u xolda bu $y=\varphi(x)$ $y=\psi(x)$ yechimlar aniqlanish soxalarining umumiy qismida ustma-ust tushadi.

Lipshits sharti - Agar $f(x,y)$ funksiya D soxada aniqlagana bo‘lib, shu funksiya uchun shunday $L\geq 0$ son mavjud bo‘lsaki, ixtiyoriy $(x,y_2)\in D$ $(x,y_2)\in D$ nuqtalar uchun ushbu

$$|f(x,y_1)-f(x,y_2)|\leq L|y_2-y_1| \qquad (L)$$

tengsizlik bajarilsa, u xolda $f(x,y)$ funksiya D soxada u bo‘yicha Lipshits shartini qanoatlantiradi deyiladi, L esa Lipshits o‘zgarmasi deyiladi.

Koshi-Pikar-Lindelef teoremasi - Agar

$$\frac{dy}{dx}=f(x,y) \qquad (1)$$

tenglamada $f(x,y)$ funksiya:

1^0) $D=\{(x,y): x_0-a\leq x\leq x_0+a,\ y_0-b\leq y\leq y_0+b\ \}$

tugri to‘rtburchakda uzluksiz(demak, unda chegaralangan, ya'ni $\exists M>0\ |f(x,y)|\leq M)$ bo‘lsa,

2^0) y bo‘yicha Lipshits shartini qanoatlantirsa, u holda (1) tenglama (2) boshlang‘ich shartni qanoatlantiradigan va $|x-x_0|\leq h,\ h-\min\left(a,\dfrac{b}{M}\right)$ intervalda aniqlangan yagona yechimga ega bo‘ladi.

Peano teoremasi - Agar $f(x,y)$ funksiya D sohada aniqlangan va uzluksiz bo‘lsa, u xolda D sohaning berilgan $(x_0,y_0)\in D$ nuqtasi uchun (1) tenglamaning ikkinchi shartini qanoatlantiradigan kamida bitta yechimi mavjud bo‘ladi.

Gronoull lemmasi. Agar $u(x)$ funksiya $[x_0,x_0+h]$ intervalda $u(x)\geq 0$, uzluksiz bo‘lib, shu intervalda ushbu

$$u(x)\leq A+B\int_{x_0}^{x}u(\tau)d\tau,\ A\geq 0, B\geq 0$$

integral tengsizlikni qanoatlantirsa, shu $u(x)$ funksiya uchun quyidagi

$$u(x)\leq Ae^{B(x-x_0)}, x\in[x_0,x_0+h]$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Keyslar banki

Keys: Masala o’rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching:

$(1-x^2)y'-xy=xy^2;\quad y(0)=0,5$

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma’lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. Koshi masalasi qanday qo‘yiladi?
2. Koshi masalasi deb nimaga aytiladi?
3. Lipishu o‘zgarmasi deb nimaga aytiladi?
4. Ekvivalentlik lemmasini isbotlang?
5. Gronoull lemmosini isbotlang?

Amaliy mashg’ulot-6

1. $xdx = (x^2 - 2y + 1)dy$ j: $x^2 = ce^{2y} + 2y$
2. $(x+1)(yy' - 1) = y^2$ j: $y^2 = c(x+1)^2 - 2(x+1)$
3. $x(e^y - y^1) = 2$ j: $e^{-y} = ex^2 + x$
4. $(x^2 - 1)y'\sin y + 2x\cos y = 2x - 2x^3$ j: $\cos y = (x^2 - 1)\ln c(x^2 - 1)$
5. $y(x) = \int_0^x y(t)dt - x + 1$ j: $y = 2e^x - 1$
6. $\int_0^x (x-t)y(t)dt = 2x + \int_0^x y(t)dt$ j: $y = -2e^x$
7. $x^2y^1 + xy + x^2y^2 = 4;\quad y = \frac{2}{x} -$ xususiy yechim.

j: $y = \frac{2}{x} + \frac{4}{cx^5 - x}$

8. $3y^1 + y^2 + \frac{2}{x^2} = 0;\quad y = \frac{1}{x} - x \cdot e.$ j: $y = \frac{1}{x} + \frac{1}{cx^{2/3} + x}$
9. $xy^1 - (2x+1)y + y^2 = -x^3;\quad y = x -$ xususiy yechim.

j: $y = x + \frac{x}{x + c}$

10. $y^1 - 2xy + y^2 = 5 - x^2;\quad y = x + 2 -$ xususiy yechim j: $y = x + 2 + \frac{4}{ce^{4x} - 1}$.
11. $y^1 + 2ye^x - y^2 = e^{2x} + e^x;\quad y = e^x -$ xususiy yechim j: $y = e^x - \frac{1}{x + c}$

TEST

$\frac{dy}{dx} = f\left(\frac{ax + by + c}{a_1x + b_1y + c_1}\right)$ tenglamada $\Delta = \begin{vmatrix} a & b \\ a_1 & b_1 \end{vmatrix} = 0$ bo‘lsa, qanday almashtirish bajariladi.	* $z = ax + by$	$z = ax$	$z = by$	$z = ax + c$
Birinchi tartibli chiziqli tenglamani yechish usuli nomini aniqlang.	* Ixtiyoriy o‘zgarmasni variatsiyalash usuli	Aniqmas koeffitsientlar usuli	Ketma-ket yaqinlashish usuli	Ketma-ket yo‘qotish usuli
O‘rniga qo‘yish usulida qanday almashtirish bajariladi?	* $y = uv$	$y = u^2v$	$y = uv^2$	$y = u + v$

Umumlashgan bir jinsli tenglamada qanday almashtirish bajarilishini aniqlang.	* $y = z^{\alpha}$	$y = z + x$	$y = \frac{u}{v}$	$y = uv$
Quyidagi tenglamaning umumiy yechimini toping: $y' = \frac{y + \sqrt{x^2 - y^2}}{x}$	* $y = x \sin(\ln cx)$	$y = x \ln(\sin cx)$	$y = x \ln(\cos cx)$	$y = x tg(\ln cx)$
Tenglamaning umumiy yechimini aniqlang: $y' + \frac{1}{x} y = \frac{\sin x}{x}$	* $y = \frac{1}{x}(c - \cos x)$	$y = \frac{1}{x}(c - \sin x)$	$y = \frac{1}{x}(c - \cos \sin x)$	$y = \frac{1}{x}(c - \arccos x)$
Quyidagi tenglamalarni qaysi biri Bernulli tenglamasi hisoblanadi:	* $y' + P(x)y = Q(x)y^{\alpha}$	$y' + P(x)y + Q(x)y^2 = F(x)$	$y' + Q(x)y^2 = F(x)$	$y' + Q(x)y^2 = F(x)y^{\alpha}$
Bernulli tenglamasi qanday tenglamaga keltiriladi?	* Chiziqli	Bir jinsli	Eyler	Rikkati
Rikkati tenglamasini aniqlang.	* $y' + P(x)y + Q(x)y^2 = F(x)$	$y' + Q(x)y^4 = F(x)$	$x^2 y' + P(x) y^{\frac{1}{2}} = 0$	$y' + P(x)y^3 = Q(x)$
Rikkati tenglamasi avval qanday tenlamaga keltiriladi?	* Bernulli	Lagranj	O'zgaruvchilarga ajralgan	Klero

MA'RUZA № 8.

Mavzu: Hosilaga nisbatan yechilmagan tenglamalar. Parametr kiritish usuli.

Reja:

1. Hosilaga nisbatan yechilmagan birinchi tartibli tenglama.
2. n-chi darajali birinchi tartibli tenglama.
3. y - ga nisbatan yechilgan va x qatnashmagan tenglama.
4. x - ga nisbatan yechilgan va y qatnashmagan tenglama.
5. y yoki x ga nisbatan yechilmagan tenglama.
6. Parametr kiritish usuli.

Tayanch so'z va iboralar: *hosilaga nisbatan yechilmagan 1-chi tartibli tenglama, n-darajali birinchi tartibli tenglama, y-ga nisbatan yechilgan va x qatnashmagan tenglama, x-ga nisbatan yechilgan va uqatnashmagan tenglama, u yoki x-ga nisbatan yechilmagan tenglama, parametr kiritish usuli.*

1. Shu paytga qadar hosilaga nisbatan yechilgan, ya'ni

$$y' = f(x, y) \tag{1}$$

ko‘rinishdagi differensial tenglamalarni tekshirish bilan cheklanib keldik. Biroq, oldingi ma'ruzalarda aytib o‘tilganidek, birinchi tartibli tenglama umuman aytganda,

$$F(x, y, y') = 0 \tag{2}$$

Umumiy yechim - (2) differensial tenglama va $x, C_1, C_2, ... C_n$ o‘zgaruvchilarning biror o‘zgarish soxasida aniqlangan xamda x bo‘yicha n marta uzluksiz differensiallanuvchi

$$y = \varphi(x, C_1, C_2, ... C_n)$$

funksiya berilgan bo‘lsin. Agar ixtiyoriy $(x, y, y', ..., y^{(n-1)}) \in D_{n+1}$ nuqta uchun ushbu

$$\begin{cases} y = \varphi(x, C_1, C_2, ..., C_n) \\ y' = \varphi'(x, C_1, C_2, ..., C_n) \\ y^{(n-1)} = \varphi^{(n-1)}(x, C_1, C_2, ..., C_n) \end{cases}$$

munosabatlar $C_1, C_2, ... C_n$ larning

$$\begin{cases} C_1 = \psi_1(x, y, y', .. y^{(n-1)}) \\ C_2 = \psi_2(x, y, y', .. y^{(n-1)}) \\ C_n = \psi_n(x, y, y', .. y^{(n-1)}) \end{cases}$$

qiymatlarini bir qiymatli aniqlasa va bu qiymatlarni ushbu

$$y^{(n)} = \varphi^{(n)}(x, C_1, C_2, ... C_n)$$

tenglikka qo‘yish natijasida (2) tenglama xosil bo‘lsa, (ya'ni tenglamani qanoatlartirsa), u xolda (4) funksiya (2) tenglamaning D_{n+1} soxasida aniqlangan umumiy yechimi deyiladi.

Koshi teoremasi - Agar (2) differensial tenglamada ushbu

$$f(x, y, y', ..., y^{(n-1)}), \frac{\partial f}{\partial y}, \frac{\partial f}{\partial y'}, ..., \frac{\partial f}{\partial y^{(n-1)}},$$

funksiya lar $D_{n+1} \subset R^{n+1}$ soxada aniqlangan va uzluksiz bo‘lsa, u xolda:

1^0. (2) differensial tenglama ning biror I integralda aniqlangan,

$$y(x_0) = y_0, \ y'(x_0) = y'_0, \dots, y^{(n-1)}(x_0) = y_0^{(n-1)}, (x_0, y_0, y'_0, .. y_0^{(n-1)} \in D_{n+1})$$

boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud.

2^0. Agar $y = \varphi(x), x \in I_1$ va $y = \psi(x), x \in I_2$ funksiya larning xar biri (2) differensial tenglamaning yechimi bo‘lib, berilgan x_0 uchun $\varphi(x_0) = \psi(x_0), \ \varphi'(x_0) = \psi'(x_0), ..., \varphi^{(n-1)}(x_0) = x^{(n-1)}(x_0),$ bo‘lsa, $y = \varphi(x)$ va $y = \psi(x)$ yechimldar aniqlanganqlanish soxalarining umumiy qismida ustma-ust tushadi.

Boshqacha aytganda, agar $x_0 \in I_1 \cap I_2$ nuqtada $\varphi^{(i)}(x_0) = \psi^{(i)}(x_0), \ i = 0.1, ... n-1$ bo‘lsa, u xolda $I_1 \cap I_2$ intervalda $\varphi(x) = \psi(x)$ bo‘ladi.

Peano teoremasi - Agar $f(x, y, y', ..., y^{(n-1)})$ funksiya D_{n+1} soxada aniqlangan va uzluksiz bo‘lib, $(x_0, y_0. y'_0, .. y_0^{(n-1)}) \in D_{n+1}$ bo‘lsa, u xolda (2) differensial tenglamaning (8) boshlang‘ich shartlarini qanoatlantiradigan kamida bitta yechimi mavjud.

Keyslar banki

Keys: Masala o’rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching: $y'^2 - y' \cdot x - y + \dfrac{x^2}{2} = 0$.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);

- to`plangan ma’lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. Qanday ko‘rinishdagi tenglama p-tartibli oddiy differensial tenglama deyiladi?
2. Differensial tenglamasining yechimideb nimaga aytiladi?
3. $y^{(n)} = f\left(x_1 y_1 y^1, \ldots, y^{(n-1)}\right)$ tenglamaning xususiy yechimi deb nimaga aytiladi?
4. $y^{(n)} = f(x_1 y_1 y_1, \ldots, y^{(n-1)})$ tenglama uchun.Koish masalasi deb nimaga aytiladi?
5. Koish masalasini yagona yechimga ega bo‘lishini isbotlang?

Amaliy mashg’ulot-10

1. $(\sin x + e^{y})dx + \cos x dy = 0$ j: $\mu = e^{-y}$; $e^{-y}\cos x = c + x$
2. $(x\sin y + y)dx + (x^2\cos y + x\ln x)dy = 0$ j: $\ln\mu = -\ln x$; $\mu = \frac{1}{x}$; $x\sin y + \ln x = c$
3. $(x^2 + y^2 + 2x)dx + 2ydy = 0$ j: $(x^2 + y^2)e^{x} = c$
4. $(x^2 + y)dx - xdy = 0$ j: $\mu = \frac{1}{x^2}$; $x - \frac{y}{x} = c$
5. $x^2y^3 + y + (x^3y^2 - x)y^1 = 0$ j: $x^2y^2 + 2\ln\frac{x}{y} = c$
6. $(x^2 + y^2 + 1)dx - 2xydy = 0$ j: $x^2 - y^2 - 1 = cx$
7. $(y + x^2)dy + (x - xy)dx = 0$ j: $x^2 + y^2 = C(y-1)^2$
8. $\left[2y + \frac{1}{(xtg)^2}\right]dx + \left[3y + x + \frac{1}{(xtg)^2}\right]dy = 0$ j: $y^3 + x^2y + 2xy^2 + \ln(x+y) = c$

TEST

Birinchi tartibli chiziqli tenglamada $Q(x)$ qanday bo‘lsa, chiziqli bir jinsli tenglama deyiladi?	* $Q(x)=0$	$Q(x)\neq 0$	$Q(x)=1$	$Q(x)=x$
Ushbu $y = Cx^3$ chiziqlar oilasi qaysi diffirensial tenglamaning yechimi?	*$xy' = 3y$	$y = e^{xy^{1/y}}$	$y' = 3y^{2/3}$	$y = xy'$
$y' = ax^{\alpha} + by^{\beta}$ tenglama α va β ning qanday qiymatlarida $y = z^m$ almashtirish yordamida bir jinsli tenglamaga keltiriladi.	*$\frac{1}{\beta} - \frac{1}{\alpha} = 1$	$\alpha + \beta = 1$	$-\frac{1}{\alpha} - \frac{1}{\beta} = 1$	$\alpha - \beta = 1$
$y' + 2ye^{x} - y^2 = e^{2x} + e^{x}$ Rikkati tenglamasini bitta xususiy yechimini toping.	* $y_1 = e^{x}$	$y_1 = e^{-x}$	$y_1 = e^{2x}$	$y = x + 1$
Agar y_1 va y_2 – birinchi tartibli chiziqli tenglamaning ikkita turli yechimlari bo‘lsa, tenglamaning umumiy yechimi y_1 va y_2 yordamida qanday	* $y = y_1 + c(y_2 - y_1)$	$y = y_1 \cdot y_2$	$y = \frac{y_1}{y_2}$	Yozib bo‘lmaydi

yoziladi?				
Quyidagi funksiyalardan qaysi $y^2dx-(xy+x^3)dy=0$ tenglama uchun integrallovchi ko'paytuvchi bo'ladi?	$*\frac{1}{x^3}$	$\frac{1}{y}$	$\frac{1}{x^2}$	$\frac{1}{y^2}$
Quyidagi funksiyalardan qaysi $y(x+y)dx+(xy+1)dy=0$ tenglama uchun integrallovchi ko'paytuvchi bo'ladi?	$*\frac{1}{y}$	$\frac{1}{x^2}$	$\frac{1}{x^3}$	$\frac{1}{y^2}$
$e^{-x}\frac{1}{y}$ funksiya quyidagi tenglamalardan qaysi biri uchun integrallovchi ko'paytuvchi bo'ladi?	$*y^2dx+(e^x-y)dy=0$	$e^{-x}xydx-(x^2+y^2)dy=0$	$e^{-x}dx-$ $-(2y+xe^{-x})dy=0$	Hamma javoblar noto'g'ri
Agar $M(x,y)dx+N(x,y)dy=0$ tenglamada $M(x,y)$ va $N(x,y)$ m-tartibli bir jinsli funksiyalar bo'lsa, u holda integrallovchi ko'paytuvchi qanaqa ko'rinishda bo'ladi?	$*\ m(x,y)=[xM+yN]^{-1}$	$m(x,y)=xM+yN$	$m(x,y)=\frac{x+y}{M+N}$	$m(x,y)=[xN+yM]^{-1}$
Shunday egri chiziqlarni topingki, uning har bir nuqtasiga o'tkazilgan urinma koordinata o'qlari bilan birgalikda yuzasi $2a^2$ ga teng bo'lgan uchburchak hosil qilsin.	$*\ xy=\pm a^2$	$y=\frac{1}{a^2}$	$xy=\pm 2a^2$	$y=a^4$

MA'RUZA № 12

Mavzu: n-tartibli differensial tenglamalar.Tartibi kamayadigan differensial tenglamalar

Reja:

1. $n-$tartibli differensial tenglamalarning kvadraturada integrallanuvchi ba'zi turlari.
2. Tartibi kamayadigan differensial tenglamalar.

Tayanch so'z va iboralar: $y^n=f(x)$ *ko'rinishidagi tenglama,* $F(x,y^{(n)})=0$ *ko'rinishidagi tenglama,* $F(y^{(n-1)},y^{(n)})=0$ *ko'rinishidagi tenglama,* $F(y^{(n-2)},y^{(n)})=0$ *ko'rinishidagi tenglama,* $F(y^{(n)})=(y^{(n)})^k+a_1(y^{(n)})^{k-1}+...+a_{k-1}(y^{(n)})+a_k=0$ *ko'rinishidagi tenglama*

1. $y^n=f(x)$ **ko'rinishdagi tenglama.** Mavjudlik va yagonalik teoremasining

shartlarini bajarilishi uchun $f(x)$ funksiya biror I intervalda uzluksiz bo‘lishi yetarli. Shunday deb faraz qilaylik. Bu holda differensial tenglamani n marta ketma-ket integrallab, umumiy yechimni topish mumkin:

$$y(x)=\int_{x_0}^{x}\int_{x_0}^{x}\dots\int_{x_0}^{x} f(x)dxdx\dots dx+\frac{C_1}{(n-1)!}(x-x_0)^{n-1}+$$

$$+\frac{C_2}{(n-2)!}(x-x_0)^{n-2}+\dots+C_{n-1}(x-x_0)+C_n. \qquad (1)$$

(1) formula $y^{(n)}=f(x)$ tenglamaning barcha yechimlarini o‘z ichiga oladi va umumiy yechim bo‘ladi. Maxsus yechimlar yo‘q.

2. $F(x,y^{(n)})=0$ **ko‘rinishdagi tenglama.** Agar bu tenglamani $y^{(n)}$ ga nisbatan yechish mumkin bo‘lsa (ya'ni $y^{(n)}=f_k(x),\ k=1,2,\dots.$), u holda bu tenglamalarning integrallab, berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimini topamiz.

$F(x,y^{(n)})=0$ tenglama $y^{(n)}$ ga nisbatan yechilmasin deylik. x va $y^{(n)}$ lar parametrik ko‘rinishda yozilishi mumkin deb faraz qilamiz, ya'ni $x=\psi(t),\ y^{(n)}=\chi(t)$. U holda $dy^{(n-1)}=y^{(n)}dx$ ga ko‘ra $dy^{(n-1)}=\chi(t)\psi'(t)dt$. Bundan

$$y^{(n-1)}=\chi_1(t,C_1),\ y^{(n-2)}=\chi_2(t,C_1,C_2),\dots,y=\chi_n(t,C_1,C_2,\dots,C_n).$$

Shunday qilib umumiy yechim $x=\psi(t),\ y=\chi_n(t,C_1,C_2,\dots,C_n)$ bo‘ladi.

3. $F(y^{(n-1)},y^{(n)})=0$ **ko‘rinishdagi tenglama.** a) Tenglamani $y^{(n)}$ ga nisbatan yechish mumkin bo‘lsin: $y^{(n)}=f(y^{(n-1)})$. Agar $z=y^{(n-1)}$ desak, $z'=f(z)$ ga kelamiz. Bu o‘zgaruvchilari ajraladigan birinchi tartibli differensial tenglama. Uning umumiy yechimi

$$x=C_1+\int\frac{dz}{f(z)}$$

bo‘ladi. Bu tenglik z ga nisbatan yechilishi mumkin bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Agar uni z ga nisbatan yechish mumkin bo‘lsa, (ya'ni $z=\psi_1(x_1,C_1)$), u holda $y^{(n-1)}=\psi_1(x_1,C_1)$ dan $y=\psi_n(t,C_1,C_2,\dots,C_n)$ umumiy yechim kelib chiqadi. Mabodo yuqoridagi tenglik z ga nisbatan yechilmasa, yana parametr kiritish usulidan foydalaniladi.

b) Tenglamani $y^{(n)}$ ga nisbatan yechish mumkin emas, ammo $y^{(n)}=\chi(t),\ y^{(n-1)}=\psi(t)$ parametrik ifoda ma'lum deylik. U holda $dy^{(n-1)}=y^{(n)}dx$ dan $dx=\dfrac{dy^{(n-1)}}{y^{(n)}}=\dfrac{\psi'(t)}{\chi(t)}$ va $x=\int\dfrac{\psi'(t)dt}{x(t)}+C_1$ kelib chiqadi. Endi $dy^{(n-2)}=y^{(n-1)}dx$ dan

$$y^{(n-2)}=\int y^{(n-1)}dx+C_2=\int\psi(t)\cdot\frac{\psi'(t)}{\chi(t)}dt+C_2$$

ni hosil qilamiz. Shunga o‘xshash muloxazalar yuritib,

$$dy^{(n-3)}=y^{(n-2)}dx,\dots,dy=y'dx$$

tengliklarni integrallaymiz va $y=\int y'dx+C_n$ dan y uchun parametrik ifodani topamiz. Ma'lumki, x ning parametrik ifodasida bitta (C_1) ixtiyoriy o‘zgarmas, $y^{(n-2)}$ da ham bitta (C_2), $y^{(n-3)}$ da 2ta (C_2 va C_3),…, $y^{(n-(n-1))}$ da $n-2$ ta, y da esa $n-1$ ta ixtiyoriy o‘zgarmas qatnashadi. U holda x va y larning parametrik ifodalarida n ta ixtiyoriy o‘zgarmas qatnashadi. Demak,

$$x=\int\frac{\psi'(t)dt}{x(t)}+C_1,\ y=\int y'dx+C_n(=\chi_n(t,C_2,C_3,\dots,C_n))$$

umumiy yechim bo‘ladi.

4. $F(y^{(n-2)}, y^{(n)}) = 0$ **ko‘rinishdagi tenglama.** Ushbu $z = y^{(n-2)}$ almashtirish berilgan tenglamani $F(z, z'') = 0$ ko‘rinshga olib keladi.

a) Oxirgi tenglamani z'' ga nisbatan yechish mumkin bo‘lsin deylik: $z'' = f(z)$. Bu tenglama 1) bandda ko‘rilgan usul bilan integrallanadi, yani

$$2z'z'' = 2f(z)z' \Rightarrow d(z')^2 = 2f(z)dz \Rightarrow z'^2 = 2\int f(z)dz + C \Rightarrow$$

$$\Rightarrow z' = \pm\sqrt{2\int f(z)dz + C_1} \Rightarrow dx = \frac{dz}{\pm\sqrt{2\int f(z)dz + C_1}} \Rightarrow x + C_2 = \int \frac{dz}{\pm\sqrt{2\int f(z)dz + C_1}}.$$

Oxirgi tenglikdan z – ni topib bo‘lsa, u holda $z = y^{(n-2)}$ almashtirishdan tenglamani umumiy yechimini topish mumkin. Agar z – ga nisbatan yechilmasa yana parametr kiritib umumiy yechim topiladi.

b) Berilgan tenglama $y^{(n)}$ ga nisbatan yechilmasin, ammo $y^{(n-2)} = \psi(t)$, $y^{(n)} = \chi(t)$ parametrik ifoda ma'lum deylik. Ma'lumki, $dy^{(n-1)} = y^{(n)}dx$, $dy^{(n-2)} = y^{(n-1)}dx$. Bu tengliklardan

$$\frac{dy^{(n-1)}}{y^{(n)}} = \frac{dy^{(n-2)}}{y^{(n-1)}}$$

yoki

$$y^{(n-1)}dy^{(n-1)} = y^{(n)}dy^{(n-2)} = \chi(t)\psi'(t)dt$$

munosabat kelib chiqadi. Bundan

$$y^{(n-1)} = \pm\sqrt{2\int \chi(t)\psi'(t)dt + C_2}.$$

Keyingi mulohazalar 2 banddagi kabi bo‘ladi. x uchun topiladigan ifodada ikki ixtiyoriy o‘zgarmas (C_1 va C_2) qatnashadi. Oxirgi tenglamani ketma-ket integrallab borsak, yana $C_3, C_4, ..., C_n$ – ixtiyoriy o‘zgarmaslar ishtirok etadi. U holda umumiy yechimni bunday yozish mumkin:

$$x = \int \frac{dy^{(n-2)}}{y^{(n-1)}} + C_1 = \int \frac{\psi'(t)}{\pm\sqrt{2\int \chi(t)\psi'(t)dt + C_2}} + C_1,$$

$$y = \Phi(t, C_2, C_3, ..., C_n).$$

5. $F(y^{(n)}) = (y^{(n)})^k + a_1(y^{(n)})^{k-1} + ... + a_{k-1}(y^{(n)}) + a_k = 0$, $a_i = const, i = 1,2,...,k$ **ko‘rinishdagi tenglama.** Bu differensial tenglamani $y^{(n)}$ ga nisbatan k – tartibli algebraik tenglama deb qaraymiz. Uning haqiqiy ildizlari $p_1, p_2, ..., p_s$, $s \le k$ bo‘lsin. U holda $y^{(n)} = p_j$, $j = 1,2,...,s$ differensial tenglamani n marta integrallasak,

$$y = p_j\frac{x^n}{n!} + C_1\frac{x^{n-1}}{(n-1)!} + ... + C_{n-2}\frac{x^2}{2!} + C_{n-1}x + C_n$$

kelib chiqadi. Undan:

$$p_j = \frac{n!}{x^n}\left(y - C_1\frac{x^{n-1}}{(n-1)!} - ... - C_{n-2}\frac{x^2}{2!} - C_{n-1}x - C_n\right).$$

Shu topilgan p_j – ni berilgan tenglamada $y^{(n)}$ o‘rniga qo‘ysak, uning umumiy yechimi

$$F\left(\frac{n!}{x^n}\left(y - C_1\frac{x^{n-1}}{(n-1)!} - ... - C_{n-2}\frac{x^2}{2!} - C_{n-1}x - C_n\right)\right) = 0$$

hosil bo‘ladi.

Agar

$$(y^{(n)})^k + a_1(x,y,y',\dots,y^{(n-1)})(y^{(n)})^{k-1} + \dots + a_{k-1}(x,y,y',\dots,y^{(n-1)})(y^{(n)}) +$$
$$+ a_k(x,y,y',\dots,y^{(n-1)}) = 0, \quad a_j \in C(D_{n+1})$$

differensial tenglama ko‘rilsa, u holda uni $y^{(n)}$ ga ko‘ra $k-$tartibli algebraik tenglama deb qarash mumkin. Agar haqiqiy ildizlarni topish mumkin bo‘lsa, u holda ushbu yuqori hosilaga nisbatan yechilgan

$$y^{(n)} = p_j(x,y,y',\dots,y^{(n-1)}), \ j = 1,2,\dots,s, \ s \le k$$

tenglamalarga ega bo‘lamiz.

2. a) $n-$tartibli differensial tenglamada noma'lum funksiya y va uning ketma-ket kelgan xosilalari $y,y',\dots,y^{(k-1)}$ qatnashmasin deylik. U holda differensial tenglama

$$F(x,y^{(k)},y^{(k+1)},\dots,y^{(n)}) = 0, \ k = \overline{1,n} \qquad (1)$$

ko‘rinishda yoziladi. Bu holda $y^{(k)} = p(x)$ deyilsa, $F(x,p(x),p'(x),\dots,p^{(n-k)}(x)) = 0$ $(n-k)-$tartibli differensial tenglama hosil bo‘ladi, ya’ni tenglama tartibi k birlikka pasayadi. Agar uni integralldash mumkin desak, $\Phi(x,p(x),C_1,C_2,\dots,C_{n-k}) = 0$ ni hosil qilamiz. Endi $p(x) = y^{(k)}$ bo‘lgani uchun $\Phi(x,y^{(k)},C_1,C_2,\dots,C_{n-k}) = 0$ ni hosil qilamiz. Bu $k-$tartibli differensial tenglamani integrallasak umumiy yechimga ega bo‘lamiz.

b) Agar $n-$tartibli differensial tenglamada erkli o‘zgaruvchi oshkor holda qatnashmasa, ya'ni tenglama

$$F(y,y',\dots,y^{(n)}) = 0 \qquad (2)$$

ko‘rinishda bo‘lsa, y ni yangi erkli o‘zgaruvchi, $y' = p(y)$ ni yangi noma'lum funksiya deb, ushbu almashtirishni bajaramiz (x→y, y→p):

$$y' = p(y) \Rightarrow y'' = \frac{dp}{dx} = \frac{dp}{dy}\cdot\frac{dy}{dx} = p\cdot\frac{dp}{dy} = p\cdot p' \Rightarrow$$

$$y''' = \frac{dy''}{dx} = \frac{d}{dy}\left(p\frac{dp}{dy}\right)\frac{dy}{dx} = p\left[p\frac{d^2p}{dy^2} + \left(\frac{dp}{dy}\right)^2\right] = p^2\frac{d^2p}{dy^2} + p\left(\frac{dp}{dy}\right)^2 = p^2p'' + pp'^2,\dots$$

Bu hisoblashlar yordamida $\dfrac{d^ky}{dx^k}$ miqdor $p,\dfrac{dp}{dy},\dots,\dfrac{d^{k-1}p}{dy^{k-1}}$ miqdorlar orqali ifodalanishini matematik induksiya usuli bilan ko‘rsatish mumkin. Shu almashtirishni bajarsak, $(n-1)-$tartibli

$$F_1\left(y,p,\frac{dp}{dy},\dots,\frac{d^{n-1}p}{dy^{n-1}}\right) = 0$$

differensial tenglamaga kelamiz. Demak, ko‘rilayotgan holda differensial tenglamaning tartibini bittaga kamaytirish mumkin. Agar hosil bo‘lgan tenglamaning umumiy yechimi

$$\Phi(y,p,C_1,\dots,C_{n-1}) = 0$$

yoki

$$\Phi\left(y,\frac{dy}{dx},C_1,\dots,C_{n-1}\right) = 0$$

bo‘lsa, shu munosabat berilgan $F(y,y',\dots,y^{(n)}) = 0$ tenglamaning oraliq integrali bo‘ladi. Endi berilgan differensial tenglamaning umumiy integralini topish uchun uning oraliq integralini 1-tartibli differensial tenglama sifatida integrallash kifoya.

c)Agar (2) $F(y,y',\dots,y^{(n)}) = 0$ differensial tenglamada $F(y,y',\dots,y^{(n)})$ biror $\Phi(y,y',\dots,y^{(n-1)})$ funksiyaning to‘liq differensiali bo‘lsa, ya'ni

$$F(y,y',\dots,y^{(n)}) = \frac{d}{dx}\Phi(y,y',\dots,y^{(n-1)})$$

munosabat o‘rinli bo‘lsa, u holda (2) tenglamaning bitta birinchi integrali $\Phi(y, y',..., y^{(n-1)}) = C_1$ ko‘rinishda yoziladi. Bu esa o‘zgaruvchi navbatida berilgan differensial tenglamaga qaraganda tartibi bitta kam $(n-1)-$tartibli differensial tenglamadir.

s)Agar $F(x, y, y',..., y^{(n)}) = 0$ tenglama $y, y',..., y^{(n)}$ argumentlariga nisbatan bir jinsli, ya’ni

$$F(x, ty, ty',..., ty^{(n)}) = t^k F(x, y, y',..., y^{(n)})$$

bo‘lsa, u holda $y = e^{\int zdx}$, $z = z(x)$ yoki $y' = yz$ almashtirish bajarib tenglamani tartibini bir birlikka pasaytirish mumkin.

Misol. $x^2yy'' = (y - xy')^2$ tenglamani yeching.

d) Agar $F(x, y, y',..., y^{(n)}) = 0$ tenglama umumiy holda bir jinsli bo‘lsa, ya’ni

$$\begin{aligned}
&x \to kx \\
&y \to k^m y \\
&y' \to k^{m-1} y' \\
&y'' \to k^{m-2} y'' \\
&\dots\dots\dots\dots\dots \\
&y^{(n)} \to k^{m-n} y^{(n)}
\end{aligned}$$

almashtirish natijasida, tenglamani bir jinsli qiladigan $m-$ni tanlash mumkin bo‘lsa, u holda $x = e^t$, $y = u(t)e^{mt}$ almashtirish bajarib, tenglamani tartibini pasaytirish mumkin. Hosil bo‘lgan tenglama u va $t-$ga bog‘liq bo‘lib, t oshkor qatnashmaydi. Bu biz ko‘rgan b) holga to‘g‘ri keladi.

Misol. $x^3y'' = (y - xy')^2$ tenglamani yeching.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние дифферциальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Mavjudlik va yagonalik teoremasi.
2. Matritsali differensial tenglamalarni integrallash.

Glossariy

$y^{(n)} = f(x)$ ***ko’rinishidagi tenglama yechimi -***

$$y(x) = \int_{x_0}^{x}\int_{x_0}^{x}\dots\int_{x_0}^{x} f(x)dxdx..dx + \frac{c_1}{(n-1)!}(x-x_0)^{n-1} + + \frac{c_2}{(n-2)!}(x-x_0)^{n-2} + ... + c_{n-1}(x-x_0) + c_n$$

integraldan iborat.

Lipshits sharti - Agar $f(x, y, y',..., y^{(n-1)})$ funksiya $D_{n+1} \subset R^{n+1}$ soxada aniqlangan bo‘lib, bu funksiya uchun shunday $L \geq 0$ son mavjud bo‘lsaki, ixtiyoriy

$(x, y_1, y_1', \ldots, y^{(n-1)}) \in D_{n+1}, (x, y_2, y_2', \ldots y_2^{(n-1)}) \in D_{n+1},$
nuqtalar uchun ushbu

$$\left| f(x, y_1, y_1', \ldots, y_1^{(n-1)}) - f(x, y_2, y_2', \ldots, y_2^{(n-1)}) \right| \le L \sum_{i=0}^{n-1} \left| y_1^{(i)} - y_2^{(i)} \right|, L \ge 0$$

tengsizlik bajarilsa, u xolda, $f(x, y, y', \ldots, y^{(n-1)})$ funksiya D_{n+1} soxada $y, y', \ldots, y^{(n-1)}$ lar bo‘yicha Lipshits shartini qanoatlantiradi deyiladi, L esa Lipshits o‘zgarmasi deyiladi.

Keyslar banki

Keys: Masala o’rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching: $y = x + y' - \ln y'$.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma’lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. p-tartibli differensial tenglama qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
2. $F(x_1 y^{(n)}) = o$ tenglamani umumiy yechimi qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
3. p- tartibli differensial tenglamada no'malum funksiya u va uning ketma-ket kelgan xosilalari $y^1, y^{11}, \ldots, y^{(x-1)}$ qatnashmasi, u xolda differensial tenglama qanday ko‘rinishda yoziladi?
4. Qanday munosabat berilgan $F(y_1 y^1, \ldots, y^{(n)}) = o$ tenglamaning oraliq integrali bo‘ladi.
5. Tartibi kamayadigan differensial tenglama deb nimaga aytiladi?

Amaliy mashg’ulot-11

Hosilaga nisbatan yechilmagan tenglamalar.

1. $F(x, y, y') = 0$ tenglama quyidagicha yechilishi mumkin.

a) Tenglama y' ga nisbatan yechib olish, ya'ni y' ni *x,u* orqali ifodalash. Bir necha $y' = f(x, y)$ ko‘rinishdagi tenglamalar paydo bo‘lishi mumkin. Ularni har birini yechish kerak.

b) Parametr kiritish usuli.

$F(x, y, y') = 0$ tenglamani *u* ga nisbatan yechish mumkin bo‘lsin, ya'ni tenglamani $y = f(x, y')$ ko‘rinishda yozish mumkin bo‘lsin.

U holda

$$P = \frac{dy}{dx} = y' \qquad (1)$$

deb $y = f(x, p)$ (2)

tenglikni olamiz. (2) tenglikni ikkala tomonidan to‘liq differensial olamiz va *dy* ni *pdx* bilan almashtirib quyidagini olamiz:

$$M(x, p)dx + N(x, p)dp = 0$$

Agar bu tenglama yechimini $x = \varphi(p)$ ko‘rinishda topish mumkin bo‘lsa $F(x, y, y') = 0$ tenglama yechimining parametrik ko‘rinishda topamiz:

$$x = \varphi(p), \ y = (\varphi(p), p)$$

$x = f(y, y')$ tenglama ham shu ko‘rinishda yechiladi.

Misol-1. $y = x + y' - \ln y'$ tenglama yechilsin. $p = y'$ parametrik kiritsak

$$y = x + p - \ln p \qquad (3)$$

tenglikni olamiz. (3) ning ikala tomonidan to‘liq differensial hisoblaymiz va $dy = pdx$ deymiz:

$$dy = dx + dp - \frac{dp}{p}, \quad pdx = dx + dp - \frac{dp}{p},$$

$$(p-1)dx = \frac{p-1}{p}dp.$$

a) $p \neq 1$ bo‘lsa, $dx = \frac{dp}{p} \Rightarrow x = \ln p + C$.

Buni (3) ga qo‘yib olamiz:

$$x = \ln p + c, \quad y = p + c \qquad (5)$$

r ni yo‘qotsak $p = e^{x-c}$,

$$y = e^{x-c} + c. \qquad (6)$$

b) $p = 1$ bo‘lsa (3)-tenglik asosida

$y = x + 1$ (7) ni olamiz.

Misol-2: Ushbu

$$y'^2 - y' \cdot x - y + \frac{x^2}{2} = 0$$

differensial tenglamani yeching.

Bu tenglamada $\Phi(x, y, y') = y'^2 - y \cdot x - y + \frac{x^2}{2}$ bo‘lib, u tenglama *u* ga nisbatan yechiladi:

$$y = y'^2 - y \cdot x + \frac{x^2}{2}.$$

Keyingi tenglamada $y' = p$ deb, uning har ikki tomonini differensiallaymiz:

$$y = p^2 - px + \frac{x^2}{2}$$

$$dy = d\left(p^2 - px + \frac{x^2}{2}\right) = 2pdp - pdx + xdx = (2p - x)dp - (p - x)dx.$$

Endi $dy = y' \cdot dx = p \cdot dx$ bo‘lishini e'tiborga olib topamiz:

$$pdx = (2p - x)dp - (p - x)dx \Rightarrow p = (2p - x)\frac{dp}{dx} - p + x \Rightarrow$$

$$\Rightarrow (2p - x) \cdot \frac{dp}{dx} = 2p - x \Rightarrow \frac{dp}{dx} = 1 \qquad (2p - x \neq 0)$$

Ravshanki, $\frac{dp}{dx} = 1$ tenglamaning yechimi $p = x + c$ bo‘ladi.

Yuqoridagi $y = p^2 - px + \frac{x^2}{2}$ hamda $p = x + c$ tengliklardan *r* ni yo‘qotib topamiz:

$$y = (x + c)^2 - (x + c)x + \frac{x^2}{2} = \frac{x^2}{2} + Cx + C^2.$$

Bu berilgan tenglamaning umumiy yechimi bo‘ladi.

2. $F(x, y, y') = 0$ tenglamaning $y = \varphi(x)$ yechimi maxsus deyiladi, agar uning har bir nuqtasidan boshqa yechim o‘tadi va uning urinmasi $y = \varphi(x)$ urinmasi bilan bir xil va bu

nuqtaning ixtiyoriy kichik atrofida u bilan ustma-ust tushmaydi.

Agar $F(x,y,y')$, F_y, $F_{y'}$ hosilalar uzluksiz bo‘lsa $F(x,y,y')=0$ (8) tenglamaning maxsus yechimi

$$F_{y'}=c \qquad \left(F_{y'}=\frac{\partial F}{\partial y}\right) \tag{9}$$

Tenglamani qanoatlantiradi. Shuning uchun maxsus yechimni topish uchun (8), (9) tenglamalardan y' ni yo‘qotish kerak:

$$F(x,y,y')=0, \qquad \frac{\partial F}{dy'}(x,y,y')=0$$

Hosil bo‘lgan $\varphi(x,y)=0$ tenglama egri chiziqning diskriminantasi deyiladi. Diskriminanta chiziqning har bir shoxi $F(x,y,y')=0$ tenglamani yechimi bo‘ladimi degan savolga javob berish kerak, ya'ni uni har bir nuqtasida boshqa yechimlar urinib o‘tadimi deb tekshirish kerak.

Misol-3: $y=x+y'-\ln y'$ (10)

tenglama maxsus yechimlari topilsin.

Bu tenglikni y' bo‘yicha differensiallaymiz:

$$0=1-\frac{1}{y'}.$$

(10) va (11) tenglamadan y' ni yo‘qotamiz.

(11) tenglamadan $y'=1$. Uni (10) tenglamaga qo‘ysak, diskriminanta chiziq tenglamasini olamiz:

$$y=x+1 \tag{12}$$

Tekshirib ko‘ramiz: bu chiziq maxsusmi? Buning uchun avvalo, u (10) tenglamaning yechimini tekshiramiz: $x+1=x+1$ (ayniyat). Demak, (12), (10) tenglamaning yechimi. Endi uning maxsuslikka tekshiramiz, ya'ni unga boshqa yechimlar har bir nuqtada urinib o‘tadimi degan savolni ravshanlashtiramiz. $y=y_1(x)$, $y=y_2(x)$ yechimlarning $x=x_0$ nuqtada urinish shartlarini topamiz:

$$y_1(x_0)=y_2(x_0), \ y'_1(x_0)=y'_2(x_0) \tag{13}$$

(6), (12) yechimlar uchun bu shartlar ushbu ko‘rinishlarni oladi:

$$e^{x_0-c}+c=x_0+1, \qquad e^{x_0-c}=1$$

Ikkinchi tenglikdan $c=x_0$ munosabatni topamiz. Uni birinchi tenglikka qo‘ysak $1+x_0=1+x_0$ munosabatni olamiz. Bu tenglik barcha x_0 lar uchun o‘rinli. Shuning uchun har bir x_0 da (12) yechim (6) oilaning har bir egri chizig‘i bilan urinadi, bu chiziq uchun $c=x_0$ o‘rinli.

Shunday qilib, har bir nuqtada (12) yechim birorta ham nuqtada ustma-ust tushmaydigan (6) yechim bilan urinadi va (12) yechim maxsus.

Agar yechimlar oilasi parametrik ko‘rinishda yozilgan bo‘lsa, urinish shartlari shu kabi tekshiriladi. Bunda $y'=p$ ekanligini nazarda tutish kerak.

3. Agar chiziqlar oilasi $\Phi(x,y,c)=0$ $F(x,y,y')=0$ ning yechimi bo‘lib, $y=\varphi(x)$ urinishdagi bog‘lamga ega bo‘lsa, u tenglamaning maxsus yechimi bo‘ladi. Agar $\phi(x,y,c)$ funksiya 1-hosilalarga ega bo‘lsa, bog‘lamni topish uchun S ni

$$\phi(x,y,c)=0, \qquad \frac{\partial\phi}{\partial c}(x,y,c)=0$$

Tenglamalardan yo‘qotish kerak va bu chiziq bog‘lam bo‘lmasligini tekshirish kerak ya'ni uni har bir nuqtada oila a'zolari urinib o‘tishini aniqlash kerak. Bu tekshirishni 2-punkt oxiridagi keltirilgan (13) shartlar asosida olib borish kerak.

1. $(y^1)^2 - \frac{2y}{x}y' + 1 = 0$ j: $(x^2c^2+1-2cy)(x^2+c^2-2cy)=0; \quad x^2-y^2=0$

2. $4(y^1)^2 - 9x = 0$ j: $(y+c)^2 = x^3$

3. $y(y^1)^2 - (xy+1)y + x = 0$ j: $\left(\frac{x^2}{2} - y + c\right)\left(x - \frac{y^2}{2} + c\right) = 0$

4. $y(y^1)^2 - 2xy^1 + y = 0$ j: $y^2 + c^2 = 2cx; \quad x^2 - y^2 = 0$

5. $(y')^2 + y^2 = 1; \quad y(0) = \frac{1}{2}$ j: $y = \frac{1}{2}\cos x \pm \frac{\sqrt{3}}{2}\sin x$

6. $x = \sin y' + \ln y'$ j: $\begin{cases} x = \sin p + \ln p \\ y = p\sin p + \cos p + p + c \end{cases}$

7. $y = (y^1)^2 e^{y'}$ j: $\begin{cases} x = e^p + pe^p + c \\ y = p^2e^p \end{cases}$

8. $y = (y^1)^2 + 2\ln y'$ j: $\begin{cases} x = 2p - \frac{2}{p} + c \\ y = p^2 + 2\ln p \end{cases}$

9. $4y = x^2 + (y^1)^2$ j: $4y = x^2 + p^2; \quad \ln|p - x| = C + \frac{x}{p-x}$

$e^x = \frac{y^2 + (y^1)^2}{2y'}$ j: $\ln\sqrt{p^2+y^2} + arctg\frac{p}{y} = c, \quad x = \ln\frac{y^2+p^2}{2p} \quad y = e^x$

TEST

Agar $M(x,y)dx + N(x,y)dy = 0$ tenglamada $M(x,y)$ va $N(x,y)$ m-tartibli bir jinsli funksiyalar bo‘lsa, u holda integrallovchi ko‘paytuvchi qanaqa ko‘rinishda bo‘ladi?	* $m(x,y) = [xM + yN]^{-1}$	$m(x,y) = xM + yN$	$m(x,y) = \frac{x+y}{M+N}$	$m(x,y) = [xN + yM]^{-1}$
Shunday egri chiziqlarni topingki, uning har bir nuqtasiga o‘tkazilgan urinma koordinata o‘qlari bilan birgalikda yuzasi $2a^2$ ga teng bo‘lgan uchburchak hosil qilsin.	* $xy = \pm a^2$	$y = \frac{1}{a^2}$	$xy = \pm 2a^2$	$y = a^4$
Differensial tenglamalar tuzish yo‘li bilan $y = cx^2$ chiziqlar oilasiga ortogonal chiziqlar oilasini toping.	* $2y^2 + x^2 = c$	$y = cx^{-2}$	$y = -cx^2$	$y^2 + 2x = c$
Quyidagi tenglamalardan qaysi biri bir jinsli tenglama emas?	* $(x^2 + y)dx - xdy = 0$	$xy' Cos\frac{y}{x} = yCos\frac{y}{x} - x$	$(2x^3 - xy^2)dx + \dots + (2y^3 - x^2y)dy = 0$	$y' = \frac{y^3}{2(xy^2 - x^3)}$

$y' + P(x)y = Q(x)$ tenglamani integrallovchi ko‘paytuvchi qanaqa ko‘rinishda bo‘ladi?	* $e^{\int p(x)dx}$	$e^{-\int p(x)dx}$	$\int p(x)dx$	$e^{\int p^2(x)dx}$
Agar chiziqli differensial tenglama Klero tenglamasi bo‘lsa, uning integral chiziqlari oilasi nimadan iborat bo‘ladi?	* To‘g‘ri chiziqlar dastasi	Giperbolalar	Aylanalar	Parabolalar
Berilgan tenglamaning tipini aniqlang: $y\sin x + y'\cos x = 1$	**Chiziqli*	*Bernulli*	*o‘zgaruvchilari ajraladigan*	*Rikkati*
$y' = \dfrac{3y - x^2}{x}$ tenglamani yechimini aniqlang.	* $y = cx^3 + x^2$	$y = cx + x^2$	$y = cxe^x$	$y = cx^2 + 2x^3$
$(2xy + 3x^2)dx + x^2dy = 0$ tenglamaning umumiy yechimini toping	* $x^2y + x^3 = c$	$x^2y + y^3 = c$	$x^3y - x = c$	$\dfrac{x}{y} + x^3 = c$
Qanday almashtirish yordamida $y' = y^2 - \dfrac{2}{x^2}$ tenglamani bir jinsli tenglamaga keltirish mumkin?	* $y = zx^{-1}$	$y = zx$	$z = y^2$	$z = \sqrt{y}$

MA'RUZA № 13
Mavzu: $n-$tartibli chiziqli tenglamalar.
Chiziqli bir jinsli teglamalar xossalari.

Reja
1. $n-$tartibli chiziqli tenglamalar.
2. $n-$tartibli chiziqli differensial operator.
3. Chiziqli bir jinsli teglama yechimlari xossalari.

Tayanch so’z va iboralar: *n-tartibli chizikli tenglama, n-tartibli chizikli dıfferensial operator, n-tartibli chizikli bir jinsli tenglama yechimlarining xossalari*

1. $n-$tartibli differensial tenglamalarning muhim xususiy holi $n-$tartibli chiziqli differensial tenglamalar bo‘lib, ular

$$y^{(n)} + p_1(x)y^{(n-1)} + \ldots + p_{n-1}(x)y' + p_n(x)y = q(x) \qquad (1)$$

ko‘rinishda yoziladi. Bu yerda $p_1(x),\ldots, p_{n-1}(x), p_n(x), q(x) -$funksiyalar biror I intervalda aniqlangan va uzluksiz bo‘lib, $q(x) -$funksiya (1) tenglamaning *o‘ng tomoni* yoki *ozod hadi*, $p_1(x),\ldots, p_{n-1}(x), p_n(x) -$ funksiyalar esa uning *koeffisiyentlari* deb yuritiladi.

Agar (1) tenglamada $q(x) -$funksiya I intervalda aynan 0 gat eng bo‘lmasa, u holda (1) tenglama *chiziqli bir jinsli bo‘lmagan tenglama* deyiladi. Agar $q(x) \equiv 0,\ x \in I$ bo‘lsa, mos differensial tenglama

$$y^{(n)} + p_1(x)y^{(n-1)} + \ldots + p_{n-1}(x)y' + p_n(x)y = 0 \qquad (2)$$

bo‘lib, *chiziqli bir jinsli tenglama* deyiladi.

Endi (1) differensial tenglama uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi bilan shig‘ullanamiz. (1) tenglamani yoqori hosilasiga nisbatan yechish mumkin:

$$y^{(n)} = q(x) - p_1(x)y^{(n-1)} - \ldots - p_{n-1}(x)y' - p_n(x)y. \tag{3}$$

Umumiy belgilashga ko‘ra [$y^{(n)} = f(x, y, y', \ldots, y^{(n-1)})$]

$$f(x, y, y', \ldots, y^{(n-1)}) = q(x) - p_1(x)y^{(n-1)} - \ldots - p_{n-1}(x)y' - p_n(x)y. \tag{4}$$

Bu funksiya $D_{n+1} = \{(x, y, y', \ldots y^{(n-1)}) : x \in I,\ -\infty < y^{(i)} < +\infty,\ i = 0,1,2,\ldots,n-1\}$ sohada aniqlangan. Agar $p_1(x), \ldots, p_{n-1}(x), p_n(x), q(x)$ – funksiyalar $[x_1, x_2] = I$ oraliqda uzluksiz bo‘lsa, u holda (4) funksiya tegishli D_{n+1} sohada $x, y, y', \ldots, y^{(n-1)}$ bo‘yicha Lipshits shartini qanoatlantiradi. Haqiqatdan ham, f funksiya $x, y, y', \ldots, y^{(n-1)}$ bo‘yicha $-\infty < y^{(i)} < +\infty$, $(i = 0,1,2,\ldots,n-1)$ intervalda uzluksiz va uzluksiz hosalalarga ega, chunki $\frac{\partial f}{\partial y^{(i)}} = -p_{n-1}(x)$ va $p_{n-i}(x)$ $[x_1, x_2]$ – da uzluksiz. Agar $\max\limits_{x \in [x_1, x_2]} \left| \frac{\partial f}{\partial y^{(i)}} \right| = L_i,\ L_i \geq 0,\ i = 0,1,2,\ldots,n-1$, $\max(L_0, L_1, \ldots, L_n) = L \geq 0$ dasak, f funksiya Lipshits shartini qanoatlantiradi. Bundan $x_0 \in [x_1, x_2]$ uchun (1) tenglama $y(x_0) = y_0$, $y^{(i)}(x_0) = y_0^{(i)}$, $i = \overline{1, n-1}$ shartni qanoatlantiruvchi yagona yechimga egaligi kelib chiqadi.

2. Endi (2) differensial tenglamani alohida o‘rganaylik. Noma’lum funksiya $y(x)$ ga nisbatan (2) tenglamaning chap tomonida ko‘rsatilgan amallar (differensiallash, $p_i(x)$ funksiyalarga ko‘paytirish va qo‘shish) qo‘llanish natijasida *n – tartibli chiziqli differensial operator* deb yuritiladi va $L[y]$ deb belgilanadi, ya’ni:

$$L[y] \equiv y^{(n)} + p_1(x)y^{(n-1)} + \ldots + p_{n-1}(x)y' + p_n(x)y \tag{5}$$

Bu operatitor yordamida (1) va (2) tenglamalar

$$L[y] = q(x) \tag{1'}$$

$$L[y] = 0 \tag{2'}$$

ko‘rinishda yoziladi.

Kiritilgan $L[y]$ operatorning muhim ikki xossasi bor:

1^0. $L[y_1 + y_2] = L[y_1] + L[y_2],\ y_1 \in C^n,\ y_2 \in C^n$;

2^0. $L[Cy] = CL[y],\ y \in C^n,\ C = const$;

Bu xossalar aslida haqiqiy o‘zgaruvchining kompleks funksiyalari uchun ham o‘rinli, C ham kompleks bo‘lishi mumkin. Birinchi xossani isbot etish uchun (5) ifodadagi y va uning hosilalarini qo‘yamiz:

$$L[y_1 + y_2] = (y_1 + y_2)^{(n)} + p_1(x)(y_1 + y_2)^{(n-1)} + \ldots + p_{n-1}(x)(y_1 + y_2)' + p_n(x)(y_1 + y_2) =$$
$$= (y_1^{(n)} + p_1(x)y_1^{(n-1)} + \ldots + p_{n-1}(x)y_1' + p_n(x)y_1) + (y_2^{(n)} + p_1(x)y_2^{(n-1)} + \ldots + p_{n-1}(x)y_2' + p_n(x)y_2) =$$
$$= L[y_1] + L[y_2].$$

Bu xossadan ushbu

$$L[\sum_{i=1}^{k} y_i] = \sum_{i=1}^{k} L[y_i],\ y_i \in C^n,\ i = \overline{1, k}$$

formulaning to‘g‘riligi kelib chiqadi.

Ikkinchi xossa ham birinchi kabi isbot etiladi. Yuqoridagi ikki xossadan ushbu natija kelib chiqadi:

$$L[\sum_{i=1}^{k} C_i y_i] = \sum_{i=1}^{k} C_i L[y_i], \tag{6}$$

bu yerda $C_1, C_2, \ldots, C_k$ – ixtiyoriy o‘zgarmas sonlar. $L[y]$ operatorning yuqorida keltirilgan xossalariga asoslanib muhim teoremalarni isbotlash mumkin.

1-teorema. Agar $y = y_1(x),\ y = y_2(x)$ funksiyalar I intervalda (2’) tenglamaning yechimlari bo‘lsa, u holda $y = y_1(x) + y_2(x)$ funksiya ham I intervalda (2’) ning yechimi bo‘ladi.

Isbot. Teorema shartiga ko‘ra $L[y_1] = 0,\ L[y_2] = 0$. Bundan 1^0-chi xossaga ko‘ra $L[y_1 + y_2] = L[y_1] + L[y_2] = 0$. Teorema isbot bo‘ldi.

2-teorema. Agar $y_1(x)$ funksiya I intervalda (2’) tenglamaning yechimi bo‘lsa, u holda $C_1y_1(x)$ (C – ixtiyoriy o‘zgarmas) funksiya ham I intervalda (2’) ning yechimi bo‘ladi.

Isbot. Shartiga ko‘ra $L[y_1] = 0,\ L[y_2] = 0$. 2^0-chi xossaga ko‘ra $L[Cy_1] = CL[y_1] = 0$ kelib chiqadi. Teorema isbot bo‘ldi.

1-natija. Agar $y_1(x), y_2(x), ..., y_k(x)$ funksiyalar I intervalda (2’) tenglamaning yechimi bo‘lsa, u holda shu intervalda $\sum_{i=1}^{k} C_i y_i$ funksiya ham (2’) ning yechimi bo‘ladi.

Isboti 1 va 2-teoremalardan kelib chiqadi.

3-teorema. Agar koeffitsiyentlari $p_i(x),\ x \in I\ (i = 1,2,...,n)$ haqiqiy bo‘lgan (2’) tenglama $y(x) = u(x) + iv(x)$ kompleks yechimga ega bo‘lsa, u holda $u(x)$ va $v(x),\ x \in I$ har biri (2’) tenglamaning yechimi bo‘ladi.

Isbot. $L[u(x) + iv(x)] \equiv 0$ dan $L[u(x)] + iL[v(x)] \equiv 0$ ga ega bo‘lamiz. Bu ayniyat bajarilishi uchun $L[u(x)] \equiv 0,\ L[v(x)] \equiv 0$ bo‘lishi zarur va yetarli. Teorema isbot bo‘ldi.

Agar 1-natijada $k = n$ bo‘lsa, u holda n ta ixtiyoriy o‘zgarmasni o‘z ichiga olgan

$$y = C_1y_1(x) + C_2y_2(x) + ... + C_ny_n(x) \tag{7}$$

funksiya ham (2’) tenglamaning yechimi bo‘ladi. (2’) tenglama n – tartibli bo‘lganidan uning umumiy yechimi formulasi n – ta ixtiyoriy o‘zgarmasni o‘z ichiga olishi lozimligini biz bilamiz. Unday bo‘lsa, (7) formula bilan berilgan funksiya (2’) tenglama uchun umumiy yechim bo‘la oladimi. Bu savolga javob $y_1(x), y_2(x), ..., y_n(x)$ yechimlar orasidagi munosabatga bo‘g‘liq. Buni keyingi mavzuda ko‘ramiz.

MA'RUZA № 14
Mavzu: Funksiyalarning chiziqli bog‘liqligi. Fundamental yechimlar. Vronskiy determinanti. Xossalari.
Reja:

1. Chiziqli bog‘liq va chiziqli erkli funksiyalar.
2. Funksiyalarning chiziqli bog‘liqligiga misollar.
3. Vronskiy determinanti.

Tayanch so’z va iboralar: *n-tartibli chizikli tenglama, n-tartibli chizikli differensial operator, n-tartibli chizikli bir jinsli tenglama yechimlarining xossalari, chiziqli boglik va chizikli erkli funksiyalar, Vronskiy determinanti va xossalari.*

Biror I intervalda aniqlangan $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_k(x)$ funksiyalar berilgan bo‘lsin.

1- **Ta’rif**. Agar bir vaqtda nolga teng bo‘lmagan shunday $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_k$ o‘zgarmas sonlar mavjud bo‘lsaki, I intervalda ushbu

$$\alpha_1\varphi_1(x) + \alpha_2\varphi_2(x) + ... + \alpha_k\varphi_k(x) \equiv 0 \tag{1}$$

ayniyat o‘rinli bo‘lsa, u holda $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_k(x)$ funksiyalar I intervalda *chiziqli bog‘liq* deyiladi.

Agar yuqorida aytilgan $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_k$ sonlar mavjud bo‘lmasa, ya'ni (1) ayniyat o‘zgarmaslarning faqat nolga teng qiymatlaridagina, ya’ni $\alpha_1 = \alpha_2 = ... = \alpha_k = 0$ o‘rinli bo‘lsa, u holda $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_k(x)$ funksiyalar I intervalda *chiziqli erkli* deyiladi.

Natija. *Agar I intervalda $\varphi_i(x) \equiv 0,\ 1 \le i \le k$ bo'lsa, u holda $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_k(x)$ funksiyalar I intervalda chiziqli bog'liq bo'ladi.*

Haqiqatan, $C_i \neq 0,\ C_1 = C_2 = ... = C_{i-1} = C_{i+1} = ... = C_k = 0$ deb tanlasak, $\sum_{i=1}^{k} C_j^2 \neq 0$ va $C_i\varphi_i(x) \equiv 0$ bo'ladi.

Agar $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3, ..., \lambda_m$ ba'zi kompleks sonlar, $f_1(x), f_2(x), ..., f_k(x)$ lar x ga nisbatan ko'phadlar bo'lsa, ushbu

$$F(x) = f_1(x)e^{\lambda_1 x} + f_2(x)e^{\lambda_2 x} + ... + f_m(x)e^{\lambda_m x}$$

ko'rinishda yoziladigan har bir $F(x)$ funksiya *kvaziko'phad* deyiladi.

1-lemma. *Ushbu $F(x) = f_1(x)e^{\lambda_1 x} + f_2(x)e^{\lambda_2 x} + ... + f_m(x)e^{\lambda_m x}$ kvaziko'phad berilgan va $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3, ..., \lambda_m$ lar o'zaro turli sonlar bo'lsin. Agar shu kvaziko'phad biror I intervalda aynan nolga teng bo'lsa, u holda hamma $f_1(x), f_2(x), ..., f_m(x)$ ko'phadlar nolga teng bo'ladi.*

Isbot. Isbotni m soni bo'yicha induksiya bilan isbotlaymiz. m sonni kvaziko'phadning tartibi deb ataymiz. $m = 1$ bo'lganda 1-lemma to'g'ri, chunki bu holda $F(x) = f_1(x)e^{\lambda_1 x}$ va $f_1(x)e^{\lambda_1 x} \equiv 0,\ x \in I$ ayniyatdan $f_1(x) \equiv 0$ kelib chiqadi. Endi $m-1$ dan m $(m \ge 2)$ ga induktiv o'tishni bajaramiz. Agar $F(x)$ ko'phad I intervalda aynan nolga teng bo'lsa, u holda bu natija ushbu

$$G(x) = p^{l+1}(F(x)e^{-\lambda_m x})$$

kvaziko'phad uchun ham o'rinli (bu yerda $p-$differensiallash operatori, l esa $f_m(x)$ ko'phadning darajasi). Bevosita hisoblash yordamida

$$G(x) = g_1(x)e^{(\lambda_1-\lambda_m)} + g_2(x)e^{(\lambda_2-\lambda_m)} + ... + g_{m-1}(x)e^{(\lambda_{m-1}-\lambda_m)}$$

ni ko'rsatish mumkin, bunda

$$g_i(x) = (p + \lambda_1 - \lambda_m)^{l+1} f_i(x),\ i = 1,2,...,m-1$$

$G(x)$ kvaziko'phadning tartibi $m-1$ ga teng. Shu $G(x)$ kvaziko'phad I intervalda aynan nolga teng bo'lgani uchun induksiya faraziga ko'ra barcha $g_1(x), g_2(x), ..., g_{m-1}(x)$ ko'phadlar I da aynan nolga teng. Faraz etaylik, $f_1(x), f_2(x), ..., f_{m-1}(x)$ ko'phadlardan birontasi masalan, $f_1(x)$ nolga teng bo'lmasin, ya'ni $f_1(x) \neq 0, x \in I$. Shu $f_1(x)$ ko'phadning darajasi k bo'lsin, ya'ni $f_1(x) = a_0x^k + a_1x^{k-1} + ... + a_k$, bunda $a_0 \neq 0$. Bevosita tekshirish mumkinki:

$$g_1(x) = (p + \lambda_1 - \lambda_m)^{l+1} f_i(x) = (\lambda_1 - \lambda_m)^{l+1} a_0x^k + ...$$

Endi $g_1(x) \equiv 0,\ x \in I$ ayniyatga ko'ra $(\lambda_1 - \lambda_m)^{l+1} a_0 = 0$ tenglikka ega bo'lamiz. Ammo $\lambda_1 \neq \lambda_m$ ga ko'ra bundan $a_0 = 0$ kelib chiqadi. Bu ziddiyat $f_1(x), f_2(x), ..., f_{m-1}(x)$ ko'phadlar I da aynan nolga tengligini isbotlaydi. Demak, $F(x) = f_m(x)e^{\lambda_m x}$ ga egamiz. Bundan $F(x) \equiv 0$ bo'lishi uchun $f_m(x)$ ko'phadning barcha koeffitsientlari nolga tengligi kelib chiqadi. Shunday qilib, $F(x) \equiv 0,\ x \in I$ ayniyat o'rinli bo'lsa, $f_m(x) \equiv 0,\ x \in I$ ayniyatlar ham o'rinli bo'lish isbot etildi. 1-lemma isbotlandi.

Misollar. 1. Ushbu $1,\ x,\ x^2,\ ...,\ x^k$ funksiyalar $(-\infty, +\infty)$ intervalda aniqlangan bo'lib, ular shu intervalda chiziqli erkli. Bu tasdiq ixtiyoriy, chekli intervalda ham o'rinli.

Agar teskarisini faraz etsak, bir vaqtda nolga teng bo'lmagan $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_k$ lar (ya'ni $\sum_{i=1}^{k} \alpha_j^2 \neq 0$) uchun ko'rilayotigan chekli yoki cheksiz intervaldan olingan x ning barcha qiymatlarida

$$\alpha_0 + \alpha_1x + \alpha_2x^2 + ... + \alpha_kx^k \equiv 0$$

ayniyat o‘rinli bo‘lishi kerak. Ammo algebraning asosiy teoremasiga ko‘ra bu tenglik x dan ko‘p bo‘lsa $k-$ta qiymatidagina o‘rinli. Bu ziddiyat yuqoridagi fikrni isbotlaydi .

2. Ushbu

$$e^{k_1x},\ e^{k_2x},\ ...,\ e^{k_sx},\ k_i \neq k_j, i \neq j$$

funksiyalar istalgan I intervalda chiziqli erkli. Buni isbot etish uchun shu funksiyalar I intervalda chiziqli bog‘liq bo‘lsin deylik, ya'ni bir vaqtda nolga teng bo‘lmagan shunday $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_s$ sonlar mavjudki, I intervalda

$$F(x) = \alpha_1 e^{k_1x} + \alpha_2 e^{k_2x} + ... + \alpha_s e^{k_sx} \equiv 0$$

ayniyat o‘rinli. Bu ayniyatning chap tomonida turgan funksiya kvaziko‘phad bo‘lib, unda $f_1(x) = \alpha_1, ..., f_s(x) = \alpha_s$. 1-lemmaga ko‘ra $F(x) \equiv 0$ ayniyat bajarilgan bo‘lsa, undan $\alpha_1 = \alpha_2 = ... = \alpha_s = 0$ kelib chiqadi. Bu esa $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_s$ larning tanplanishiga zid. Demak, berilgan funksiyalar I intervaloda chiziqli erkli

3. Ixtiyoriy I intervalda ushbu $1, \cos x, \cos^2\frac{x}{2}$ funksiyalar chiziqli bog‘liqdir. Haqiqatan,

$$\alpha_1 \cdot 1 + \alpha_2 \cdot \cos x + \alpha_3 \cdot \cos^2\frac{x}{2} \equiv 0$$

ifodada $\alpha_1 = 1,\ \alpha_2 = 1,\ \alpha_3 = -2$ deyilsa, trigonometriyadagi $1 + \cos x \equiv 2\cos^2\frac{x}{2}$ (bunda $x-$ixtiyoriy) ayniyat hosil bo‘ladi.

Yuqorida funksiyalarning chiziqli bog‘liqligi va erkinligi tekshirildi. Tekshirish ta’rif bo‘yicha olib borildi. Agar $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_k(x)$ funksiyalar I intervalda aniqlangan va uzluksiz bo‘lishidan tashqari yana ba'zi shartlarni qanoatlantirsa, tekshirish soddalashadi. Shu maqsadda $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_k(x)$ funksiyalar I intervalda $(k-1)$ tartibgacha hosilalarga ega bo‘lsin deylik, ya'ni $\varphi_i(x) \in C^{k-1}(I),\ i = \overline{1,k}$. Ushbu

$$W(x) = W[\varphi_1, \varphi_2, ..., \varphi_k] = \begin{vmatrix} \varphi_1 & \varphi_2 & ... & \varphi_k \\ \varphi_1' & \varphi_2' & ... & \varphi_k' \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ \varphi_1^{(k-1)} & \varphi_2^{(k-1)} & ... & \varphi_k^{(k-1)} \end{vmatrix} \qquad (2)$$

determinant *Vronskiy determinanti* yoki *Vronskian* deyiladi.

1-**Teorema**. *Agar* $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_k(x)$ *funksiyalar* I *intervalda chiziqli bog‘liq bo‘lib,* $(k-1)$ *taribgacha uzluksiz hosilalarga ega bo‘lsa, u holda* I *intervalda bu funksiyalardan tuzilgan Vronskiy determinanti aynan nolga teng bo‘ladi.*

Isbot. Teoremaning shartiga ko‘ra $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_k$, $\sum_{i=1}^{k}\alpha_j^2 \neq 0$ lar uchun I intervalda

$$\alpha_1\varphi_1(x) + \alpha_2\varphi_2(x) + ... + \alpha_k\varphi_k(x) \equiv 0$$

ayniyat o‘rinli. Uni $(k-1)$ marta differensiallab,

$$\alpha_1\varphi_1'(x) + \alpha_2\varphi_2'(x) + ... + \alpha_k\varphi_k'(x) \equiv 0$$

$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots$$

$$\alpha_1\varphi_1^{(k-1)}(x) + \alpha_2\varphi_2^{(k-1)}(x) + ... + \alpha_k\varphi_k^{(k-1)}(x) \equiv 0$$

ayniyat hosil qilamiz. Bu ayniyatlarni $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_k$ $-$larga nisbatan tenglamalarning bir jinsli sistemasi deb qarash mumkin. Ammo $\sum_{i=1}^{k}\alpha_j^2 \neq 0$ bo‘lgani uchun bu sistema trivialmas (trivial bo‘lmagan (noldan farqli)) yechimga ega. Algebradagi ma'lum teoremadan sistemaning determinanti (ya'ni Vronskiy determinanti) aynan nolga teng bo‘lishi kelib chiqadi.

Isbot etilgan teorema funksiyalarning chiziqli bog‘liq bo‘lishi uchun faqat zaruriy shartni beradi. Boshqacha aytganda agar biror I intervalda $(k-1)$ marta uzluksiz differensiallanuvchi $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_k(x)$ funksiyalardan tuzilgan Vronskiy determinanti aynan nolga teng bo‘lsa, bundan u funksiyalarning chiziqli bog‘liqligi, umuman aytganda kelib chiqmaydi. Masalan, quyidagi ikki funksiyani olaylik.

$$\varphi_1(x) = \begin{cases} -(x-2)^2, & 0 \le x \le 2 \\ 0, & 2 \le x \le 4 \end{cases}, \quad \varphi_2(x) = \begin{cases} 0, & 0 \le x \le 2 \\ (x-2)^2, & 2 \le x \le 4 \end{cases}.$$

Bu funksiyalar $0 \le x \le 4$ oraliqda $W[\varphi_1, \varphi_2] \equiv 0$. Ammo $\varphi_1(x)$, $\varphi_2(x)$ funksiyalar shu oraliqda chiziqli erkli. Haqiqatan ham, $0 \le x \le 2$ da

$$W = \begin{vmatrix} -(x-2)^2 & 0 \\ -2(x-2) & 0 \end{vmatrix} \equiv 0,$$

$2 \le x \le 4$ da

$$W = \begin{vmatrix} 0 & (x-2)^2 \\ 0 & 2(x-2) \end{vmatrix} \equiv 0.$$

Bulardan $0 \le x \le 4$ da $W(x) \equiv 0$. Ammo, $0 \le x \le 2$ da $\alpha_1\varphi_1(x) + \alpha_2\varphi_2(x) \equiv 0$ ayniyatdan $\alpha_1 = 0$, $2 \le x \le 4$ da shu ayniyatdan $\alpha_2 = 0$ kelib chiqadi. U holda $\varphi_1(x)$, $\varphi_2(x)$ funksiyalar shu oraliqda chiziqli erkli.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние дифферциальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Maxsus yechimlar va ularning mavjudligi.
2. Avtonom sistemalarning xolatlar tekisligi.

Glossariy

Chiziqli bog’liq funksiyalar - Agar bir vaqtda nolga teng bo‘lmagan shunday $\alpha_1, \alpha_2, \ldots \alpha_k$ o‘zgarmas sonlar mavjud bo‘lsaki, I intervalda ushbu

$$\alpha_1\varphi_1(x)Q\alpha_2\varphi_2(x)Q\ldots Q\ \alpha_k\varphi_k(x) \equiv 0 \qquad (1)$$

ayniyat o‘rinli bo‘lsa, u xolda $\varphi_1(x)$, $\varphi_2(x), \ldots$ $\varphi_k(x)$, funksiyalar I intervalda chiziqli bog‘liq deyiladi.

Chiziqli erkli funksiyalar - Agar yuqorida aytilgan $\alpha_1, \alpha_2, \ldots \alpha_k$ sonlar mavjud bo‘lmasa, ya'ni (1) ayniyat o‘zgarmaslarning faqat nolga teng qiymatlaridagina o‘rinli bo‘lsa, u xolda $\varphi_1(x)$, $\varphi_2(x), \ldots$ $\varphi_k(x)$, funksiyalar I intervalda chiziqli erkli deyiladi.

Vronskiy determinanti - Ushbu

$$W(x) = W[\varphi_1, \varphi_2, .. \varphi_k] = \begin{vmatrix} \varphi_1, \varphi_2, .. \varphi_k \\ \varphi_1^1, \varphi_2^2, .. \varphi_k^1 \\ ------- \\ \varphi_1^{(k-1)}, \varphi_2^{(k-1)} .. \varphi_k^{(k-1)} \end{vmatrix}$$

determinant Vronskiy determinanti yoki Vronskian deyiladi.

Keyslar banki

Keys: Masala o’rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching: $y(y^1)^2 - 2xy^1 + y = 0$.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma’lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. $\mathfrak{I}$ intervalda chiziqli bog‘liq funksiyalar deb nimaga aytiladi?
2. $\mathfrak{I}$ intervalda chiziqli erknli funksiyalar deb nimaga aytiladi?
3. Kvazi ko‘pxadini ta'riflang?
4. Kanday ko‘rinishdagi determenant Vranskiy deteminanti yoki Vronslan detsiladi?
5. Tenglamalarning bir jinsli sistemasi deb qanday ko‘rinishdagi sistemaga aytiladi?

Amaliy mashg’ulot-12

1. $y = (y^1)^2 + 2\ln y'$ j: $\begin{cases} x = 2p - \dfrac{2}{p} + c \\ y = p^2 + 2\ln p \end{cases}$

2. $4y = x^2 + (y^1)^2$ j: $4y = x^2 + p^2; \quad \ln|p - x| = C + \dfrac{x}{p-x}$

3. $e^x = \dfrac{y^2 + (y^1)^2}{2y'}$ j: $\ln\sqrt{p^2 + y^2} + arctg\dfrac{p}{y} = c, \quad x = \ln\dfrac{y^2 + p^2}{2p} \quad y = e^x$

4. $y(y^1)^2 + y^1(x - y) - x = 0$ j: $y = x + c$ va $x^2 + y^2 = c^2$

5. $x(y^1)^2 + 2xy^1 - y = 0$ j: $x\left(\sqrt{1 + \dfrac{y}{x}} \pm 1\right)^2 = c$ yoki $(y - c)^2 = 4cx$

6. $y = 1 + (y^1)^2$ j: $y = 1 + \dfrac{(x-c)^2}{4}; \quad y = 1$

7. $x = 2y^1 - \dfrac{1}{(y^1)^2}$ j: $x = 2p - \dfrac{1}{p^2}; \quad y = p^2 - \dfrac{2}{p} + c$

TEST

Agar chiziqli differensial tenglama Klero tenglamasi bo‘lsa, uning integral chiziqlari oilasi nimadan iborat bo‘ladi?	* To‘g‘ri chiziqlar dastasi	Giperbolalar	Aylanalar	Parabolalar
Berilgan tenglamaning tipini aniqlang: $y\sin x + y'\cos x = 1$	**Chiziqli*	*Bernulli*	*o‘zgaruvchilari ajraladigan*	*Rikkati*
$y' = \dfrac{3y - x^2}{x}$ tenglamani yechimini aniqlang.	* $y = cx^3 + x^2$	$y = cx + x^2$	$y = cxe^x$	$y = cx^2 + 2x^3$
$\left(2xy + 3x^2\right)dx + x^2dy = 0$ tenglamaning umumiy	* $x^2y + x^3 = c$	$x^2y + y^3 = c$	$x^3y - x = c$	$\dfrac{x}{y} + x^3 = c$

yechimini toping				
Qanday almashtirish yordamida $y' = y^2 - \frac{2}{x^2}$ tenglamani bir jinsli tenglamaga keltirish mumkin?	* $y = zx^{-1}$	$y = zx$	$z = y^2$	$z = \sqrt{y}$
Quyidagi tenglama qaysi tipga tegishli $\left(x\cos y - y^2\right)dy + \left(\sin y + x\right)dx = 0$	* to‘la differensial	Bernulli	x ga nisbatan chiziqli	hosilaga nisbatan yechilmagan
Boshlang‘ich shartli masala nechta yechimga ega $y' = xy - y^3,\ y(0) = 0$	*1	2	yechimga ega emas	3
Tenglamaning tipini aniqlang $xy' = y - xe^{\frac{y}{x}}$	*Bir jinsli	Bernulli	Chiziqli	to‘la differensial
Ushbu $y' = \frac{y}{3x - y^2}$ tenglamaning yechimini toping.	* $x = cy^3 + y^2$	$y = 3x^3 + cx^2$	$y = cx^3 + x^2$	$y = cx + x^2$
Ushbu $y = cx^2$ chiziqlar sinfning differensial tenglamasini toping	* $xy' = 2y$	$y' = y^{\frac{2}{x}}$	$y'x = 3y$	$y'x^2 = y^2$

MA'RUZA № 15

Mavzu: Funksiyalarning chiziqli bog‘liqligi. Vronskiy determinanti. Xossalari. Fundamental yechimlar. (davomi)

Reja

1.Funksiyalar chiziqli bog‘liqligini Vronskiy determinanti yordamida tekshirish.
2. $n-$tartibli chiziqli bir jinsli differensial tenglamaning umumiy yechimi haqida teorema.
3. Fundamental yechimlar sistemasi.

Tayanch so’z va iboralar: *fundamental yechimlar sistemasi, funksiyalar chiziqli bog‘liqligini Vronskiy determinanti yordamida tekshirish, n-tartibli chiziqli bir jinsli differensial tenglamaning umumiy yechimi haqidagi teorema.*

2- **TEOREMA**. Agar $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_n(x)$ funksiyalar

$$y^{(n)} + p_1(x)y^{(n-1)} + ... + p_n(x)y = 0 \qquad (1)$$

yoki

$$L[y] = 0 \qquad (1')$$

tenglamaning I intervalda aniqlangan va tegishli boshlang‘ich shartni qanoatlantiradigan yechimlari bo‘lib, ulardan tuzilgan Vronskiy determinanti biror $x = x_0, x_0 \in I$ nuqtada nolga teng bo‘lsa, u holda I intervalda $W[\varphi_1, \varphi_2, ..., \varphi_n] \equiv 0$ va $\varphi_1(x), \varphi_2(x), ..., \varphi_n(x)$ funksiyalar chiziqli bog‘liq bo‘ladi.

Oldingi mavzuda isbot etilgan 1-teorema chiziqli bog‘liqlikning zaruriy shartini, bu 2-teorema yetarli shartni beradi.

Isbot. Ushbu tenglamalarni ko‘ramiz:

$$\begin{cases}\alpha_1\varphi_1(x_0)+\alpha_2\varphi_2(x_0)+...+\alpha_n\varphi_n(x_0)=0\\ \alpha_1\varphi_1'(x_0)+\alpha_2\varphi_2'(x_0)+...+\alpha_n\varphi_n'(x_0)=0\\ \dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\dots\\ \alpha_1\varphi_1^{(n-1)}(x_0)+\alpha_2\varphi_2^{(n-1)}(x_0)+...+\alpha_n\varphi_n^{(n-1)}(x_0)=0\end{cases} \tag{2}$$

Bu sistemada $\alpha_1,\alpha_2,...,\alpha_n$ larni noma'lum deb qaraymiz. (2) sistemaning determinanti $W[\varphi_1(x_0),\varphi_2(x_0),...,\varphi_n(x_0)]=W(x_0)=0$ bo‘lgani uchun shu sistemaning nolga teng bo‘lmagan (trivialmas) yechimlari ham bor. Ulardan birortasi $\alpha_1^0,\alpha_2^0,...,\alpha_n^0$ bo‘lsin. Endi ushbu

$$\varphi(x)=\alpha_1\varphi_1(x)+\alpha_2\varphi_2(x)+...+\alpha_n\varphi_n(x) \tag{3}$$

funksiyani ko‘raylik. Bu funksiya 13-ma'ruzadagi natijaga ko‘ra I intervalda aniqlangan bo‘lib, (1’) tenglamaning yechimidan iborat. $\varphi(x)$ funksiya uchun boshlang‘ich shartlar quyidagicha yoziladi:

$$\begin{cases}\varphi(x_0)=\sum_{i=1}^{n}\alpha_i^0\varphi_i(x_0),\\ \varphi^{(j)}(x_0)=\sum_{i=1}^{n}\alpha_i^0\varphi_i^{(j)}(x_0),\quad j=1,2,...,n-1.\end{cases} \tag{4}$$

a ning qanday qiymatlarida $y'' + ay = f(x)$ $y(0) = 0,\ y(1) = 0$ chegaraviy masalaning Grin funksiyasi mavjud bo‘ladi?	$*\ a \neq k^2 \pi^2$	$a = k\pi$	$a = k^2 \pi^2$	$a \neq k\pi$
$y'' + 4y' + 3y = 0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	$*\ y = c_1 e^{-x} + c_2 e^{-3x}$	$y = c_1 e^{-x} + c_2 e^{3x}$	$y = c_1 e^{x} + c_2 e^{-3x}$	$y = c_1 e^{x} + c_2 e^{3x}$

MA'RUZA № 19
Mavzu: Chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalar
Mavzu: Bir jinsli bo'lmagan o'zgarmas koeffitsiyentli chiziqli differensidl tenglamalar va ularning xususiy yechimlarini topish usullari. (O'ng tomoni maxsus ko'rinishda bo'lgan tenglamalar).
Reja
1. Chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamaning umumiy yechimi haqida teorema.
2. Xususiy yechimni topish haqidagi teorema.
3. Chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglama xususiy yechimlarini topishning aniqmas koeffitsientlar usuli.
4. Xarakteristik tenglama ildizi karrali bo'lgan hol.
5. Xarakteristik tenglama ildizi kompleks bo'lgan hol.
6. Misollar.

Tayanch so'z va iboralar: *n-tartibli chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamani umumiy yechimi haqidagi teorema, (isboti bilan), chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalar, n-tartibli chiziqli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglama, n-tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamani yechishning aniqmas koeffitsientlari usuli.*

Bir jinsli bo'lmagan chiziqli differensial tenglama deb
$$y^{(n)}+p_1(x)y^{(n-1)}+p_2(x)y^{(n-2)}+\ldots+p_{n-1}(x)y'+p_n(x)y=q(x) \tag{1}$$
ko'rinishdagi tenglamaga aytiladi.

Chiziqli differensial operator ifodasidan foydalanib, (1) tenglamani
$$L[y]=q(x) \tag{2}$$
ko'rinishda yozish mumkin. Bu (2) tenglamaga mos bir jinsli tenglama
$$L[y]=0 \tag{3}$$
bo'ladi.

1-TEOREMA ***(Chiziqli bir jinsli bo'lmagan tenglamaning umumiy yechimi haqidagi teorema).*** *Chiziqli bir jinsli bo'lmagan tenglamaning umumiy yechimi bu tenglamaning xususiy yechimi va unga mos bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi yig'indisidan iborat.*

Isbot. (2) tenglamaning birorta xususiy yechimini $\bar{y}$ – orqali, bu tenglamaga mos bir jinsli (3) tenglamaning umumiy yechimini Y – orqali belgilaymiz. Bunga ko'ra
$$L[\bar{y}]=q(x),\quad L[Y]=0.$$
Endi quyidagicha funksiya tuzamiz:
$$y=\bar{y}+Y. \tag{4}$$
Bu funksiyani (2) tenglamaga qo'yib, L operatorning additivlik xossasidan quyidagiga ega bo'lamiz:
$$L[y]=L[\bar{y}+Y]=L[\bar{y}]+L[Y]=q(x)+0=q(x).$$
Shunday qilib, $y=\bar{y}+Y$ funksiya berilgan (2) tenglamani qanoatlantiradi, ya'ni uni yechimi bo'ladi. Endi (4) ifoda umumiy yechim ekanini isbotlash qoldi.

Agar $y_1,y_2,\ldots,y_n$ funksiya bir jinsli (3) tenglamaning fundamental yechimlar sistemasini tashkil qilsa, u holda uning umumiy yechimi bu funksiyalarning chiziqli kombinatsiyasidan iborat bo'ladi:
$$Y=C_1y_1+C_2y_2+\ldots+C_ny_n,$$
bu yerda $C_1,C_2,\ldots,C_n$ –ixtiyoriy o'zgarmaslar .

U holda (4) ifodani quyidagicha yozish mumkin:
$$y=\bar{y}+C_1y_1+C_2y_2+\ldots+C_ny_n. \tag{5}$$
(5) ifoda (2) tenglamaning umumiy yechimi ekanini ko'rsatish uchun ushbu
$$y(x_0)=y_0, y'(x_0)=y'_0,\ldots,y^{(n-1)}(x_0)=y_0^{(n-1)} \tag{6}$$

boshlang‘ich shartlar qanday bo‘lishdan qat'iy nazar $C_1, C_2, ..., C_n$ o‘zgarmaslarni yagona ravishda topish mumkin ekanligini ko‘rsatish kerak.

(5) funksiya (6) boshlang‘ich shartlarni qanoatlantirsin

$$\begin{cases} y(x_0) = \bar{y}(x_0) + C_1 y_1(x_0) + C_2 y_2(x_0) + ... + C_n y_n(x_0) = y_0 \\ y'(x_0) = \bar{y}'(x_0) + C_1 y_1'(x_0) + C_2 y_2'(x_0) + ... + C_n y_n'(x_0) = y_0' \\ .... \\ y^{(n-1)}(x_0) = \bar{y}^{(n-1)}(x_0) + C_1 y_1^{(n-1)}(x_0) + C_2 y_2^{(n-1)}(x_0) + ... + C_n y_n^{(n-1)}(x_0) = y_0^{(n-1)} \end{cases}$$

yoki

$$\begin{cases} C_1 y_1(x_0) + C_2 y_2(x_0) + ... + C_n y_n(x_0) = y_0 - \bar{y}(x_0) \\ C_1 y_1'(x_0) + C_2 y_2'(x_0) + ... + C_n y_n'(x_0) = y' - \bar{y}'(x_0) \\ .... \\ C_1 y_1^{(n-1)}(x_0) + C_2 y_2^{(n-1)}(x_0) + ... + C_n y_n^{(n-1)}(x_0) = y_0^{(n-1)} - \bar{y}^{(n-1)}(x_0) \end{cases} \tag{7}$$

Natijasida $C_1, C_2, ..., C_n$ noma'lumlarga nisbatan $n-$ta algebraik tenglamalar sistemasi (7)ni hosil qilamiz. Bu sistemaning asosiy determinanti $x = x_0$ nuqtada $y_1, y_2, ..., y_n$ funksiyalarning Vronskiy determinantidan iborat, ya'ni

$$W(x_0) = W[y_1(x_0), y_2(x_0), ..., y_n(x_0)] \neq 0$$

bo‘ladi, chunki $y_1, y_2, ..., y_n$ funksiyalar chiziqli erkli. Shunday qilib, (7) sistema yagona yechimga ega. Bu yechim Kramer formulasi yoki Gauss usuli yordamida aniqlanadi.

Bu yerdan (5) funksiya yoki (4) qaralayotgan (1) yoki (2) differensial tenglamaning umumiy yechimi ekani kelib chiqadi. Teorema isbot bo‘ldi.

Shunday qilib, bir jinsli bo‘lmagan chiziqli tenglamani yechishning bir jinsli tenglamani yechishdan farqi faqat bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning birorta xususiy yechimni topishdadir.

Xususiy yechimlarni topishda quyidagi teoremadan foydalanish maqsadga muvofiq.

2-**TEOREMA**. *Agar bir jinsli bo‘lmagan (2) tenglamaning o‘ng tomoni 2 ta funksiyaning yig‘indisidan iborat, ya'ni* $L[y] = q_1(x) + q_2(x)$ *bo‘lsa, bunday tenglamaning xususiy yechimini o‘ng tomonlari mos ravishda* $q_1(x)$ *va* $q_2(x)$ *bo‘lgan xuddi shunday tenglamaning xususiy yechimlari yig‘indisi sifatida hosil qilish mumkin.*

Isbot. $L[y] = q_1(x)$ va $L[y] = q_2(x)$ tenglamalarni qaraymiz. $\bar{y}_1$ va $\bar{y}_2$ funksiyalar mos ravishda birinchi va ikkkinchi tenglamalarni qanoatlantirsin deylik, ya'ni $L[\bar{y}_1] = q_1(x)$, $L[\bar{y}_2] = q_2(x)$.

Chiziqli L operatorning additivlik xossasiga ko‘ra

$$L[\bar{y}_1 + \bar{y}_2] = L[\bar{y}_1] + L[\bar{y}_2] = q_1(x) + q_2(x),$$

ya'ni $\bar{y} = \bar{y}_1 + \bar{y}_2$ funksiya $L[y] = q_1(x) + q_2(x)$ tenglamani qanoatlantiradi. Shuni isbotlash talab qilingan edi.

Chiziqli bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning xususiy yechimlari $q(x)$ maxsus ko‘rinishga ega bo‘lganda aniqmas koeffitsientlar usuli bilan topiladi.

Aniqmas koeffitsientlar usuli koeffitsientlari o‘zgarmas va o‘ng tomoni maxsus ko‘rinishda bo‘lgan bir jinsli bo‘lmagan tenglamalar uchun tadbiq qilinadi.

Agar o‘ng tomonda ko‘rsatkichli funksiyalar, sinuslar, kosinuslar va ko‘phadlar yoki ularning butun ratsional kombinatsiyalari turgan bo‘lsa, u holda aniqmas koeffitsientlar usuli bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning xususiy yechimini topishga imkon beradi.

(1) tenglamani $n = 4$ bo‘lgan hol uchun tekshirish yetarli, chunki ixtiyoriy n uchun uzundan-uzun hisoblash kerak xolos.

$q(x) = P_m(x)e^{kx}$ ni olamiz. U holda (1) tenglama

$$y^{IV}+p_1y'''+p_2y''+p_3y'+p_4y=P_m(x)e^{kx} \tag{8}$$

ko‘rinishda bo‘ladi, bu yerda $P_m(x)-m$-chi darajali ko‘phad, p_1,p_2,p_3,p_4- koeffitsientlar o‘zgarmaslar.

(8) tenglamani tekshiramiz. Uni xususiy yechimini $\bar{y}=Q(x)e^{kx}$ shaklda izlaymiz. Bu yerda $Q(x)-$ darajasi va koeffitsientlari tanlash lozim bo‘lgan noma’lum ko‘phad. $\bar{y}=Q(x)e^{kx}$ ($Q=Q(x)$) funksiyani (5) tenglamaga qo‘yamiz:

$$\begin{array}{c||l}
p_4 & \bar{y}=Qe^{kx} \\
p_3 & \bar{y}'=Qke^{kx}+Q'e^{kx} \\
p_2 & \bar{y}''=Qk^2e^{kx}+2Q'ke^{kx}+Q''e^{kx} \\
p_1 & \bar{y}'''=Qk^3e^{kx}+3Q'k^2e^{kx}+3Q''ke^{kx}+Q'''e^{kx} \\
1 & \bar{y}^{IV}=Qk^4e^{kx}+4Q'k^3e^{kx}+6Q''ke^{kx}+4Q'''ke^{kx}+Q^{IV}e^{kx}
\end{array}$$

Chap tomonda turgan koeffitsientlarga ko‘paytirib, qo‘shib va o‘xshash hadlarini ixchamlab, quyidagini hosil qilamiz:

$$[Q(k^4+p_1k^3+p_2k^2+p_3k+p_4)+Q'(4k^3+3p_1k^2+2p_2k+p_3)+Q''(6k^2+3p_1k+p_2)+$$
$$+Q'''(4k+p_1)+Q^{IV}]e^{kx}=P_m(x)e^{kx}.$$

Tenglikning chap qismida Q oldidagi koeffitsient (8) tenglamaning r o‘rniga k qo‘yilgan xarakteristik ko‘phadi, ya'ni (8) ga mos xarakteristik ko‘phad

$$f(r)=r^4+p_1r^3+p_2r^2+p_3r+p_4$$

da $r=k$ qo‘yilgan

$$f(k)=k^4+p_1k^3+p_2k^2+p_3k+p_4.$$

Q' oldidagi koeffitsient $f'(k)$ dan, $Q'',Q''',Q^{IV}-$lar oldidagi koeffitsientlar esa sonli koeffitsientlari kerakligicha tanlab olingan xarakteristik ko‘phadning mos ravishda keyingi hosilalaridan iborat, ya'ni

$$4k^3+3p_1k^2+2p_2k+p_3=\frac{1}{1!}f'(k)$$

$$6k^2+3p_1k+p_2=\frac{1}{2!}f''(k)$$

$$4k+p_1=\frac{1}{3!}f'''(k)$$

$$1=\frac{1}{4!}f^{IV}(k).$$

Bundan foydalanib va hosil bo‘lgan ifodani e^{kx} ga qisqartirib, quyidagiga, ega bo‘lamiz:

$$Qf(k)+\frac{1}{1!}Q'f'(k)+\frac{1}{2!}Q''f''(k)+\frac{1}{3!}Q'''f'''(k)+\frac{1}{4!}Q^{IV}f^{IV}(k)=P_m(x) \tag{9}$$

(9) tenglikda $Q(x)-$ko‘phadning aniqmas koeffitsentlarini topish uchun (9) tenglikni chap va o‘ng qismlaridagi ko‘phadlarning darajalari bir xil bo‘lishi, ya'ni chap qismining darajasi o‘ng qismining darajasi kabi $m-$ga teng bo‘lishi kerak.

1) Agar k son xarakteristik tenglamaning ildizi bo‘lmasa, $f(k)\neq 0$ va Q ko‘phad asosan (9) tenglikning chap qismida bo‘ladi. Shuning uchun chap qismning darajasi $Q-$ning darajasi bilan bir xildir (chunki $Q-$ning hosilalari $Q-$nikidan past darajasiga ega) va aniqmas koeffitsientlarni topish imkoniga ega bo‘lishimiz uchun $Q(x)$ ko‘phadning darajasi m bo‘lishi kerak. Binobarin, o‘ng qismi $P_m(x)e^{kx}$ ko‘rinishiga ega va $f(k)\neq 0$ bo‘lganda, xususiy yechimni

$$\bar{y} = Q_m(x)e^{kx} \quad (f(k) \neq 0)$$

shaklda izlash kerak.

2) Endi k son xarakteristik tenglamaning ildizi bo'lsin. Agar bu ildiz oddiy bo'lsa, u holda $f(k) = 0$ biroq $f'(k) \neq 0$. Agar ildiz $\alpha \geq 1$ karrali bo'lsa, u holda

$$f(k) = f'(k) = ... = f^{(\alpha-1)}(k) = 0$$

biroq $f^{(\alpha)}(k) \neq 0$ bo'ladi ($f(r) = (r-k)^{\alpha}\varphi(r)$).

Keyingi holda (9) tenglamaning chap tomoni Q ko'phadga ham, uning $(\alpha - 1)$ tartibgacha hosilalariga ham ega emas. Masalan, $\alpha = 3$ bo'lsa, ($f(k) = f'(k) = f''(k) = 0,\ f'''(k) \neq 0$) (9) tenglik quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{1}{3!}Q'''f'''(k) + \frac{1}{4!}Q^{IV}f^{IV}(k) = P_m(x).$$

(9) tenglikning chap qismi $Q^{(\alpha)}$(bizning holda Q''' dan) boshlanadi. Shuning uchun Q ko'phadni $Q^{(\alpha)}$ hosila m darajaga ega bo'ladigan qilib tanlash kerak. Bu holda Q ko'phadning o'zi $m+\alpha$ darajaga ega bo'ladi. Bundan tashqari, (9) tenglik $Q^{(\alpha)}$ning koeffitsientlarini aniqlashga imkon beradi. Qning darajasi α dan past bo'lgan bircha hadlari (9) ga kirmaydi, shuning uchun ular ixtiyoriy bo'lishi mumkin va ularni 0 ga teng deb hisoblash mumkin.

Demak, Q ko'phadning kichik hadini α darajali deb, butun ko'phadning o'zini esa x^{α} ning darajasi m bo'lgan ko'phadga ko'paytmasi deb hisoblash mumkin, ya'ni

$$Q = a_1x^{m+\alpha} + a_2x^{m+\alpha-1} + ... + a_mx^{\alpha+1} + a_{m+1}x^{\alpha} + a_{m+2}x^{\alpha-1} + ... + a_{m+\alpha}x + a_{m+\alpha+1}$$

ko'phadda

$$a_{m+2} = a_{m+3} = ... = a_{m+\alpha} = a_{m+\alpha+1} = 0$$

deyish mumkin,chunki $Q^{(\alpha)}$–ni hisoblasak bu koeffitsientlar qatnashmaydi. Shuning uchun ularni ixtiyoriyligidan 0 ga tenglash mumkin. U holda

$$Q = a_1x^{m+\alpha} + a_2x^{m+\alpha-1} + ... + a_mx^{\alpha+1} + a_{m+1}x^{\alpha} =$$
$$= x^{\alpha}(a_1x^m + a_2x^{m-1} + ... + a_mx + a_{m+1}) = x^{\alpha}Q_m(x)$$

Shunday qilib, agar bir jinsli bo'lmagan tenglamaning o'ng qismi $P_m(x)e^{kx}$ ko'rinishga ega bo'lsa, va k son xarakteristik ko'phadning $\alpha \geq 1$ karrali ildizi bo'lsa, u holda xususiy yechimni

$$\bar{y} = x^{\alpha}Q_m(x)e^{kx}$$

ko'rinishda izlash kerak. Bu hol *rezonans hol* deyiladi.

Yuqoridaga mulohazalar k son kompleks bo'lganda ham o'z kuchini saqlaydi. Agar berilgan tenglamani o'ng tomoni

$$e^{ax}[P_m(x)\cos bx + \overline{P}_m(x)\sin bx]$$

ko'rinishga ega bo'lsa, (bu yerda $P_m(x),\ \overline{P}_m(x)$ – lar m dan katta bo'lmagan ko'phadlar), bu funksiyani Eyler formulasi yordamida

$$e^{(a+ib)}R_m(x) + e^{(a-ib)}\overline{R}_m(x)$$

ko'rinishga keltirish mumkin (bu yerda $R_m(x)$ va $\overline{R}_m(x)$ – lar m-chi darajali ko'phadlar). Bu holda xususiy yechim avvalgi mulohazalar yordamida izlanadi.

Xususiy yechimni izlashning yakuniy qoidasi quyidagichadir.

a) agar $k = a \pm ib$ xarakteristik tenglamani ildizi bo'lmasa, xususiy yechim

$$y = e^{ax}[Q_m(x)\cos bx + \overline{Q}_m(x)\sin bx]$$

ko'rinishda izlanadi (bu yerda $Q_m(x)$ va $\overline{Q}_m(x)$ – lar koeffitsientlari noma'lum bo'lgan m-chi darajali ko'phadlar).

Shuni eslatib o'tish kerakki, $P_m(x)$ va $\overline{P}_m(x)$ – lardan birining darajasi $m$dan kichik bo‘lsa, ham $Q_m(x)$ va $\overline{Q}_m(x)$ – ko‘phadlar m-chi darajali qilib izlanadi.

Haqaqatdan ham ular turlicha bo‘lsa, u holda ko‘phadlardan biridagi yetishmayotgan darajalar oldidagi koeffitsientlarini 0 ga teng deb olish mumkin.

b) agar $k = a \pm ib$ xarakteristik tenglamaning $\alpha \geq 1$ karrali ildizi bo‘lsa, u holda xususiy yechim

$$y = x^{\alpha} e^{ax}[Q_m(x)\cos bx + \overline{Q}_m(x)\sin bx]$$

ko‘rinishda izlanadi.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние диффердиальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Yuqori tartibli tenglamalarning tartibini pasaytirish.

2. Matritsali differensial tenglamalarni integrllash usullari.

Glossariy

Bir jinsli bo‘lmagan chiziqli differensial - Bir jinsli bo‘lmagan chiziqli differensial tenglama deb

$$y^{(n)} + p_1(x)y^{(n-1)} + p_2(x)y^{(n-2)} + \ldots + p_{n-1}(x)y' + p_n(x)y = q(x) \qquad (1)$$

ko‘rinishdagi tenglamaga aytiladi.

Chiziqli bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning umumiy yechimi haqidagi teorema - chiziqli bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning umumiy yechimi bu tenglamaning xususiy yechimi va unga mos bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi yig‘indisidan iborat.

Keyslar banki

Keys: Masala o’rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching:

$64y^{VIII} + 48y^{VI} + 12y^{IV} + y'' = 0$

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma’lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. Bir jinsli bo‘lmagan chiziqli differensial tenglama deb qanday ko‘rinishdagi tenglamaga aytiladi?
2. chiziqli bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning umumiy yechimi xaqidagi teoremani isbotlang?
3. Chiziqli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamaning yechimini aniqmas koeffitsientlar usulini tushintiring?
4. Chiziqli operatorning additivlik xossasini ayting?
5. Xusiy yechimni izlashning yakuniy qoidasini ayting?

Amaliy mashg’ulot-16

Tartibi pasayadigan tenglamalar.

1. Agar tenglamaga *u* kirmasa, *u*

$F(x, y^{(n)}, y^{(k+1)}, \ldots, y^{(n)}) = 0$.

ko‘rinishda bo‘ladi. $y^{(k)} = z$ deb tenglamaga tartibini pasaytirish mumkin:

$$F(x, z, z^{(1)}, \ldots, z^{(n-k)}) = 0.$$

2. Agar tenglamaga *x* kirmasa, ya'ni

$$F(y, y^{(1)}, \ldots, y^{(n)}) = 0,$$

u holda u ni erkin o‘zgaruvchi deb, $y^{(1)}$ ni ya'ni *p*(*y*) funksiya bilan almashtirish mumkin.

Misol-1: $2yy'' = y'^2 + 1$ tenglamada *x* yo‘q. $y' = p(y)$ deymiz, u holda

$$y'' = \frac{dy'}{dx} = \frac{dp(y)}{dx} = \frac{dp}{dy} \cdot \frac{dy}{dx} = p' \cdot p.$$

Tenglamaga, $y' = p,\ \ y'' = p' \cdot p$ almashtirishlarni kiritsak, $2yp \cdot p' = p^2 + 1$ munosabatni olamiz. Uni yechib, $p = \pm\sqrt{C_y - 1}$ ni olamiz. Shuning uchun, $y' = \pm\sqrt{C_y - 1}$ bu yerdan topamiz: $4(C_y - 1) = C^2(x + C_2)$.

Misol-2: Ushbu $y'' + y'^2 = 2e^{-y}$ tenglamani umumiy yechimini toping.

yechish: $y' = p(y),\ \ y'' p' \cdot p$ deb, Bernulli tenglamasini hosil qilamiz:

$pp' + p^2 = 2e^{-y}$ yoki $p' + p = \dfrac{2e^{-y}}{p}$.

$p = u \cdot v$ o‘rniga qo‘yishdan foydalanamiz, bu yerdan $p' = u'v + uv'$. Keyingi tenglama quyidagicha yoziladi:

$$u'v + uv' + uv = \frac{2e^{-y}}{u \cdot v} \quad \text{yoki} \quad u'v + (v' + v) \cdot u = \frac{2e^{-y}}{uv}.$$

v funksiyaning shunday tenglaymizki, qavs ichida turgan ifoda nolga teng bo‘lsin:

$$v' + v = 0 \qquad (1)$$

U holda

$$u'v = \frac{2e^{-y}}{u \cdot v} \qquad (2)$$

(1) tenglamani integrallaymiz:

$\dfrac{dv}{v} = -dy$ yoki $\ln v = -y$, bu yerdan $v = e^{-y}$ (3)

(3) ni (2) ga qo‘yib, quyidagini hosil qilamiz:

$uu' = \dfrac{2e^{-y}}{e^{-2y}}$ yoki $udu = 2e^{y}dy$, bundan integrallab, topamiz: $\dfrac{u^2}{2} = 2e^{y} + C_1$

yoki

$$u = \pm\sqrt{4e^{y} + 2C_1} \qquad (4)$$

Topilgan *u* va *v* funksiyalar bo‘yicha ((3) va (4) formulalar) izlanayotgan r oraliq funksiyani tuzamiz:

$p = u \cdot v = \pm e^{-y}\sqrt{4e^{y} + 2C_1}$.

yoki $p = \pm\sqrt{4e^{-y} + 2C_1 e^{-2y}}$

$p = \dfrac{dy}{dx}$ almashtirish bajarib, o‘zgaruvchilari ajraladigan tenglama hosil qilamiz:

$$\frac{dy}{dx} = \pm\sqrt{4e^{-y} + 2C_1e^{-2y}}$$

Buni integrallab, umumiy integralni topamiz:

$$\pm\frac{1}{2}\sqrt{4e^{y} + 2C_1} = x + C_2$$

yoki

$(x + c_2)^2 = e^y + \overline{C}_1$ bu yerda $\overline{C}_1 = \frac{C_1}{2}$.

3. Agar tenglama $y, y^{(1)}, ..., y^{(n)}$ ga nisbatan bir jinsli ya'ni $y, y', y'', ...,$ ni $ky, ky', ky'', ...,$ lar bilan almashtirganda o'zgarmasa, tenglama tartibi $y' = yz$ deb almashtirish bajarilsa pasayadi, bu yerda z yangi noma'lum funksiya.

4. Agar tenglama *x,u* ga nisbatan bir jinsli bo'lsa, ya'ni *x* ni *kx* ga, *u* ni $k^m y$ ga (bunda y' $k^{m-1}y'$ ga, $y''k^{m-2}y''$ ga va hakazo almashtiriladi). Uni tartibini pasaytirish mumkin. Bunda *m* ni topish uchun har bir xaddagi *k* ning darajalari tenglab hosil qilinadi.

Masalan: $2x^4y'' - 3y^2 = x^4$ bunday almashtirishdan so'ng chap tomonda $4 + (m-2)$ o'ng tomonda 4 hosil bo'ladi, ya'ni $4 + m - 2 = 4$. Bu yerdan $m = 2$. Agar hosil bo'lgan tenglamalardan *m* ni topib bo'lmasa tenglama ko'rilgan ma'noda bir jinsli bo'lmaydi.

Shunday *m* topilgach, $x = e^t$, $y = ze^{mt}$ almashtirish bajarish kerak, bu yerda $z = z(t)$ yangi noma'lum funksiya, *t*-yangi erkli o'zgaruvchi. Natijada *t* ni o'z ichiga oshkor olmagan tenglama hosil qilamiz: uni tartibini pasaytirish mumkin.

5. Agar tenglamaning ikkala qismini *x* bo'yicha biror funksiyasi bo'yicha to'liq hosilasi ko'rinishga keltirish mumkin bo'lsa, uning tartibini osongina pasaytirish mumkin.

Misol: $yy'' = y'^2 \Rightarrow \frac{y''}{y'} \Rightarrow (\ln y')' = (\ln y)' \Rightarrow \ln y' = \ln y + \ln c,\ y' = yc,$ tenglama tartibi pasaydi.

Amaliy mashg'ulot № 13

1. $y''' = \frac{1}{x}$ j: $y = x^2\ln\sqrt{x} + c_1x^2 + c_1x + c_3$
2. $y'' = -\frac{1}{2y^3}$ j: $1 + c_1y^2 = \left(c_2 + \frac{c_1x}{\sqrt{2}}\right)^2$
3. $y'' = 1 - y'^2$ j: $y = \ln|e^{2x} + c_1| - x + c_2$
4. $xy'' + y' = 0$ j: $y = c_1 + c_2\ln|x|$
5. $yy'' = y'^2$ j: $y = c_1e^{c_2x}$
6. $yy'' + y'^2 = 0$ j: $y = \pm\sqrt{c_1x + c_2}$
7. $(1 + x^2)y'' + y'^2 + 1 = 0$ j: $y = (1 + C_1^2)\ln|x + c_1| - c_1x + c_2$
8. $y'(1 + y'^2) = ay''$ j: $(x - c_1)^2 = a\ln\left|\sin\frac{y - c_2}{a}\right|$
9. $xy''' + y'' = 1 + x$ j: $y = \frac{x^3}{12} + \frac{x^2}{2} + c_1x\ln|x| + c_2x + c_3$
10. $y''' + y''^2 = 1$ j: $y = \sin(c_1 + x) + c_2x + c_3$

TEST

a ning qanday qiymatlarida $y''+ay=1$, $y(0)=0,\ y(1)=0$ masala yechimga ega emas?	$*\,a=(2\pi-1)\pi^2$	$a=(2\pi-1)\ \pi$	$a=(2\pi-1)^2\,\pi$	$a=0$
a ning qanday qiymatlarida $y''+ay=f(x)$ $y(0)=0,\ y(1)=0$ chegaraviy masalaning Grin funksiyasi mavjud bo‘ladi?	$*\,a\neq k^2\pi^2$	$a=k\pi$	$a=k^2\pi^2$	$a\neq k\pi$
$y''+4y'+3y=0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	$*\ y=c_1e^{-x}+c_2e^{-3x}$	$y=c_1e^{-x}+c_2e^{3x}$	$y=c_1e^{x}+c_2e^{-3x}$	$y=c_1e^{x}+c_2e^{3x}$
$y''+2y'+10y=0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	$*$ $y=e^{-x}(C_1Cos3x+C_2Sin3x)$	$y=e^{3x}(C_1Cosx+C_2Sinx)$	$y=e^{x}(C_1Cos3x+C_2Sin3x)$	$y=e^{2x}(c_1Cos2x+c_2Sin2x$
$y''-2y'+y=0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	$*\ y=(c_1+c_2x)e^x$	$y=(c_1+c_2)e^x$	$y=(c_1+c_2x^2)e^x$	$y=c_1e^x+c_2e^{-x}$
$y''-2y'-3y=x^2e^x$ tenglamaning bitta xususiy uchimi qanday ko‘rinishda izlanadi.	$*\ y=x(Ax^2+Bx+c)e^x$	$y=(Ax^2+Bx+c)e^x$	$y=x^2(Ax+B)e^x$	$y=Ax^2e^x$
$y''-4y'+8y=Sin2x$ tenglamaning bitta xususiy yechimi qaysi ko‘rinishda bo‘ladi?	$*\ y=ASin2x+BCos2x$	$y=(Ax+B)Sin2x+$ $+(cx+B)Cosx$	$y=Ax^2Sin2x+BxCosx$	$y=x(ASin2x+BCos2x$
a va b ning qanday qiymatlarida $y''+ay'+by=0$ tenglamaning yechimlari $-\infty\prec x\prec\infty$ da chegaralangan bo‘ladi?	$*a=0$ $b>0$	$a=0$ $b<0$	$a>0$ $b>0$	$a<0$ $b<0$
a va b ning qanday qiymatlarida $y''+ay'+by=0$ tenglamaning hamma yechimlari $x\to+\infty$ da nolga intiladi?	$*a>0$ $b>0$	$a=0$ $b<0$	$a=0$ $b>0$	$a<0$ $b<0$
$x^3y'''+xy'-y=0$ Eyler tenglamasini yeching.	$*$ $y=x(c_1+c_2\ln\|x\|+c_3\ln^2\|x\|)$	$y=c_1+c_2\ln\|x\|+c_3\ln^2\|x\|$	$y=x^2(c_1+c_2\ln\|x\|+c_3\ln^2\|x\|)$	$y=c_1+c_2x+c_3x^2$

MA'RUZA № 20-21

Mavzu: Chiziqli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamalar yechish usuli. Eyler tenglamasi

Reja

1.Ixtiyoriy o‘zgarmasni variatsiyalash usuli.

2.Misollar .

3.Eyler tenglamasi.

4.Eyler tenglamasining xarakteristik tenglamasi.

Aniqmas koeffitsientlar usulining tadbiq qilinish sohasi tor va cheklangandir. O‘ng qismida hech bo‘lmaganda tgx yoki kasr ko‘rsatkli funksiya turgan bo‘lsa, aniqmas koeffitsientlar usulani qo‘llab bo‘lmaydi. Shuning uchun bir jinsli bo‘lmagan tenglamalarni yechishning qo‘llanish sohasi ancha keng bo‘lgan yana bir usuli bilan tanishib chiqish kerak.

Ixtiyoriy o‘zgarmaslarni variatsiyalash usuli o‘ng qismi qanday bo‘lishidan qat'iy nazar har qanday bir jinsli bo‘lmagan chiziqli tenglama uchun qo‘llanishga ega bo‘lib, mos bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi ma'lum bo‘lgan barcha hollarda bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning umumiy yechimini tenglamaning umumiy yechimini topishga imkon beradi. Aniqmas koeffitsientlar usulini bayon qilganimizdagidek, bu yerda ham 4-chi tartibli tenglamani qarash bilan cheklanamiz, ya'ni $n = 4$ uchun ko‘ramiz.

Shunday qilib,

$$y^{(n)} + p_1(x)y^{(n-1)} + p_2(x)y^{(n-2)} + ... + p_{n-1}(x)y' + p_n(x)y = q(x) \tag{1}$$

bo‘lsin, bu yerda $p_1, p_2, p_3, p_4, q -$lar x ning ixtiyoriy funksiyalari, ushbu

$$Y = C_1y_1 + C_2y_2 + C_3y_3 + C_4y_4 \tag{2}$$

ifoda (2) tenglamaga mos $L[y] = 0$ bir jinsli tenglamani umumiy yechimi bo‘lib, ma'lum deb faraz qilamiz.

O‘zgarmaslarni variatsiyalash usulida umumiy yechim (2) ga o‘xshash ko‘rinishda izlanadi, lekin bu yerda ixtiyoriy o‘zgarmaslar x ning noma'lum funksiyalari bilan almashtirilgan. Noma'lum funksiyalar avvaldagidek C_1, C_2, C_3, C_4 harflar bilan belgalanadi. Boshqacha aytganda, yechim

$$y = C_1(x)y_1 + C_2(x)y_2 + C_3(x)y_3 + C_4(x)y_4 \tag{3}$$

ko‘rinishda izlanadi.

O‘zgarmasni variatsiyalash usuli birinchi tartibli chiziqli tenglama uchun qaralgan o‘zgarmasni variatsiyalash usuliga o‘xshaydi. Noma'lum funksiyalarni (3) ifoda (1) tenglamani qanoatlantiradigan qilib tanlash talab etiladi. Buning uchun (3) funksiyaning hosilalarini topib, ularni (1) ga qo‘yamiz. Bunda 4-ta noma'lum funksiya uchun faqat 1-ta tenglama hosil bo‘lishni ko‘rish mumkin. Shuning uchun bu 1-ta tenglamaga yana 3-ta (n tartibli tenglama bo‘lgan umumiy holda $(n-1)-$ta) tenglamani hosil bo‘ladigan sistema birgalikda (yechimga ega) bo‘ladigan qilab qo‘shish mumkin.

Biz bu 3-ta tenglamani tezda kerakli shakldа yozishimiz mumkin edi, biroq boshqa yo‘l tutish maqsadga muvofiqdir. Qo‘shimcha tenglamalar ketma-ket shunday tanlanadiki, (3) funksiya va uni hosilalarini (1) tenglamaga qo‘yish natijasida hosil bo‘ladigan asosiy tenglama eng sodda ko‘rinishga ega bo‘lsin. $C_1(x), C_2(x), C_3(x), C_4(x)$ o‘zgaruvchilar oldidagi 1-chi 3-ta hosila C_1, C_2, C_3, C_4 o‘zgarmaslar oldidagi hosilalarga o‘xshash ko‘rinishga ega bo‘lashga harakat qilamiz.

Bunda sistema faqat birinchi tartibli $C_1'(x), C_2'(x), C_3'(x), C_4'(x)$ hosilalarga ega bo‘ladi.

(3) funksiyani differensiallashdan boshlaymiz, bunda qisqalik uchun barcha funksiyalarda x argumentni yozmaymiz:

$$y' = C_1y_1' + C_2y_2' + C_3y_3' + C_4y_4' + C_1'y_1 + C_2'y_2 + C_3'y_3 + C_4'y_4$$

Qo‘shimcha tenglamalarning birinchisi sifatida bu ifodaning 2-chi yarmini 0 ga tenglaymiz, ya'ni

$$C_1'y_1 + C_2'y_2 + C_3'y_3 + C_4'y_4 = 0 \tag{4}$$

deymiz. U holda y' ifoda $C_1(x), C_2(x), C_3(x), C_4(x)$ funksiyalar o‘zgarmas bo‘lgandagi kabi ko‘rinishga ega bo‘ladi. So‘ngra

$$y' = C_1y_1' + C_2y_2' + C_3y_3' + C_4y_4'$$

dan hosila olamiz:

$$y'' = C_1y_1'' + C_2y_2'' + C_3y_3'' + C_4y_4'' + C_1'y_1' + C_2'y_2' + C_3'y_3' + C_4'y_4'.$$

Yuqoridagiga o‘xshash, 2-chi qo‘shimcha tenglama sifatida

$$C_1'y_1' + C_2'y_2' + C_3'y_3' + C_4'y_4' = 0 \tag{5}$$

ni olib, qolgan qismini tashlab yuboramiz. U holda 3-chi tartibli hosilasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi. (5)dan

$$y'' = C_1y_1'' + C_2y_2'' + C_3y_3'' + C_4y_4''$$

bo‘ladi. Bundan hosila olamiz:

$$y''' = C_1y_1''' + C_2y_2''' + C_3y_3''' + C_4y_4''' + C_1'y_1'' + C_2'y_2'' + C_3'y_3'' + C_4'y_4''$$

bu yerdan

$$C_1'y_1'' + C_2'y_2'' + C_3'y_3'' + C_4'y_4'' = 0 \tag{6}$$

deb, yana bir marta 2-chi qolgan qismini tashlab yuborish mumkin.

Bundan ham soddalashtirish mumkin emas: 3-ta qo‘shimcha tenglama qo‘shib bo‘lindi. Ya'ni $y-$ning va uning hosilalarini o‘rniga qo‘yishda ularni ko‘paytirish lozim bo‘lgan tenglamaning koeffitsientlari bilan qaytadan yozib chiqamiz:

$$\begin{array}{c||l}
p_4 & y = C_1y_1 + C_2y_2 + C_3y_3 + C_4y_4 \\
p_3 & y' = C_1y_1' + C_2y_2' + C_3y_3' + C_4y_4' \\
p_2 & y'' = C_1y_1'' + C_2y_2'' + C_3y_3'' + C_4y_4'' \\
p_1 & y''' = C_1y_1''' + C_2y_2''' + C_3y_3''' + C_4y_4''' \\
1 & y^{IV} = C_1y_1^{IV} + C_2y_2^{IV} + C_3y_3^{IV} + C_4y_4^{IV} + C_1'y_1''' + C_2'y_2''' + C_3'y_3''' + C_4'y_4'''
\end{array}$$

1-chi ustuning elementlarining tegishli ko‘paytuvchilarga ko‘paytmalarini alohida qo‘shib quyidagini hosil qilamiz:

$$C_1y_1^{IV} + C_1p_1y_1''' + C_1p_2y_1'' + C_1p_3y_1' + C_1p_4y_1 = C_1L[y_1]$$

Bu ifoda y_1 funksiyani (1) tenglamaning chap qismiga qo‘yish natijasidir, u mos bir jinsli tenglamaning yechimi bo‘lganligi uchun $L[y_1] = 0$.

Mos ravishda $C_2L[y_2]$, $C_3L[y_3]$ va $C_4L[y_4]$ ga teng bo‘lgan, qolgan ustunlarning yig‘indisi ham 0ga teng bo‘ladi. Demak, tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$C_1y_1''' + C_2y_2''' + C_3y_3''' + C_4y_4''' = q \tag{7}$$

Shunday qilib, $C_1(x), C_2(x), C_3(x), C_4(x)$ noma'lum funksiyalarni topish uchun (4), (5), (6), (7) dan iborat 4-ta tenglamalar sistemasini hosil qildik:

$$\begin{cases}
C_1'y_1 + C_2'y_2 + C_3'y_3 + C_4'y_4 = 0 \\
C_1'y_1' + C_2'y_2' + C_3'y_3' + C_4'y_4' = 0 \\
C_1'y_1'' + \dot{C}_2y_2'' + C_3'y_3'' + C_4'y_4'' = 0 \\
C_1'y_1''' + C_2'y_2''' + C_3'y_3''' + C_4'y_4''' = q(x)
\end{cases} \tag{8}$$

(8) sistemani esda yaxshi saqlab qolish uchun quyidagini aytib o‘tamiz: noma'lumlar bo‘lib, $C_1'(x), C_2'(x), C_3'(x), C_4'(x)$ hosilalar, koeffitsientlar bo‘lib ma'lum fundamental sistema Vronskiy determinantining satrlari xizmat qiladi, barcha tenglamlarda ularning o‘ng tomonlari, oxirgi tenglamadan tashqari (u yerda $q(x)-$berilgan (1) tenglamaning o‘ng qismi turadi), 0 ga teng.

(8) sistema chiziqli algebraik tenglamalarning bir jinsli bo‘lmagan sistemasidir, u

birgalikda, chunki bu sistemaning determinanti $D = W[y_1, y_2, ..., y_n] \neq 0$. Uni yechib quyidagini hosil qilamiz:

$$C_1'(x) = \varphi_1(x), \quad C_2'(x) = \varphi_2(x), \quad C_3'(x) = \varphi_3(x), \quad C_4'(x) = \varphi_4(x),$$

bu yerdan

$$C_1(x) = \int \varphi_1(x)dx + K_1, \quad C_2(x) = \int \varphi_2(x)dx + K_2,$$

$$C_3(x) = \int \varphi_3(x)dx + K_3, \quad C_4(x) = \int \varphi_4(x)dx + K_4.$$

Bu yerda K_1, K_2, K_3, K_4 – ixtiyoriy o'zgarmaslar (differensial tenglamalarda ixtiyoriy o'zgarmaslar odatda aniqmas integral belgisiga qo'shib yozilmaydi) hosil bo'lgan ifodalarni (3) tenglikka qo'yib, bir jinsli bo'lmagan (1) tenglamaning umumiy yechimini ushbu ko'rinishda hosil qilamiz:

$$y = y_1 \int \varphi_1(x)dx + y_2 \int \varphi_2(x)dx + y_3 \int \varphi_3(x)dx + y_4 \int \varphi_4(x)dx +$$

$$+ K_1 y_1 + K_2 y_2 + K_3 y_3 + K_4 y_4$$

Bir jinsli bo'lmagan (1) tenglamaning umumiy yechimi ikki gruppa hadlarga bo'linishini aytib o'taylik: ulardan 1-chisi ixtiyoriy o'zgarmaslarga ega bo'lmay, bir jinsli bo'lmagan tenglamaning xususiy yechimidan, 2-chi gruppa hadlar esa mos bir jinsli tenglamaning umumiy yechimidan iborat. Shunday qilib, yana 1-teoremaning natijasini hosil qildik.

Keltirilgan isbotda p_1, p_2, p_3, p_4 – koeffitsientlar x ning funksiyalari deb faraz qilinadi. Shuday qilib, bir jinsli bo'lmagan tenglamaning integrallash uchun mos bir jinsli tenglamaning umumiy yechimini bilish yetarladir. Biroq amalda koeffitsientlari o'zgarmaslar bo'lgan yoki unga keltiriladigan tenglama bilan cheklanishimizga to'g'ri keladi, chunki faqat ular uchungina bir jinsli tenglama yechimlarining fundamental sistemasini topish usullari ma'lumdar.

Misol ko'raylik.

1. $y''' + y' = tgx$ tenglamani yechimiz:

Mos bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi:

$$(*) \quad y = C_1 + C_2 \cos x + C_3 \sin x,$$

ya'ni

$y''' + y' = 0 \Rightarrow r^3 + r = 0$ xarakteristik tenglamasi $r(r^2 + 1) = 0, \Rightarrow r_1 = 0, \ r_{2,3} = \pm i \Rightarrow$

$$y_1 = 1, \ y_2 = \cos x, \ y_3 = \sin x$$

(*) kelib chiqadi.

Bunday tenglama uchun (8) sistema quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{cases} C_1' + C_2' \cos x + C_3' \sin x = 0 \\ C_1' \cdot 0 - C_2' \sin x + C_3' \cos x = 0 \\ C_1' \cdot 0 - C_2' \cos x - C_3' \sin x = tgx \end{cases}$$

$$\begin{cases} C_1' + C_2' \cos x + C_3' \sin x = 0 \\ \quad - C_2' \sin x + C_3' \cos x = 0 \\ \quad - C_2' \cos x - C_3' \sin x = tgx \end{cases}$$

2-chi tenglamaning ikkala qismini $\sin x$ga 3-chi tenglamaning ikkala qismini $\cos x$ga ko'paytirib qo'shsak, $C_2' = -\sin x$ ni hosil qilamiz. U holda 2-chi tenglamadan $C_3' = -\dfrac{\sin^2 x}{\cos x}$ kelib chiqadi. 1-chi va 3-chi tenglamalarning ikkala qismini qo'shib, $C_1' = tgx$ ni topamiz, ya'ni

$$C_1' = tgx, \quad C_2' = -\sin x, \quad C_3' = -\frac{\sin^2 x}{\cos x}.$$

Integrallash ushbuni beradi:

1) $dC_1 = tgxdx \Rightarrow C_1 = \int \frac{\sin x}{\cos x}dx + K_1 \Rightarrow C_1 = -\int \frac{d(\cos x)}{\cos x} + K_1 \Rightarrow C_1 = -\ln \cos x + K_1$.

2) $dC_2 = -\sin xdx \Rightarrow C_2 = -\int \sin xdx \Rightarrow C_2 = \cos x + K_2$.

3) $dC_3 = -\frac{\sin^2 x}{\cos x}dx \Rightarrow C_3 = -\int \frac{1-\cos^2 x}{\cos x}dx \Rightarrow C_3 = \sin x - \ln tg(\frac{x}{2}+\frac{\pi}{4}) + K_4$.

($\int \frac{1}{\cos ax}dx = \frac{1}{a}\ln tg(\frac{x}{2}+\frac{\pi}{4}) + C$ formuladan foydalanildi).

Shunday qilib tenglama umumiy yechimi:

$$y = C_1y_1 + C_2y_2 + C_3y_3 = -\ln \cos x - \ln tg(\frac{x}{2}+\frac{\pi}{4}) + \overline{K}_1 + K_2\cos x + K_3 \sin x, \quad \overline{K}_1 = K_1 + 1$$

bo'ladi.

3. EYLER TENGLAMASI.

Eyler tenglamasi koeffitsientlari o'zgaruvchan bo'lgan differensial tenglama bo'lib, uni koeffitsientlari o'zgarmas bo'lgan tenglamaga keltirish mumkin. Ushbu tenglama Eyler tenglamasi deyiladi.

$$x^n y^{(n)} + p_1x^{n-1}y^{(n-1)} + p_2x^{n-2}y^{(n-2)} + ... + p_{n-1}xy' + p_ny = q(x) \qquad (9)$$

bu yerda $p_1, p_2,..., p_n$ –o'zgarmas sonlar.

Shunday qilib Eyler tenglamasining koeffitsientlari darajasi funksiyalardir, shu bilan birga koeffitsientning darajasi u bilan birga turgan hosila tartibiga teng.

Eyler tenglamasi erkli o'zgaruvchini $x = e^t$ (yoki $t = \ln x$) o'rniga qo'yish orqali koeffitsientlari o'zgarmas bo'lgan chiziqli tenglamaga keltiriladi.

Haqiqatdan ham $x = e^t$, ya'ni $t = \ln x$ deylik ($x > 0$ deb faraz qilinadi; $x < 0$ uchun $t = \ln|x|$ deb hisoblash kerak).

$t-$ni oraliq argument deb hisoblab va $\frac{dt}{dx} = \frac{1}{x}$ ekanlagini nazarda tutib, $y-$ning x bo'yicha hosilasini topamiz;

$$\frac{dy}{dx} = \frac{dy}{dt}\cdot\frac{dt}{dx} = \frac{dy}{dt}\cdot\frac{1}{x} \Rightarrow xy' = x\frac{dy}{dx} = \frac{dy}{dt} \qquad (10)$$

($y(x) = y(t(x))$ -murakkab funksiya).

Murakkab funksiyani differensiallash qoidasigi ko'ra, x bo'yicha yana differensiallasak,

$$\frac{d^2y}{dx^2} = \frac{d^2y}{dt^2}\cdot\left(\frac{1}{x}\right)^2 + \frac{dy}{dt}\cdot\left(-\frac{1}{x^2}\right), \qquad (11)$$

bu yerdan

$$x^2y'' = x^2\frac{d^2y}{dx^2} = \frac{d^2y}{dx^2} - \frac{dy}{dt}, \qquad (12)$$

Yana x bo'yicha differensiallab, quyidagini hosil qilamiz.

$$\frac{d^3y}{dx^3} = \frac{d^3y}{dt^3}\cdot\left(\frac{1}{x}\right)^3 + \frac{d^2y}{dt^2}\cdot\left(-\frac{2}{x^3}\right) + \frac{d^2y}{dt^2}\cdot\frac{1}{x}\cdot\left(\frac{1}{x^2}\right) - \frac{dy}{dt}\cdot\left(-\frac{2}{x^3}\right)$$

va binobarin,

$$x^3y''' = x^3\frac{d^3y}{dx^3} = \frac{d^3y}{dt^3} - 3\frac{d^2y}{dx^2} + 2\frac{dy}{dt}. \qquad (13)$$

(10), (12) va (13) tengliklar quyi hosilalar uchun $x^n y^{(n)}$ ko'paytma $y-$ning t bo'yicha o‘zgarmas koeffitsientli hosilalari orqali ifodalashini ko‘rsatadi. To‘liq matematik induksiya metodidan foydalanib, bu xossa istalgan $n-$lar uchun o‘rinla ekanligini isbot qilish mumkin, bu yerdan istalgan tartibli Eyler tenglamasini o‘zgarmas koeffitsientli tenglamaga keltirish mumkinligi kelib chiqadi.

1-misol. $x^3y''' - x^2y'' + 2xy' - 2y = 0$ tenglamani yeching.

Yechish. $x = e^t$ deb (10), (12) va (13) tengliklardan foydalanib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\left(\frac{d^3y}{dt^3} - 3\frac{d^2y}{dx^2} + 2\frac{dy}{dt}\right) - \left(\frac{d^2y}{dx^2} - \frac{dy}{dt}\right) + 2\frac{dy}{dt} - 2y = 0$$

yoki

$$\frac{d^3y}{dt^3} - 4\frac{d^2y}{dx^2} + 5\frac{dy}{dt} - 2y = 0,$$

ya’ni koeffitsiyentlari o‘zgarmas bo‘lgan chiziqli tenglamani hosil qildik. Uning xarakteristik tenglamasi

$$r^3 - 4r^2 + 5r - 2 = 0$$

bo‘ladi. Bundan

$$r^3 - 4r^2 + 4r + r - 2 = 0 \Rightarrow r(r^2 - 4r + 4) + r - 2 = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow (r-2)(r-1)^2 = 0 \Rightarrow r_{1,2} = 1,\ r_3 = 2$$

kelib chiqadi. U holda tenglamaning umumiy ydchimi

$$y = C_1e^t + C_2te^t + C_3e^{2t}$$

yoki eski o‘ski o‘zgaruvchilarga qaytsak ($t = \ln x$),

$$y = C_1x + C_2x\ln x + C_3x^2$$

bo‘ladi.

Uuqorida aytilganlar Eylerning

$$x^ny^{(n)} + p_1x^{n-1}y^{(n-1)} + p_2x^{n-2}y^{(n-2)} + \dots + p_{n-1}xy' + p_ny = 0 \qquad (14)$$

bir jinsli tenlamasini erkli o‘zgaruvchini almashtirmasdan ($x = e^t$), bevosita integrallashga imkon beradi. Haqiqatdan ham, koeffitsiyentlari o‘zgarmas bo‘lgan o‘zgartirilgan tenglamada karrali ildizlar yo‘qligida xususiy yechim e^{rt} ko‘rinishga, ya’ni Eylerning dastlabki tenglamasida $y = x^r$ ko‘rinishga ega. Shuning uchun argumentni o‘zgartirib o‘tirmasdan, darhol Eyler tenglamasining xususiy yechinlarini $y = x^r$ ko‘rinishda izlash mumkin:

$$\frac{d^k(x^k)}{dx^k} = r(r-1)\dots(r-(k-1))x^{r-k},\ (k \le r)$$

bo‘lgani uchun barcha $k \le r$ larda

$$x^k\frac{d^k(x^k)}{dx^k} = r(r-1)\dots(r-(k-1))x^r$$

bo‘ladi.

Bu ifodani (14) tenglamaga qo‘yib va x^r ga qisqartirib, $r-$ni topish uchun $n-$chi darajali algebraik tenglamani hosil qilamiz:

$$r(r-1)\dots(r-(n-1)) + p_1r(r-1)\dots(r-(n-2)) + \dots + p_{n-2}r(r-1) + p_{n-1}r + p_n = 0. \qquad (15)$$

(15) algebraik tenglamani Eyler tenglamasi uchun *xarakteristik tenglama* deyiladi. U o‘zgartirilgan, koeffitsiyentlari o‘zgarmas bo‘lgan tenglama uchun ham xarakteristik tenglama bo‘ladi. Agar (15) tenglama $n-$ta turli $r_1, r_2, \dots, r_n$ ildizlarga ega bo‘lsa, $n-$ta xususiy yechim topiladi. U holda Eyler tenglamasining umumiy yechimi

$$y = C_1x^{r_1} + C_2x^{r_2} + \dots + C_nx^{r_n}$$

funksiya bo‘ladi. $\alpha \ge 1$ karrali r_1 ildizga

$$x^{r_1},\ x^{r_1}\ln x,\ x^{r_1}(\ln x)^2,\ \dots,\ x^{r_1}(\ln x)^{\alpha-1}$$

ko‘rinishdagi α – ta xususiy yechim mos keladi.

Kompleks qo‘shma $a \pm ib$ ildizlar juftiga $x^a \cos(b \ln x)$ va $x^a \sin(b \ln x)$ yechimlar jufti mos keladi.

2-Misol. $x^3 y''' + 2x^2 y'' - xy' + y = 0$ tenglamani yeching.

Yechish. $y = x^r$ almashtirish bojaramiz. U holda

$$y' = rx^{r-1} \Rightarrow xy' = rx^r$$

$$y'' = r(r-1)x^{r-2} \Rightarrow x^2 y'' = r(r-1)x^r$$

$$y''' = r(r-1)(r-2)x^{r-3} \Rightarrow x^3 y''' = r(r-1)(r-2)x^r.$$

Bularni tenglamaga qo‘yib va x^r – ga qisqartirib ushbuga ega bo‘lamiz:

$$r(r-1)(r-2)x^r + 2r(r-1)x^r - rx^r + x^r = 0,$$

$$r(r-1)(r-2) + 2r(r-1) - r + 1 = 0,$$

$$(r-1)^2(r+1) = 0 \Rightarrow r_{1,2} = 1,\ r_3 = -1,$$

ni topamiz. Bu ildizlar 3-ta xususiy yechimni beradi:

$$y_1 = x,\ \ y_2 = x \ln x,\ \ y_3 = x^{-1}.$$

Shunday qilib umumiy yechim ushbu ko‘rinishda bo‘ladi:

$$y = C_1 x + C_2 x \ln x + C_3 x^{-1}.$$

Eyler bir jinsli bo‘lmagan tenglamasini o‘zgarmaslarni variasiyalash yordamida integrallash mumkin. O‘ng qismining ba’zi turlari ($q(x)$ – maxsus ko‘rinishda bo‘lganlari) uchun aniqmas koeffitsiyentlar usulini ham qo‘llanish mumkin, shu bilan birga buni o‘zgarmas koeffitsiyentli tenglamalarga o‘tgandan so‘ng ham, o‘tmasdan ham bajarish mumkin.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние дифферциальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. O‘zgaruvchilarigi nisbatan bir jinsli va umumlashgan bir jinsli yuqori tartibli tenglamalarni integrallash.
2. Yechimning davomiyligi. Davomsiz yechimlar.

Glossariy

Yuqori tartibli differensianal tenglama - n tartibli differensianal tenglama umumiy ko‘rinishi $F(x, y, y', y'', \ldots, y^{(n)}) = 0$ kabi yoziladi.

Eyler tenglamasi – Eyler tenglamasi koeffitsientlari o‘zgaruvchan bo‘lgan differensial tenglama bo‘lib, uni koeffitsientlari o‘zgarmas bo‘lgan tenglamaga keltirish mumkin. Ushbu tenglama Eyler tenglamasi deyiladi.

Keyslar banki

Keys: Masala o’rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching:
$y'' - 5y' + 4y = 0;\ \ y(0) = 5;\ \ y'(0) = 8$.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma’lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. O‘zgarmaslarni variatsialash usulida umumiy yechim qaysi ko‘rinishda izlanadi?
2. O‘zgarmaslarni variasiyalash usuli qaysi tenglama uchun qaralgan o‘zgarmasni variatsialash usuliga o‘xshaydi?
3. Eyler tenglamasi koeffitsentlari qanday bo‘ladi va uning ko‘rishiniayting?
4. Eyler tenglamasi uchun xarakteristik tenglamasi deb nimaga aytiladi va qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
5. Eyler tenglamasini umumiy yechimi qanday ko‘rinishda bo‘ladi?

Amaliy mashg’ulot-17

1. $yy^1 = \sqrt{y^2+y^{12}}\,y''-y'y''$ j: $y = c_1\dfrac{1+c_2e^x}{1-c_2e^x}$; $y=c$
2. $yy^{11} = y^{12}+y^1\sqrt{y^2+y^{12}}$ j: $x = c_1+\ln\left|\dfrac{y-c_2}{y+c_2}\right|$
3. $y^{12}-yy^{11} = y^2y^1$ j: $x = c_1-\dfrac{1}{c_2}\ln\left|\dfrac{y}{y+c_2}\right|$
4. $yy^{11}+y^{12}-y^{13}\ln y = 0$ j: $x = c_1y^2-y\ln y+c_2$
5. $3y^1y^{11} = y+y^{13}+1;\quad y(0)=-2,\ y'(0)=0$ j: $x = -\dfrac{3}{2}(y+2)^{2/3}$
6. $y^2+y^{12}-2yy^{11}=0;\ \ y(0)=1,\ y^1(0)=1$ j: $y=e^x$
7. $yy^1+y^{12}+yy^{11}=0;\ \ y(0)=1,\ \ y(-1)=0$ j: $y^2=\dfrac{e}{e-1}+\dfrac{e^{-x}}{1-e}$

TEST

a ning qanday qiymatlarida $y''+ay=1$, $y(0)=0,\ y(1)=0$ masala yechimga ega emas?	$*a=(2\pi-1)\pi^2$	$a=(2\pi-1)\ \pi$	$a=(2\pi-1)^2\pi$	$a=0$
a ning qanday qiymatlarida $y''+ay=f(x)$ $y(0)=0,\ y(1)=0$ chegaraviy masalaning Grin funksiyasi mavjud bo‘ladi?	$*a\neq k^2\pi^2$	$a=k\pi$	$a=k^2\pi^2$	$a\neq k\pi$
$y''+4y'+3y=0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	$*\ y=c_1e^{-x}+c_2e^{-3x}$	$y=c_1e^{-x}+c_2e^{3x}$	$y=c_1e^{x}+c_2e^{-3x}$	$y=c_1e^{x}+c_2e^{3x}$
$y''+2y'+10y=0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	* $y=e^{-x}(C_1Cos3x+C_2Sin3x)$	$y=e^{3x}(C_1Cosx+C_2Sinx)$	$y=e^{x}(C_1Cos3x+C_2Sin3x)$	$y=e^{2x}(c_1Cos2x+c_2Sin2x$

$y'' - 2y' + y = 0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	$* \ y = (c_1 + c_2 x)e^x$	$y = (c_1 + c_2)e^x$	$y = (c_1 + c_2 x^2)e^x$	$y = c_1 e^x + c_2 e^{-x}$
$y'' - 2y' - 3y = x^2 e^x$ tenglamaning bitta xususiy uchimi qanday ko‘rinishda izlanadi.	$* \ y = x(Ax^2 + Bx + c)e^x$	$y = (Ax^2 + Bx + c)e^x$	$y = x^2(Ax + B)e^x$	$y = Ax^2 e^x$
$y'' - 4y' + 8y = Sin2x$ tenglamaning bitta xususiy yechimi qaysi ko‘rinishda bo‘ladi?	$* \ y = ASin2x + BCos2x$	$y = (Ax + B)Sin2x + (cx + B)Cosx$	$y = Ax^2 Sin2x + BxCosx$	$y = x(ASin2x + BCos2x$
a va b ning qanday qiymatlarida $y'' + ay' + by = 0$ tenglamaning yechimlari $-\infty \prec x \prec \infty$ da chegaralangan bo‘ladi?	$*a = 0$ $b > 0$	$a = 0$ $b < 0$	$a > 0$ $b > 0$	$a < 0$ $b < 0$
a va b ning qanday qiymatlarida $y'' + ay' + by = 0$ tenglamaning hamma yechimlari $x \to +\infty$ da nolga intiladi?	$*a > 0$ $b > 0$	$a = 0$ $b < 0$	$a = 0$ $b > 0$	$a < 0$ $b < 0$
$x^3 y''' + xy' - y = 0$ Eyler tenglamasini yeching.	* $y = x(c_1 + c_2 \ln\|x\| + c_3 \ln^2\|x\|)$	$y = c_1 + c_2 \ln\|x\| + c_3 \ln^2\|x\|$	$y = x^2(c_1 + c_2 \ln\|x\| + c_3 \ln^2\|x\|)$	$y = c_1 + c_2 x + c_3 x^2$

MA'RUZA № 22-23

Mavzu: Chegaraviy masalalarni qo’yilishi.

Grin funksiyasi, xossalari.

Mavzu: Ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamani sodda ko‘rinishga keltirish.

Chegaraviy masalalar. Grin funksiyasi.

Reja.

1. Chegaraviy masalalar haqida tushuncha.
2. Ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamani sodda ko‘rinishga keltirish.
3. Grin funksyasi, xossalari.
4. Shturm–Liuvill masalasi.

Chegaraviy masalalar haqida tushuncha.

Avval ko‘rilgan diffrensial tenglamalar uchun Koshi masalasi bilan tanishganmiz. Sodda qilib aytganda, Koshi masalasi berilgan nuqtadan o‘tadigan integral egri chiziqni izlashdan iborat edi. Agar integral egri chiziqning berilgan ikki nuqtadan o‘tishi talab etilsa, bu masala Koshi masalasidan farq qilib, berilgan ikki nuqtaning har biri uchun alohida olingan Koshi masalasi yechimiga ega bo‘lsa ham, bu qo‘yilgan masala yechimga ega bo‘lmasligi mumkin.

Birinchi tartibli differensial tenglama uchun masala qisqacha

$$\frac{dy}{dx} = f(x, y), \quad y(x_0) = y_0, \ y(x_1) = y_1 \tag{1}$$

kabi yozilishi mumkin. Agar $y(x_0) = y_0$ shartni qanoatlantiradigan yechim mavjud bo‘lsa, u yechim $y(x_1) = y_1$ shartni ham qanoatlantiradimi yoki yo‘qmi degan savolga javob berish lozim bo‘ladi. Bu holda tegishli savolga bevosita tekshirish bilan javob berish mumkin. Masalan,

$$y' = \frac{1}{x}, \ y(e) = 1, \ y(1) = 1$$

masala yechimga ega emas. Haqiqatan, $y = \ln x + C$ berilgan tenglamaning umumiy yechimi, $y(e) = 1$ shartga ko‘ra $1 = \ln e + C \Rightarrow C = 0$. Demak, $y = \ln x$ yechim $y(e) = 1$ shartni qanoatlantiradi. Ammo bu funksiya $y(1) = 1$ shartni qanoatlantirmaydi, chunki $y(1) = \ln 1 = 0 \neq 1$. Shunga o‘xshash, ushbu

$$y' = \frac{1}{x}, \ y(e) = 1, \ y(1) = 0$$

masala yechimga ega. Bu yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdi.

Ikkinchi tartibli differensial tenglamalar uchun

$$y'' = f(x, y, y'), \quad y(x_0) = y_0, \ y(x_1) = y_1$$

masala qo‘yilishi mumkin. Bu masalada integral egri chiziq (x_0, y_0) nuqtadan qanday y_0'-burchak koeffitsient bilan o‘tishi avvaldan berilgan emas. Misol sifatida ushbu

$$y'' + y = 0, \quad y(0) = 0, \ y(x_1) = y_1$$

masalani tekshiraylik. Berilgan tenglama xarakterstik tenglamasining ildizlari $\pm i$ va umumiy yechim $y = C_1 \cos x + C_2 \sin x$ dan iborat. Bundan, $y(0) = 0$ shartni qanoatlantiradigan yechim $y = C_2 \sin x, \ C_1 = 0$ ekani kelib chiqadi. Agar $x_1 = k\pi$ (k-berilgan ixtiyoriy butun son) bo‘lsa, $y(k\pi) = C_2 \sin k\pi = 0$ (C_2-ixtiyoriy bo‘lganda ham). Agar $x_1 \neq k\pi$ bo‘lsa, u holda $y_1 = C_2 \sin x_1$ dan $C_2 = \dfrac{y_1}{\sin x_1}, \ \sin x_1 \neq 0$ tegishli yechim $y = \dfrac{y_1}{\sin x_1} \sin x$ dan iborat. Ko‘rilayotgan masala yechimga ega. Ammo $y(0) = 0, \ y(\frac{\pi}{2}) = 0$ shartlarni qanoatlantiradigan trivial bo‘lmagan yechim esa mavjud emas. Buning isboti $C_2 \neq 0$ bo‘lganda $C_2 \sin \frac{\pi}{2} = C_2 \neq 0$ dan ko‘rinadi. Agar berilgan chiziqli tenglamaning trivial $y = 0$ yechimni olsak, bu yechim uchun $y(0) = 0, \ y(x_1) = 0$ (x_1- berilgan ixtiyoriy son) shartlar qanoatlantiriladi.

Yuqorida qo‘yilgan va Koshi masalasidan farq qiladigan masala ikki nuqtali chegaraviy yoki baribir, chetki masala deb yuritiladi. Masala bundan umumiyroq ko‘rinishda ham qo‘yilishi mumkin.

Ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamani sodda ko‘rinishga keltirish.

Ushbu

$$y'' + p_1(x) y_1 + p_2(x) y = \varphi(x) \tag{2}$$

tenglamaning

$$y(x_0) = y_0, \ y(x_1) = y_1 \tag{3}$$

shartlarni qanoatlantiradigan yechimini topish masalasi (2) tenglama uchun ikki nuqtali chegaraviy masala deb yuritiladi. (2)-(3) masalani o‘zgaruvchini almashtirish bilan sodda ko‘rinishga keltirish mumkin. Chunonchi,

$$z = y - y_0 - \frac{y_1 - y_0}{x_1 - x_0}(x - x_0), \ x \neq x_1$$

deb almashtirish bajarsak, $z(x_0) = 0, \ z(x_1) = 0$ ga ega bo‘lamiz. Bu almashtirish natijasida tenglama yana ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamaga o‘tadi. Bunga bevosita hisoblash bilan hosil qilish mumkin.

Ko‘pincha (2) tenglamani tekshirishga qulay bo‘lgan boshqa kurinishda yoziladi. Agar

(2) ning ikki tomonini $e^{\int p(x)dx}$ funksiyaga ko‘paytirsak,

$$\left(p(x)y'\right)' + q(x)y = f(x) \tag{4}$$

ko‘rinishdagi tenglamaga ega bo‘lamiz. Yuqoridagi mulohazani e'tiborga olib, (4) tenglama uchun

$$y(x_0) = 0, \quad y(x_1) = 0 \tag{5}$$

shartni qanoatlantiradigan yechimni topish masalasini qo‘yishimiz mumkin.

Agar $f(x) \neq 0$ bo‘lsa, (4)-(5) masala bir *jinsli bo‘lmagan*, $f(x) = 0$ bo‘lganda esa *bir jinsli* masala deb yuritiladi.

Grin funksyasi, xossalari.

(4)-(5) masala uchun Grin funksiyasi.

Ikki argumentli $G(x,s)$ funksiya quyidagi to‘rtta shartni qanoatlantirsin:

1^{o}. $G(x,s)$ funksiya x bo‘yicha $x_0 \le x \le x_1$ intervalda uzluksiz bo‘lib, s - tayinlangan va $x_0 < s < x_1$;

2^{o}. $G(x,s)$ funksiya $x_0 \le x \le x_1$ intervalda $x \neq s$ dan boshqa barcha nuqtalarda ushbu $\left(p(x)y'\right)' + q(x)y = 0$ bir jinsli tenglamaning yechimidan iborat;

3^{o}. $G(x,s)$ funksiya $G(x_0,s) = G(x_1,s) = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi;

4^{o}. $x = s$ nuqtada $G'_x(x,s)$ hosila birinchi tur uzilishga ega bo‘lib, uning sakrashi $\frac{1}{p(s)}$ ga teng, ya'ni $G'_x(s+0,s) - G'_x(s-0,s) = \frac{1}{p(s)}$ yoki $G'_x(s,s+0) - G'_x(s,s-0) = -\frac{1}{p(s)}$;

u holda $G(x,s)$ funksiya qo‘yilgan (4)-(5) chegaraviy masalaning *Grin funksiyasi* deyiladi.

1-teorema. *(Gilbert teoreması) Agar (4)-(5) masalaning Grin funksiyasi ma'lum bo‘lsa, bu masalaning yechimi,*

$$y = \int_{x_0}^{x_1} G(x,s) f(s) ds \tag{6}$$

formula bilan yoziladi, aksincha agar $y = y(x)$) funksiya qo‘yilgan masalaning yechimi bo‘lsa, uni (6) ko‘rinishda ıfodalash mumkin (bu yerda $f(x)$ - uzluksiz funksiya).

Endi qo‘yilgan masalaning Grin funksiyasini tuzish bilan shug‘ullanamiz. Bundan Grin funksiyasining mavjudligini ta'minlaydigan yetarli shartlar kelib chiqadi.

Ushbu

$$\left(p(x)y'\right)' + q(x)y = 0 \tag{7}$$

bir jinsli tenglamaning $y(x_0) = 0$, $y(x_1) = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiradigan yechimi $y \equiv 0$ bo‘lsin.

(7) tenglamanig $y(x_0) = 0$, $y'(x_0) = y'_0 \neq 0$ boshlang‘ich shartni qanoatlantiradigan yechimini $y_1(x)$ deb belgilaylik, bunday yechim mavjud, chunki, p, p' va q lar x_0 nuqta atrofida uzluksiz.

Bu yechim, umuman olganda, ikkinchi $y(x_1) = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantirmaydi. Ma'lumki, $y = C_1 y_1(x)$ (bu yerda C_1-ixtiyoriy o‘zgarmas son) funksiya $y(x_0) = 0$ chegaraviy shartni qanoatlantiradi. Xuddi shunga o‘xshash tenglamaning $y(x_1) = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiradigan trivial bo‘lmagan yechimi $y_2(x)$ ni topamiz. $C_2 y_2(x)$ ham $y(x_1) = 0$ chegaraviy shartni qanoatlantiradi (bu yerda C_2-ixtiyoriy o‘zgarmas son).

Grin funksiyasini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$G(x,s)=\begin{cases} C_1 y_1(x), & x_0 \le x \le s, \\ C_2 y_2(x), & s \le x \le x_1. \end{cases}$$

Bu yerdagi C_1 va C_2 larni shunday topamizki, Grin funksiyasi 1^o va 4^o shartlarni qanoatlantirsin, ya'ni 1^o $G(x,s)$ funksiya tayinlangan s uchun x bo‘yicha uzluksiz bo‘lsin, xususiy holda $x=s$ da ham uzluksiz:

$$C_1 y_1(s) - C_2 y_2(s) = 0 \tag{8}$$

va 4^o $G(x,s)$ funksiya $x=s$ nuqtada birinchi tur uzilishga ega bo‘lib, uning sakrashi $\dfrac{1}{p(s)}$ ga teng bo‘lsin, ya’ni

$$C_2 y_2(s) - C_1 y_1(s) = \frac{1}{p(s)} \tag{9}$$

Ravshanki $y_1(x)$ funksiya bilan chiziqli bog‘liq bo‘lgan funksiyalar $C_1 y_1(x)$ ko‘rinishga ega bo‘ladi. $y_1(x_1) \ne 0$ bo‘lganidan $C_1 y_1(x_1) \ne 0, (C_1 \ne 0)$ bo‘ladi. Shu bilan birga $y_2(x_1)=0$ bulardan $y_1(x)$ va $y_2(x)$ larning chiziqli erkliligi kelib chiqadi. Demak, mos Vronskiy determenanti $W(x)=\begin{vmatrix} y_1 & y_2 \\ y_1' & y_2' \end{vmatrix}$ tekshirilayotgan $x=s$ nuqtada noldan farqli bo‘ladi. Shuning uchun (8)-(9) sistemadan C_1 va C_2 larni topamiz.

$$C_1 = \frac{y_2(s)}{W(s)p(s)}, \quad C_2 = \frac{y_1(s)}{W(s)p(s)}.$$

Bularni etiborga olsak Grin funksiyasi

$$G(x,s)=\begin{cases} \dfrac{y_2(s)y_1(x)}{W(s)p(s)}, & x_0 \le x \le s, \\ \dfrac{y_1(s)y_2(x)}{W(s)p(s)}, & s \le x \le x_1. \end{cases}$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi. $y_1(x)$ va $y_2(x)$ xususiy yechimlarni shunday tanlash mumkinki, natijada $W(s)p(s)=1$ bo‘ladi. Bu holda qo‘yilgan masalaning Grin funksiyasi

$$G(x,s)=\begin{cases} y_2(s)y_1(x), & x_0 \le x \le s, \\ y_1(s)y_2(x), & s \le x \le x_1. \end{cases}$$

formula bilan beriladi. Bu formuladan qo‘yilgan masala uchun Grin funksiyasining simmetrikligi ko‘rinib turibdi.

Misol. Quyidagi

$$y'' + y = f(x), \qquad y(0)=0, \ y(\frac{\pi}{2})=0$$

chegaraviy masalaning Grin funksiyasini toping.

Yechish. Eng avval $y''+y=0$ tenglamaning $y(0)=0$ shartni qanoatlantiruvchi $y_1 = C_1 \sin x$ yechimini topamiz. So‘ngra shu bir jinsli tenglamaning $y(\frac{\pi}{2})=0$ shartni qanoatlantiruvchi $y_2 = C_2 \cos x$ yechimini topamiz. U holda Grin funksiyasini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$G(x,s)=\begin{cases} C_1 \sin x, & 0 \le x \le s, \\ C_2 \cos x, & s \le x \le \dfrac{\pi}{2}. \end{cases}$$

Grin funksiyasi $x=s$ nuqtada uzluksiz bo‘lgani uchun

$$C_1 \sin s - C_2 \cos s = 0$$

munosabatga, hosilasi esa $x = s$ nuqtada uzilishga ega bo‘lgani uchun $p(x) = 1$ ni hisobga olsak,

$$-C_2 \sin s - C_1 \cos s = 1$$

munosabatga egamiz. Bu ikki tenglamalar sistemasidan $C_1 = \cos s,\ \ C_2 = \sin s$ larni hosil qilamiz. Demak, qo‘yilgan masalaning Grin funksiyasi,

$$G(x,s) = \begin{cases} -\cos s \sin x, & 0 \le x \le s, \\ -\sin s \cos x, & s \le x \le \dfrac{\pi}{2}. \end{cases}$$

Eslatma. Biz

$$\left(p(x)y'\right)' + q(x)y = 0$$

tenglamaning $y(x_0) = 0,\ \ y(x_1) = 0$ shartlarni qanoatlantiruvchi trivial bo‘lmagan yechimi mavjud emas deb faraz qildik. Bu shart qo‘yilgan (4)-(5) masala yechimining mavjudligini va yagonaligini ta'minlash bilan birga, qo‘yilgan masala Grin funksiyasining yagonaligini ham ta'minlaydi.

Shturm-Liuvill masalasi.

Shturm-Liuvill masalasi quyidagicha qo‘yiladi:

Parametr λ ning shunday qiymatlari topilsinki, u qiymatlarda ushbu

$$L[y] = \lambda y, \qquad y(x_0) = y(x_1) = 0 \tag{10}$$

chegaraviy masala aynan nolga teng bo‘lmagan yechimga ega bo‘lsin.

Parametr λ ning tegishli qiymatlari mavjud bo‘lsa, uni (10) masalaning *xos sonlari*, unga mos yechimni esa *xos funksiyalari* deyiladi.

Shturm-Liuvill masalasiga bitta misol keltiramiz. Ushbu

$$y'' + \lambda y = 0, \quad y(0) = y(1) = 0 \tag{11}$$

masala qo‘yilgan bo‘lsin.

a) $\lambda > 0$ bo‘lsin. Ma'lumki, $y'' + \lambda y = 0$ tenglamaning umumiy yechimi

$$y = A\cos\sqrt{\lambda}x + B\sin\sqrt{\lambda}x$$

bo‘ladi. $y(0) = 0$ chegaraviy shartdan $A = 0$ kelib chiqadi. $y(1) = 0$ chegarviy shartdan $\sin\sqrt{\lambda} = 0,\ \ \lambda_n = n^2\pi^2\,(n = 0,1,2,...)$ kelib chiqadi. Bu holda masalaning yechimi ($n \neq 0$ bo‘lganda yechim trivialmas) $y_n = B_n \sin \pi x,\ \ n = 1,2,...$ bo‘ladi.

b) $\lambda = 0$ bo‘lsin. (11) tenglamaning umumiy yechimi $y = Ax + B$ bo‘ladi. $y(0) = y(1) = 0$ chegaraviy shartlardan $A = B = 0$ kelib chiqadi. Demak, (11) tenglamaning tegishli shartlarni qanoatlantiradigan trivialmas yechimi mavjud emas.

c) $\lambda < 0$ bo‘lsin. (11) tenglamaning umumiy yechimi $y = Ae^{\sqrt{-\lambda}x} + Be^{-\sqrt{-\lambda}x}$ bo‘ladi. chegaraviy shartlardan $A + B = 0,\ \ Ae^{\sqrt{-\lambda}} + Be^{-\sqrt{-\lambda}} = 0$ kelib chiqadi. Bu sistemadan $A = B = 0$ ni topamiz.

Demak, yechim $y \equiv 0$. Yuqorida ko‘rilgan uchta holga ko‘ra quyidagi xulosaga kelamiz: $\lambda_n = n^2\pi^2\,(n = 0,1,2,...)$ bo‘lsa, (11) masala cheksiz ko‘p $y_n = B_n \sin \pi x,\ \ n = 1,2,...$ yechimlarga ega. Agar $\lambda_n \neq n^2\pi^2$ bo‘lsa, (11) masala faqat trivial yechimga ega. $\lambda_n = n^2\pi^2\,(n = 0,1,2,...)$ lar (11) masalaning xos qiymatlari, ularga mos keluvchi $y_n\ \ (n = 0,1,2,...)$ funksiyalar esa (11) masalaning xos funksiyalari bo‘ladi.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние дифферциальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. $n-$ tartibli chiziqli differensial tenglamalar va ularning umumiy xossalari.
2. Yechimni cheksiz davom ettirish haqida teorema.

Glossariy

Ikki nuqtali chegaraviy masala **-** Ushbu

$$y'' + p_1(x)y_1 + p_2(x)y = \varphi(x) \tag{2}$$

tenglamaning

$$y(x_0) = y_0, \;\; y(x_1) = y_1 \tag{3}$$

shartlarni qanoatlantiradigan yechimini topish masalasi (2) tenglama uchun ikki nuqtali chegaraviy masala deb yuritiladi.

Grin funksiyasi **-** Ikki argumentli $G(x,s)$ funksiya quyidagi to‘rtta shartni qanoatlantirsin.

1°. $G(x,s)$ funksiya x bo‘yicha $x_0 \le x \le x_1$ intervalda uzluksiz bo‘lib, s - tayinlangan va $x_0 < s < x_1$

2°. $G(x,s)$ funksiya $x_0 \le x \le x_1$ intervalda $x \ne s$ dan boshqa barcha nuqtalarda ushbu $(py')' + qy = 0$ bir jinsli tenglamaning yechimidan iborat.

3°. $G(x,s)$ funksiya $G(x_0,s) = G(x_1,s) = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi.

4°. $x = s$ nuqtada $G'_x(x,s)$ xosila birinchi tur uzilishga ega bo‘lib, uning sakrashi $\frac{1}{p(s)}$ ga teng, ya'ni $G'_x(s+0,s) - G'_x(s-0,s) = \frac{1}{p(s)}$ yoki $G'_x(s,s+0) - G'_x(s,s-0) = -\frac{1}{p(s)}$ bu xolda $G(x,s)$ funksiya qo‘yilgan (4)-(5) chegaraviy masalaning Grin funksiyasi deb ataladi.

Gilbert teoremasi - Agar (4)-(5) masalaning Grin funksiyasi ma'lum bo‘lsa, bu masalaning yechimi,

$$y = \int_{x_0}^{x_1} G(x,s)f(s)ds \tag{6}$$

formula bilan yoziladi, aksincha agar $y = y(x)$) funksiya qo‘yilgan masalaning yechimi bo‘lsa, uni (6) ko‘rinishda ifodalash mumkin. (bu yerda $f(x)$ - uzluksiz funksiya)

Shturm-Liuvill masalasi – masala quyidagicha qo‘yiladi:
Parametr λ ning shunday qiymatlari topilsinki, u qiymatlarda ushbu

$$L[y] = \lambda y, \;\; y(x_0) = y(x_1) = 0$$

chegaraviy masala aynan nolga teng bo‘lmagan yechimga ega bo‘lsin.

Keyslar banki

Keys: Masala o'rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching: $x^3y'''-3x^2y''+6xy'-6y=0$

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma'lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. Birinchi tartibli differensial tenglama uchun masala qanday ko'rinishda yoziladi?
2. Ikki nuqtali chegaraviy masala deb nimaga aytiladi va u qanday ko'rinishda yoziladi?
3. Bir jinsli masala deb nimaga aytiladi?
4. Grin funksiyasi uchun ikki argumentli G(x,c) funksiya qanoatlantiruvchi shartlarni ayting?
5. (Grin fu) Shturli-Liuvil masalasi qanday qo'yiladi?

Amaliy mashg'ulot-18

1. $2y^1+(y^{12}-6x)y^{11}=0;\quad y(2)=0,\ y^1(2)=2$ j: $y=\dfrac{2\sqrt{2}}{3}x^{\frac{3}{2}}-\dfrac{8}{3}$
2. $y^1y^2+yy^{11}-y^{12}=0;\quad y(0)=1;\ y^1(0)=2$ j: $y=\dfrac{3e^{3x}}{2+e^{3x}}$
3. $y^1=xy''^2+y''^2$ j: $y=\dfrac{(x+c_1^2+1)^2}{2}+\dfrac{4}{3}c_1(x+1)^{\frac{3}{2}}+c_2;\ y=c$
4. $y'=xy''+y''-y''^2$ j: $y=c_1\dfrac{x^2}{2}+(c_1-c_1^2)x+c_2;\ y=\dfrac{(x+1)^3}{12}+c$
5. $y'y'''=3(y'')^2$ j: $x=c_1y^2+c_2y+c_3$
6. $y'''\left[1+y^{12}\right]=3y'(y'')^2$ j: $(x+c_2)^2+(y+c_3)^2=c_1^2$
7. $(y'')^2-y'y'''=\left(\dfrac{y'}{x}\right)^2$ j: $y=c_2\left(xe^{c_1x}-\dfrac{1}{c_1}e^{c_1x}\right)+c_3$

TEST

$(2x+1)y''+4xy'-4y=0$ tenglamaning bitta xususiy yechimini toping.	$*e^{-2x}$	e^{-2x^2}	e^{x}	x^3
Ushbu $(x-a)^2+by^2=1$ chiziqlar oilasi qaysi diffirensial tenglamaning yechimi?	$*(yy''+y'^2)^2=-y^3y''$	$2yy''+y'^2=\sqrt{yy''}$	$yy''+y'^2=0$	Hech birining yechimi emas
$y=a(x)z$ almashtrish yordamida $x^2y''-2xy'+(x^2+2)y=0$ tenglamada birinchi tartibli yoqotib soddalashtring.	$*z''+z=0$	$z''-z=0$	$z''+4z=0$	$z''-4z=0$
Yechimni $y_1=ax+b$ ko'rinishda izlab,	$*\ y_1=x$	$y_1=2x+1$	$y_1=2x-1$	$y_1=x+2$

$x^2y''\ln x - xy' + y = 0$ tenglamaning bitta xususiy yechimini toping.				
a ning qanday qiymatlarida $y'' + ay = 1$, $y(0) = 0,\ y(1) = 0$ masala yechimga ega emas?	$*a = (2\pi - 1)\pi^2$	$a = (2\pi - 1)\ \pi$	$a = (2\pi - 1)^2\pi$	$a = 0$
a ning qanday qiymatlarida $y'' + ay = f(x)$ $y(0) = 0,\ y(1) = 0$ chegaraviy masalaning Grin funksiyasi mavjud bo‘ladi?	$*a \neq k^2\pi^2$	$a = k\pi$	$a = k^2\pi^2$	$a \neq k\pi$
$y'' + 4y' + 3y = 0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	$*\ y = c_1e^{-x} + c_2e^{-3x}$	$y = c_1e^{-x} + c_2e^{3x}$	$y = c_1e^{x} + c_2e^{-3x}$	$y = c_1e^{x} + c_2e^{3x}$
$y'' + 2y' + 10y = 0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	$*$ $y = e^{-x}(C_1Cos3x + C_2Sin3x)$	$y = e^{3x}(C_1Cosx + C_2Sinx)$	$y = e^{x}(C_1Cos3x + C_2Sin3x)$	$y = e^{2x}(c_1Cos2x + c_2Sin2x$
$y'' - 2y' + y = 0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	$*\ y = (c_1 + c_2x)e^x$	$y = (c_1 + c_2)e^x$	$y = (c_1 + c_2x^2)e^x$	$y = c_1e^x + c_2e^{-x}$
$y'' - 2y' - 3y = x^2e^x$ tenglamaning bitta xususiy uchimi qanday ko‘rinishda izlanadi.	$*\ y = x(Ax^2 + Bx + c)e^x$	$y = (Ax^2 + Bx + c)e^x$	$y = x^2(Ax + B)e^x$	$y = Ax^2e^x$
$y'' - 4y' + 8y = Sin2x$ tenglamaning bitta xususiy yechimi qaysi ko‘rinishda bo‘ladi?	$*\ y = ASin2x + BCos2x$	$y = (Ax + B)Sin2x + (cx + B)Cosx$	$y = Ax^2Sin2x + BxCosx$	$y = x(ASin2x + BCos2x$

MA'RUZA: № 24

Mavzu: Differensial tenglamalarning normal sistemalari.

Reja:

1.Normal sistema.
2.Yechim, xususiy yechim va umumiy yechim tushunchalari.
3.Mavjudlik va yagonalik teoremasi.
4.Normal sistemalarni yechish haqida lemma.
5.Misollar.

Tayanch so’z va iboralar: *normal sistemasi, normal sistemasini yechimi, xususiy yechimi va umumiy yechimi tushunchasi, normal sistemalar uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligik haqida teorema, normal sistemalar yechimi haqidagi lemma.*

Ba'zi jarayonlar yoki hodisalarni tavsiflash uchun ko‘pincha bir necha funksiya talab etiladi. Bu funksiyalarni izlash sistema tashkil etadigan bir nechta differensial tenglamaga olib kelishi mumkin. Birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasini yuqori tartibli bitta differensial tenglamadan yordamchi funksiyalar kiritish yo‘li bilan ham hosil qilish mumkin.

Haqiqatan ham,

$$y^{(n)} = f(x, y, y', y'', \ldots, y^{(n-1)}) \tag{1}$$

tenglama yuqori hosilaga nisbatan yechilgan $n-$tartibli differensial tenglama bo‘lsin.

Quyidagicha belgilaylik:

$$y = y_1$$
$$y' = y_1' = y_2$$
$$y'' = y_2' = y_3$$
$$..................$$
$$y^{(n-1)} = y_{n-1}' = y_n$$
$$y^{(n)} = y_n' = f(x, y_1, y_2, ..., y_n)$$

Shunday qilib, $n-$tartibli 1 ta tenglamadan quyidagi birinchi tartibli $n-$ta differensial tenglamalar sistemasi hosil bo‘ldi:

$$\begin{cases} y_1' = y_2 \\ y_2' = y_3 \\ .... \\ y_{n-1}' = y_n \\ y_n' = f(x, y_1, y_2, ..., y_n) \end{cases} \tag{2}$$

Hosil qilingan tenglamalar sistemasi

$$\begin{cases} y_1' = f_1(x, y_1, y_2, ..., y_n) \\ y_2' = f_2(x, y_1, y_2, ..., y_n) \\ .... \\ y_{n-1}' = f_{n-1}(x, y_1, y_2, ..., y_n) \\ y_n' = f_n(x, y_1, y_2, ..., y_n) \end{cases} \tag{3}$$

sistemaning xususiy holidan iborat. Bunday sistema (3) differensial tenglamalarning *normal sistemasi* deyiladi. Bunda tenglamalar soni noma’lum funksiyalar soniga teng deb faraz qilinadi.

(3) sistemani *yechimi* deb, sistemaning hamma tenglamalarini qanoatlantiradigan $n-$ta $y_1, y_2, ..., y_n$ funksiyalar to‘plamiga aytiladi.

(3) sistemaning *xususiy yechimi* deb ushbu $x = x_0$ da

$$y_1(x_0) = y_{10},\ y_2(x_0) = y_{20},\ ...,\ y_n(x_0) = y_{n0}, \tag{4}$$

(bu yerda $x_0, y_{10}, y_{20}, ..., y_{n0}$ $-$berilgan sonlar) boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiradigan yechimga aytiladi.

$y_{10}, y_{20}, ..., y_{n0}$ $-$sonlarni ixtiyoriy $C_1, C_2, ..., C_n$ o‘zgarmaslar bilan almashtirib, (3) sistemaning $n-$ta ixtiyoriy o‘zgarmasga bog‘liq bo‘lgan umumiy uchimini hosil qilamiz.

(3) normal sistema uchun Koshi masalasining mavjudligi va yagonaligi to‘g‘risidaga teorema o‘rinlidir.

TEOREMA (Mavjudlik va yagonalik teoremasi). *Agar (3) normal sistema tenglamalarining o‘ng tomonlari o‘zlarining xususiy hosilalari, ya’ni* $f_1, f_2, ..., f_n, \frac{\partial f_i}{\partial y_j}, i, j = \overline{1, n}$ *bilan birgalikda* $x_0, y_{10}, y_{20}, ..., y_{n0}$ *$-$qiymatlarning atroflarida uzluksiz bo‘lsa, u holda*

$$y_1(x_0) = y_{10},\ y_2(x_0) = y_{20},\ ...,\ y_n(x_0) = y_{n0}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi yagona $y_1(x), y_2(x), ..., y_n(x)$ *yechim mavjuddir.*

Oldin keltirilgan $n-$tartibli differensial tenglama yechimining mavjudlik va yagonalik teoremasi bu teoremaning xususiy holidir.

$n-$tartibli 1 ta differensial tenglama tenglamalarning normal sistemasiga keltirilishi mumkinligi yuqorida ko‘rsatilgan edi. Umuman aytganda, buning aksi ham o‘rinli, ya'ni

Lemma. *Birinchi tartibli* $n-$*ta differensial tenglamaning normal sistemasi* $n-$*tartibli 1-ta differensial tenglamaga ekvivalentdir.*

Isbot. Haqiqatan ham, (3) sistema tenglamalaridan ixtiyoriy birini olamiz va uning ikkala qismini x bo‘yicha differensiallaymiz. Natijada (misol uchun 1-tenglamani olamiz)

$$\frac{d^2y_1}{dx^2}=\frac{\partial f_1}{\partial x}+\frac{\partial f_1}{\partial y_1}\frac{dy_1}{dx}+\frac{\partial f_1}{\partial y_2}\frac{dy_2}{dx}+\ldots+\frac{\partial f_1}{\partial y_n}\frac{dy_n}{dx}$$

va $\frac{dy_i}{dx}=y_i'$ $(i=\overline{1,n})$ hosilalarni ularning $f_i(x,y_1,y_2,\ldots,y_n)$ ifodalari bilan almashtirsak,

$$\frac{d^2y_1}{dx^2}=\frac{\partial f_1}{\partial x}+\frac{\partial f_1}{\partial y_1}f_1+\frac{\partial f_1}{\partial y_2}f_2+\ldots+\frac{\partial f_1}{\partial y_n}f_n,$$

ya'ni

$$\frac{d^2y_1}{dx^2}=F_2(x,y_1,y_2,\ldots,y_n) \tag{5}$$

ko‘rinishdagi tenglikni hosil qilamiz. (5) tenglikni (3) sistemani e’tiborga o‘lib differensiallash natijasida quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{d^3y_1}{dx^3}=\frac{\partial F_2}{\partial x}+\frac{\partial F_2}{\partial y_1}f_1+\frac{\partial F_2}{\partial y_2}f_2+\ldots+\frac{\partial F_2}{\partial y_n}f_n,$$

yoki

$$\frac{d^3y_1}{dx^3}=F_3(x,y_1,y_2,\ldots,y_n). \tag{6}$$

Xuddi shunday davom ettirib quyidagini hosil qilamiz:

$$\left.\begin{array}{l}\frac{d^4y_1}{dx^4}=F_4(x,y_1,y_2,\ldots,y_n)\\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\\ \frac{d^{n-1}y_1}{dx^{n-1}}=F_{n-1}(x,y_1,y_2,\ldots,y_n)\\ \frac{d^ny_1}{dx^n}=F_n(x,y_1,y_2,\ldots,y_n)\end{array}\right\}. \tag{7}$$

Hosil bo‘lgan tenglamalarni (3) sistemaning birinchi tenglamasi bilan qo‘shib yozamiz, natijada ushbu yangi sistemani hosil qilamiz:

$$\left.\begin{array}{l}\frac{dy_1}{dx}=f_1(x,y_1,y_2,\ldots,y_n)\\ \frac{d^2y_1}{dx^2}=F_2(x,y_1,y_2,\ldots,y_n)\\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\\ \frac{d^ny_1}{dx^n}=F_n(x,y_1,y_2,\ldots,y_n)\end{array}\right\} \tag{8}$$

(8)-chi sistemaning birinchi $n-1$ ta tenglamasidan, umuman aytganda, $(n-1)$ ta noma'lum $y_2,y_3,\ldots,y_n$ funksiyalarni y_1 funksiya va uning $n-1$ gacha (u ham kiradi) hosilalari orqali ifodalash mumkin, ya'ni

$$\begin{cases}y_2=g_2(x,y_1,y_1',\ldots,y_1^{(n-1)})\\ y_3=g_3(x,y_1,y_1',\ldots,y_1^{(n-1)})\\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\\ y_n=g_n(x,y_1,y_1',\ldots,y_1^{(n-1)})\end{cases} \tag{*}$$

Bu ifodalarni (8) tenglamalarning oxirgisiga qo‘yib, noma'lum y_1 funksiyaga nisbatan $n-$chi tartibli bo‘lgan bitta

$$\frac{d^n y_1}{dx^n} = \Phi\left(x, y_1, \frac{dy_1}{dx}, \ldots, \frac{d^{n-1}y_1}{dx^{n-1}}\right) \tag{9}$$

differensial tenglamaga kelamiz.

Agar (9) sistemaning umumiy yechimini $y_1 = \varphi_1(x, C_1, C_2, \ldots, C_n)$ ko‘rinishda yozsak, qolgan funksiyalarni topish mumkin, buning uchun (8) sistemaning dastlabki $(n-1)$ ta tenglamasidan topilgan $y_2, y_3, \ldots, y_n$ larning hosilalari uchun topilgan (10) ifodani qo‘yish kerak. Shunday qilib, ushbu funksiyalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} y_1 = \varphi_1(x, C_1, C_2, \ldots, C_n) \\ y_2 = \varphi_2(x, C_1, C_2, \ldots, C_n) \\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ y_n = \varphi_n(x, C_1, C_2, \ldots, C_n) \end{cases} \tag{11}$$

Bu (11) funksiyalar sistemasi (3) differensial tenglamalar sistemasining umumiy yechimi bo‘ladi.

Misollar.

1-misol. Ushbu

$$\begin{cases} \dfrac{dy}{dx} = \dfrac{y^2}{z} \\ \dfrac{dz}{dx} = y \end{cases}$$

differensial tenglamalar sistemasini yeching.

Yechish. Sistemaning 2-chi tenglamasini differensiallab quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{d^2 z}{dx^2} = \frac{dy}{dx}.$$

$\frac{dy}{dx}-$ni uning birinchi tenglamadagi ifodasi bilan almashtiramiz, ya'ni $\frac{dy}{dx} = \frac{y^2}{z}$. U holda

$$\frac{d^2 z}{dx^2} = \frac{y^2}{z}.$$

Nixoyat, 2-chi tenglamaga ko‘ra $y-$ni $\frac{dz}{dx}$ bilan almashtirib, bir noma'lumli 2-chi tartibli tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$\frac{d^2 z}{dx^2} = \frac{\left(\frac{dz}{dx}\right)^2}{z},$$

ya’ni

$$z'' = \frac{z'^2}{z}.$$

Bu tenglamada erkli o‘zgaruvchi x oshkor qatnashmaydi, shuning uchun uni tartibini pasaytirish mumkin ($z' = p(z)$ almashtirish bajarib(3-tur)). Biroq uni $zz'' - z'^2 = 0$ ko‘rinishda yozib olib va tenglikning ikkala qismini z^2 ga bo‘lib, chap tomon aniq hosiladan iboratligini ko‘ramiz. Haqiqatan ham,

$$\left(\frac{z'}{z}\right)' = \frac{zz'' - z'^2}{z^2}$$

va bu tenglamamiz $\left(\dfrac{z'}{z}\right)' = 0$ ko‘rinishga ega bo‘ladi, bu yerdan

$$\frac{z'}{z} = C_1 \Rightarrow z' = C_1 z .$$

Topilgan oraliq integraldan o‘zgaruvchilarni ajratib va integrallab, z – ni hosil qilish oson, bu bizga z funksiyaning x va 2 ta ixtiyoriy o‘zgarmas qatnashgan ifodasini beradi:

$$\frac{dz}{z} = C_1 dx \Rightarrow \ln|z| = C_1 x + \ln C_2 \Rightarrow z = C_2 e^{C_1 x} .$$

$y = \dfrac{dz}{dx}$ bo‘lgani uchun z ning ifodasini differensiallab

$$y = C_1 C_2 e^{C_1 x}$$

ni hosil qilamiz. Shunday qilib, sistemaning umumiy yechimi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$y = C_1 C_2 e^{C_1 x}, \quad z = C_2 e^{C_1 x} .$$

2-misol. Ushbu differensial tenglamalar sistemasini

$$\begin{cases} \dfrac{dy}{dx} = y + z \\ \dfrac{dz}{dx} = 2y - z \end{cases}$$

$$y|_{x=0} = 2\sqrt{3}, \quad z|_{x=0} = 0$$

boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi xususiy yechimini toping.

Yechish. Sistemaning 2-tenglamasini x bo‘yicha differensiallaymiz:

$$\frac{d^2 z}{dx^2} = 2\frac{dy}{dx} - \frac{dz}{dx} .$$

$\dfrac{dy}{dx}$ – ni 1-tenglamaga ko‘ra $y + z$ bilan almashtiramiz:

$$\frac{d^2 z}{dx^2} = 2(y + z) - \frac{dz}{dx},$$

yoki

$$\frac{d^2 z}{dx^2} = 2y + 2z - z' .$$

2-chi tenglamaga ko‘ra $2y$ – ni $\dfrac{dz}{dx} + z$ ga almashtiramiz: $\dfrac{d^2 z}{dx^2} = 3z$. Natijada chiziqli bir jinsli differensial tenglamani hosil qilamiz: $\dfrac{d^2 z}{dx^2} - 3z = 0$. Uning xarakteristik tenglamasi $r^2 - 3 = 0$ bo‘lib, u $r_1 = \sqrt{3}$, $r_2 = -\sqrt{3}$ ildizlarga ega. U holda umumiy yechim quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$z = C_1 e^{\sqrt{3}x} + C_2 e^{-\sqrt{3}x} .$$

Uni x bo‘yicha differensiallab, $\dfrac{dz}{dx} = C_1\sqrt{3}e^{\sqrt{3}x} - C_2\sqrt{3}e^{-\sqrt{3}x}$ ni hosil qilamiz. Sistemaning 2-chi tenglamasiga ko‘ra $y = \dfrac{1}{2}\left(\dfrac{dz}{dx} + z\right)$ bo‘lgani uchun

$$y = \frac{C_1}{2}(1 + \sqrt{3})e^{\sqrt{3}x} + \frac{C_2}{2}(1 - \sqrt{3})e^{-\sqrt{3}x}$$

ni hosil qilamiz.

Shunday qilib, sistemaning umumiy yechimi topildi:

$$y=\frac{C_1}{2}(1+\sqrt{3})e^{\sqrt{3}x}+\frac{C_2}{2}(1-\sqrt{3})e^{-\sqrt{3}x},\quad z=C_1e^{\sqrt{3}x}+C_2e^{-\sqrt{3}x}.$$

Xususiy yechimni topish uchun C_1 va C_2 larning ularga mos qiymatlarini boshlang'ich shartlardan foydalanib topamiz:

$$\begin{cases} C_1\dfrac{1+\sqrt{3}}{2}+C_2\dfrac{1-\sqrt{3}}{2}=2\sqrt{3} \\ C_1+C_2=0 \end{cases}.$$

Bu yerdan $C_1=2,\ C_2=-2$. Demak, berilgan sistemaning xususiy yechimini quyidagi funksiyalar sistemasidan iborat bo'ladi:

$$y=(1+\sqrt{3})e^{\sqrt{3}x}-(1-\sqrt{3})e^{-\sqrt{3}x}=2sh\sqrt{3}x+2\sqrt{3}ch\sqrt{3}x,$$
$$z=2e^{\sqrt{3}x}-2e^{-\sqrt{3}x}=4sh\sqrt{3}x.$$

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние диффeрциальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Umumiy yechimning xossalari. Mavjudlik va yagonalik teoremasi.
2. yechimning boshlangich qiymatlarga va parametrlarga uzluksiz bog'liqligi haqida teorema.

Glossariy

Normal sistema - $\begin{cases} y_1^1=f_1(x,y_1,y_2,\ldots,y_n) \\ y_2^1=f_2(x,y_1,y_2,\ldots,y_n) \\ -------------- \\ y_n^1=f_n(x,y_1,y_2,\ldots,y_n) \end{cases}$ sistemaning xususiy xolidan iborat. Bunday sistema (3) differensial tenglamalarning normal sistemasi deyiladi.

Normal Sistema umumiy yechimi - (3) sistemani uchimi deb, sistema ning xamma tenglamasini qanoatlantiradigan n-ta $y_1,y_2,\ldots,y_n$ funksiya to'plamiga aytiladi.

Normal sistema xususiy yechimi - sistemaning xususiy yechimi deb ushbu $x=x_o$ da

$$y_1=y_{10},\ y_2=y_{20},\ldots,y_n=y_{no}$$

(bu yerda x_0, y_{10} , $y_2,y_{20},\ldots,y_n,y_{no}$-berilgan sonlar)
Boshlang'ich shartlarni qanoatlantiradigan yechimga aytiladi.

Keyslar banki

Keys: Masala o'rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching: $(3x+2)y''+7y'=0$.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma'lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. Differensial tenglamalarning normal sistemasi deb nimaga aytiladi?

2. $\left\{\begin{array}{l} y_1^1 = f_1(x_1 y_1 y_2, \ldots yn) \\ y_2^1 = f_2(x_1 y_1 y_2, \ldots, yn) \\ y_n^1 = f_n(x_1 y_1 y_2, \ldots, y_n) \end{array}\right\}$ sistemaning yechimi deb nimaga aytiladi?
3. Mavjudlik va yagonalik haqidagi teoremani ayting?
4. Normal sistemalarning yechish haqidagi immani ayting?
5. $\dfrac{d^2 g'}{dx^2} = 2\dfrac{dy}{dx} - \dfrac{dg'}{dx}$ ni x bo‘yicha differensiallang?

Amaliy mashg’ulot-19

1. $x^2(y^{12} - 2yy'') = y^2$ j: $y = c_2 x(\ln c_1 x)^2;\ \ y = cx$
2. $xyy'' = y'(y + y')$ j: $\ln|y| = \ln|x^2 - 2x + c_1| + \int \dfrac{2dx}{(x-1)^2 + q - 1} + c_2;\ y = c$
3. $4x^2 y^3 y'' = x^2 - y^4$ j: $4c_1 y^2 = 4x + x(c_1 \ln c_2 x)^2$
4. $x^3 y'' = (y - xy')(y - xy' - x)$ j: $y = -x\ln(c_2 \ln c_1 x);\ \ y = cx$
5. $\dfrac{y^2}{x^2} + y^{1^2} = 3xy'' + \dfrac{2yy''}{x}$ j: $\dfrac{y}{x} = c_2 - 3\ln\left|\dfrac{1}{x} - c_1\right|;\ \ y = cx$

TEST

$y'' + 2y' + 10y = 0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	* $y = e^{-x}(C_1 Cos3x + C_2 Sin3x)$	$y = e^{3x}(C_1 Cosx + C_2 Sinx)$	$y = e^{x}(C_1 Cos3x + C_2 Sin3x)$	$y = e^{2x}(c_1 Cos2x + c_2 Sin2x$
$y'' - 2y' + y = 0$ tenglamaning umumiy yechimini yozing.	* $y = (c_1 + c_2 x)e^x$	$y = (c_1 + c_2)e^x$	$y = (c_1 + c_2 x^2)e^x$	$y = c_1 e^x + c_2 e^{-x}$
$y'' - 2y' - 3y = x^2 e^x$ tenglamaning bitta xususiy uchimi qanday ko‘rinishda izlanadi.	* $y = x(Ax^2 + Bx + c)e^x$	$y = (Ax^2 + Bx + c)e^x$	$y = x^2(Ax + B)e^x$	$y = Ax^2 e^x$
$y'' - 4y' + 8y = Sin2x$ tenglamaning bitta xususiy yechimi qaysi ko‘rinishda bo‘ladi?	* $y = ASin2x + BCos2x$	$y = (Ax + B)Sin2x + (cx + B)Cosx$	$y = Ax^2 Sin2x + BxCosx$	$y = x(ASin2x + BCos2x$
a va b ning qanday qiymatlarida $y'' + ay' + by = 0$ tenglamaning yechimlari $-\infty \prec x \prec \infty$ da chegaralangan bo‘ladi?	*$a = 0$ $b > 0$	$a = 0$ $b < 0$	$a > 0$ $b > 0$	$a < 0$ $b < 0$
a va b ning qanday qiymatlarida $y'' + ay' + by = 0$ tenglamaning hamma yechimlari $x \to +\infty$ da nolga intiladi?	*$a > 0$ $b > 0$	$a = 0$ $b < 0$	$a = 0$ $b > 0$	$a < 0$ $b < 0$
$x^3 y''' + xy' - y = 0$ Eyler	*	$y = c_1 + c_2 \ln\|x\| + c_3 \ln^2\|x\|$	$y = x^2(c_1 + c_2 \ln\|x\| + c_3 \ln^2\|x\|)$	$y = c_1 + c_2 x + c_3 x^2$

tenglamasini yeching.	$y = x(c_1 + c_2 \ln\lvert x\rvert + c_3 \ln^2\lvert x\rvert)$			
$y''' - y' = 3(2 - x^2)$ tenglamani bitta xususiy yechimi qanday ko‘rinishda izlanadi?	* $y = (Ax^2 + Bx + c)x$	$y = (Ax^2 + Bx + c)x^2$	$y = (Ax^2 + Bx + c)e^x$	$y = (Ax + B)e^x$
Quyidagi tenglamalardan qaysi biri Eyler tenglamasi hisoblanadi?	* $x^2 y'' - 9xy' + 21y = 0$	$xy'' + y' + y = 0$	$x^2 y'' + xy' + \frac{1}{x} y = 0$	$xy'' - 9y' + 21xy = 0$
y_1 va $y_2 = c_1 y_1 \int e^{-\int p(x)dx} \frac{dx}{y_1^2}$ funksiyalar qaysi tenglamaning ikkita chiziqli erkli yechimlari bo‘ladi?	* $y'' + y' \cdot p(x) + yQ(x) = 0$	$y'' - y' \cdot p(x) + y^2 Q(x) = 0$	$y'' - y' p(x) + yQ(x) = 0$	$y'' + y' p^2(x) + yQ(x)$

MA'RUZA № 25

]Mavzu: Chiziqli va bir jinsli sistemalar

Reja:

1. Chiziqli operator va uning xossalari.
2. Vektor funksiyalarning chiziqli bog‘liqligi va erkliligi.
3. Yechimlarning fundamental sistemasi.
4. Vronskiy determinanti.

Tayanch so’z va iboralar: *chiziqli bir jinsli differensial tenglamalar sistemasi, chiziqli bir jinsli differensial tenglamalar sistemasini vektor-matrisali ko‘rinishi, chiziqli bir jinsli differensial tenglamalar sistemasi umumiy yechimi xaqida teorema*

1.Keyingi mulohazalarning qulayligi uchun L operatorni

$$L[y] = \frac{dy}{dx} - A(x)y \qquad (1)$$

tenglik yordamida kiritamiz. Agar $p = \frac{d}{dx}$ va E – birlik $n \times n$ matrisa bo‘lsa, (1) ni yana ushbu

$$L[y] = (pE - A(x))y$$

ko‘rinishda yozish mumkin.

Xossalari.

1°. Agar C – ixtiyoriy o‘zgarmas son bo‘lsa, $L[Cy] = CL[y]$ ayniyat o‘rinli.

2°. Agar $C_1, C_2, ..., C_n$ ixtiyoriy o‘zgarmas sonlar bo‘lsa,

$$L[\sum_{i=1}^{m} C_i y^{(i)}] = \sum_{i=1}^{m} C_i L[y^{(i)}]$$

ayniyat o‘rinli, bunda $y^{(1)}, y^{(2)}, ..., y^{(m)}$ -biror vektor funksiyalar.

Bu xossadan foydalanib, quyidagi teoremani isbotlaymiz.

TEOREMA. *Agar $\varphi^{(1)}(x), \varphi^{(2)}(x), ..., \varphi^{(m)}(x)$ vektor funksiyalarning har biri biror I intervalda*

$$\frac{dy}{dx} = A(x)y \qquad (2)$$

tenglamaning yechimi bo'lsa, u holda bu funksiyalarning chiziqli kombinatsiyasi ham yechim bo'ladi.

Isbot. Teoremani shartiga ko'ra $L[\varphi^{(i)}(x)] = 0,\ x \in I,\ i = \overline{1,m}$. Shuning uchun 2-xossadan foydalansak, $L[\sum_{i=1}^{m} C_i y^{(i)}] = \sum_{i=1}^{m} C_i L[y^{(i)}] = 0$.

TA'RIF. Agar bir vaqtda nolga teng bo'magan shunday $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_k$ o'zgarmas sonlar mavjud bo'lsaki, ya'ni $\sum_{i=1}^{k} \alpha_i^2 \neq 0$, ular uchun biror I intervalda ushbu

$$\alpha_1 \varphi^{(1)}(x) + \alpha_2 \varphi^{(2)}(x) + ... + \alpha_k \varphi^{(k)}(x) \equiv 0$$

ayniyat o'rinli bo'lsa, u holda

$$\varphi^{(1)}(x), \varphi^{(2)}(x), ..., \varphi^{(k)}(x); \qquad \varphi^{(i)}(x) = \begin{pmatrix} \varphi_1^{(i)}(x) \\ \varphi_2^{(i)}(x) \\ .... \\ \varphi_k^{(i)}(x) \end{pmatrix} \qquad (3)$$

vektor funksiyalar I intervalda *chiziqli bog'liq* deyiladi. Agar yuqoridagi ayniyat faqat $\alpha_1 = \alpha_2 = ... = \alpha_k = 0$ bo'lgandagina o'rinli bo'lsa, u holda $\varphi^{(1)}(x), \varphi^{(2)}(x), ..., \varphi^{(k)}(x)$ vektor funksiyalar I intervalda *chiziqli erkli* deyiladi.

TEOREMA. *Agar x ning I intervaldan olingan kamida bitta $x_0, x_0 \in I$ qiymati uchun $\varphi^{(1)}(x_0), \varphi^{(2)}(x_0), ..., \varphi^{(m)}(x_0)$ vektorlar chiziqli bog'liq bo'lsa, u holda (3) yechimlar I intervalda chiziqli bog'liq bo'ladi, boshqacha aytganda, agar (3) yechimlar I intervalda chiziqli erkli bo'lsa, u holda x ning I intervaldan olingan bironta ham qiymatida (3) yechimlar chiziqli bog'liq bo'lmaydi.*

Isboti: (3) vektorlar chiziqli bog'liq bo'lsin, ya'ni $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_m$, $\sum_{i=1}^{m} \alpha_i^2 \neq 0$ sonlar uchun

$$\alpha_1 \varphi^{(1)}(x_0) + \alpha_2 \varphi^{(2)}(x_0) + ... + \alpha_m \varphi^{(m)}(x_0) \equiv 0$$

tenglik o'rinli. Endi

$$\varphi(x) = \alpha_1 \varphi^{(1)}(x) + \alpha_2 \varphi^{(2)}(x) + ... + \alpha_k \varphi^{(k)}(x)$$

deb belgilaylik 1- teoremaga ko'ra shu $\varphi(x)$ vektor funksiya ham $\frac{dy}{dx} = A(x)y$ tenglamaning yechimi bo'ladi. Ammo $\varphi(x)$ funksiya teoremaning shartiga ko'ra $x = x_0$ nuqtada nolga teng. Shuning uchun $\varphi(x) \equiv 0,\ x \in I$ ya'ni $\alpha_1 \varphi^{(1)}(x) + \alpha_2 \varphi^{(2)}(x) + ... + \alpha_m \varphi^{(m)}(x) \equiv 0,\ x \in I$ teorema isbot bo'ldi.

$$\begin{cases} \frac{dy}{dx} = A(x)y \\ y(x_0) = y_0 \end{cases}$$

bu Koshi masalasini yechimi ikkita ya'ni, $y \equiv 0$ va $y = \varphi(x) = \alpha_1 \varphi^{(1)}(x) + \alpha_2 \varphi^{(2)}(x) + ... + \alpha_m \varphi^{(m)}(x)$ funksiya bo'layapti. Mavjudlik va yagonalik teoremasiga ko'ra $\varphi(x) \equiv 0,\ x \in I$ bo'ladi.

TA'RIF: Agar biror I intervalda aniqlangan

$$\varphi^{(1)}(x), \varphi^{(2)}(x), ..., \varphi^{(m)}(x); \qquad \varphi^{(i)}(x) = \begin{pmatrix} \varphi_1^{(i)}(x) \\ \varphi_2^{(i)}(x) \\ \dots\dots\dots \\ \varphi_n^{(i)}(x) \end{pmatrix}, \ i = \overline{1, n} \qquad (4)$$

vektor–funksiyalar sistemasi (1) tenglamaning chiziqli erkli vektor–yechimlari sistemasini tashkil etsa, u holda bu sistema *yechimlarning fundamental sistemasi*, yoki qisqacha, *fundamental sistema* deyiladi.

TEOREMA. *Differensial tenglamalarning chiziqli bir jinsli sistemasi uchun fundamental sistema mavjud.*

Isbot. Chiziqli bir jinsli (1) sistemani olamiz. Yana biror $a^{(1)}, a^{(2)}, ..., a^{(n)}$ o'zgarmas vektorlar sistemasi chiziqli erkli bo'lsin. O'zgarmas vektorlarning bunday sistemasi mavjud. Buni ko'rsatish uchun

$$a^{(1)} = \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \\ .. \\ 0 \end{pmatrix}, \ a^{(2)} = \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \\ .. \\ 0 \end{pmatrix}, \ ..., \ a^{(n)} = \begin{pmatrix} 0 \\ 0 \\ .. \\ 1 \end{pmatrix}$$

deb tanlash yetarli, chunki bu vektorlardan tuzilgan matrisa determinanti noldan farqli(1-ga teng). Endi ushbu $\varphi^{(1)}(x_0) = a^{(1)}, \ \varphi^{(2)}(x_0) = a^{(2)}, \ ..., \ \varphi^{(n)}(x_0) = a^{(n)}$ boshlang'ich shartlarni qanoatlantiradigan (4) yechimlar sistemani ko'ramiz, tanlashga ko'ra $\varphi^{(1)}(x_0), \ \varphi^{(2)}(x_0), \ ..., \ \varphi^{(n)}(x_0)$ vektorlar chiziqli erkli, demak, (4) yechimlar sistemasi fundamental yechimlar sistemasini tashkil etadi.

TEOREMA *(Umumiy yechim haqida). Agar (4) yechimlar fundamental sistemani tashkil etsa, u holda barcha yechimlar ushbu*

$$\varphi(x) = C_1\varphi^{(1)}(x) + C_2\varphi^{(2)}(x) + ... + C_n\varphi^{(n)}(x) \qquad (5)$$

formula bilan topiladi, bunda $C_1, C_2, ..., C_n$ ixtiyoriy o'zgarmaslar.

Isbot. Biror $\varphi^{(*)}(x)$ funksiya I intervalda aniqlangan bo'lib, (1) tenglamaning $\varphi^{(*)}(x_0) = \varphi_0^{(*)} = y^{(0)}, x \in I$ boshlang'ich shartni qanoatlantiradigan yechimi bo'lsin. Ushbu

$$C_1\varphi^{(1)}(x_0) + C_2\varphi^{(2)}(x_0) + ... + C_n\varphi^{(n)}(x_0) = y^{(0)} \qquad (6)$$

vektor tenglamani ko'raylik bu $C_1, C_2, ..., C_n$ larga nisbatan chiziqli algebraik tenglama sistemadan iborat. Agar $y^{(0)} = 0$ bo'lsa, (6)dan $\varphi^{(1)}(x_0), \ \varphi^{(2)}(x_0), \ ..., \ \varphi^{(n)}(x_0)$ vektorlar chiziqli erkli bo'lgani uchun $C_1 = C_2 = ... = C_n = 0$ kelib chiqadi. Bunda $\varphi^{(*)}(x)$-trivial yechim bo'ladi. Endi $y^{(0)} \neq 0$ bo'lsin. U holda (6) sistema bir jinsli emas. Uning determinanti $\varphi^{(1)}(x_0), \ \varphi^{(2)}(x_0), \ ..., \ \varphi^{(n)}(x_0)$ vektordan tuzilgan bo'lib, teoremaning shartiga ko'ra ular chiziqli erkli va demak, ulardan tuzilgan determinant noldan farqli. Shuning uchun (6) dan yagona $C_1^\circ, C_2^\circ, ..., C_n^\circ$ larni topamiz. Demak, $\varphi^{(*)}(x)$ yechimni bunday yozishimiz mumkin:

$$\varphi^{(*)}(x) = C_1^\circ\varphi^{(1)}(x) + C_2^\circ\varphi^{(2)}(x) + ... + C_n^\circ\varphi^{(n)}(x)$$

Shunday qilib (2) tenglamaning ixtiyoriy yechimi uchun tegishli $C_1^\circ, C_2^\circ, ..., C_n^\circ$ o'zgarmaslarning (ixtiyoriy yechimi uchun tegishli) yagona usul bilan tanlash mumkin.

Bu ta'rifga ko'ra (5) formula (2) tenglamaning umumiy yechimi ekanini isbotlaydi. Teorema isbot bo'ldi.

4.(2) tenglamaning I intervalda aniqlangan $n-$ta yechimi $\varphi^{(1)}(x), \varphi^{(2)}(x), ..., \varphi^{(n)}(x)$ berilgan bo'lsin. Bu vektor funksiyadan ushbu matrisani tuzamiz.

$$Z(x)=\begin{pmatrix}\varphi_1^{(1)}\ldots\varphi_1^{(k)}\ldots\varphi_1^{(n)}\\ \varphi_2^{(1)}\ldots\varphi_2^{(k)}\ldots\varphi_2^{(n)}\\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\\ \varphi_n^{(1)}\ldots\varphi_n^{(k)}\ldots\varphi_n^{(n)}\end{pmatrix} \tag{7}$$

Unda 1-ustunda $\varphi^{(1)}(x)$ vektorning koordinatalari, $k-$ustunda $\varphi^{(k)}(x),\ k=\overline{2,n}$ vektorning koordinatalari joylashgan. Shu matrisaning determinanti (2) sistema uchun *Vronskiy determinanti* deyiladi va $W(x)$ yoki $W[\varphi^{(1)},\varphi^{(2)},...,\varphi^{(n)}]$ deb belgilanadi, ya'ni $\det Z(x)=W(x)$.

Ravshanki, agar $\varphi^{(1)}(x),\varphi^{(2)}(x),...,\varphi^{(n)}(x)$ yechimlar chiziqli erkli bo‘lsa, u holda Vronskiy determinanti x ning I dan olingan bironta ham qiymatida nolga aylanmaydi. Haqiqatan ham, $\varphi^{(1)}(x),\varphi^{(2)}(x),...,\varphi^{(n)}(x),\ x\in I$ vektor funksiyalar chiziqli erkli bo‘lgani uchun ushbu

$$\alpha_1\varphi^{(1)}(x)+\alpha_2\varphi^{(2)}(x)+\ldots+\alpha_n\varphi^{(n)}(x)\equiv 0,\ x\in I$$

ayniyat faqat $\alpha_1=\alpha_2=\ldots=\alpha_n=0$ bo‘lgandagina o‘rinli. I intervaldan olingan ixtiyoriy tayinlangan x uchun $\sum_{i=1}^{n}\alpha_i\varphi_j^{(i)}(x)=0,\ j=\overline{1,n}$ sistemani ($\alpha_1,\alpha_2,...,\alpha_n$ larga nisbatan) ko‘raylik. U bir jinsli bo‘lib, faqat trivial $\alpha_1=\alpha_2=\ldots=\alpha_n=0$ yechimga ega. Demak, bu sistemaning determinanti uchun $W(x)\neq 0,\ x\in I$ munosabat o‘rnli. Bu mulohazalardan yuqoridagi yechimlar chiziqli bog‘liq bo‘lsa, $W(x)\equiv 0,\ x\in I$ ayniyat o‘rinli bo‘lishi kelib chiqadi. Yechimlar fundamental sistemani tashkil etsa, tegishli (7) matrisa *integral matrisa* yoki *fundamental matrisa* deb yuritiladi. Endi $Z(x)$ matrisaning ustunlari (2) tenglamaning yechimlari bo‘lgani uchun $Z(x)$ matrisa ushbu

$$\frac{dZ}{dx}=A(x)Z \tag{8}$$

matrisali tenglamani yechimi bo‘ladi.

Lemma. *Agar $Z^*(x)$ matrisa (8) tenglamaning I intervalda aniqlangan biror matrisali yechimi bo‘lsa, u holda tartibi n bo‘lgan ixtiyoriy o‘zgarmas C matrisa uchun $Z^*(x)C$ matrisa ham yechim bo‘ladi.*

Isbot. Haqiqatdan (8) tenglamaning ikki tomonini o‘ngdan C matrisaga ko‘paytiramiz.

$$\frac{dZ^*(x)}{dx}C\equiv A(x)Z^*(x)C$$

yoki $C=const$ bo‘lgani uchun

$$\frac{dZ^*(x)}{dx}C\equiv A(x)(Z^*(x)C).$$

Bundan lemmani isboti kelib chiqadi.

TEOREMA. *Agar $Z(x)$ matrisa I intervalda aniqlangan uzluksiz va uzluksiz differensiallanadigan ixtiyoriy $\varphi^{(j)}(x),\ j=1,...,n$ vektor yechimlardan tuzilgan bo‘lib, determinanti I da noldan farqli bo‘lsa, u holda bu $Z(x)$ matrisa (2) tenglamaning I intervalda aniqlangan fundamental sistemasi bo‘ladi.*

Isbot. Avvalo $\det Z(x)\neq 0,\ x\in I$. Shuning uchun $Z(x)$ matrisa fundamental bo‘ladi. $Z(x)$ matrisa yechim bo‘lgani uchun ushbu

$$\frac{dZ(x)}{dx}\equiv A(x)Z(x),\ \ x\in I \tag{9}$$

ayniyatga egamiz. Bunda $Z(x)$ matrisaning determinanti shart bo‘yicha noldan farqli. Shuning uchun bu matrisaga teskari $Z^{-1}(x)$ matrisa mavjud, ya'ni ushbu

$$Z(x)Z^{-1}(x) = Z^{-1}(x)Z(x) = E$$

(E – birlik matrisa) tenglikni qanoatlantiradigan $Z^{-1}(x)$ matrisa mavjud. Bunda $Z^{-1}(x)$ matrisa, masalan

$$Z^{-1}(x) = \frac{1}{\det Z(x)} \begin{pmatrix} Z_{11}(x) & \ldots & Z_{n1}(x) \\ \ldots & \ldots & \ldots \\ Z_{1n}(x) & \ldots & Z_{nn}(x) \end{pmatrix} \tag{10}$$

formula bilan topilishi mumkin, bunda $Z_{ii}(x) - Z(x)$ matrisaning $\varphi_i^j(x)$, $i, j = \overline{1, n}$ elementining *algebraik to'ldiruvchisi*. Endi (9) ayniyatning ikki tomonini o'ngdan $Z^{-1}(x)$ ga ko'paytiramiz:

$$\frac{dZ(x)}{dx} Z^{-1}(x) \equiv A(x). \tag{11}$$

Bu ayniyatdan $A(x)$ matrisaning $a_{ij}(x)$ elementlari yagona usul bilan aniqlanadi. $\frac{dZ(x)}{dx}$ va $Z^{-1}(x)$ matrisalarning elementlari I intervalda uzluksiz bo'lgani uchun $A(x)$ matrisaning elementlari ham shu intervalda uzluksiz. Teorema isbot qilindi.

Misol. Ushbu

$$y_1' = -y_2, \quad y_2' = y_1$$

sistema uchun

$$y^{(1)}(x) = \begin{pmatrix} \cos x \\ \sin x \end{pmatrix} \quad \text{va} \quad y^{(2)}(x) = \begin{pmatrix} -\sin x \\ \cos x \end{pmatrix}$$

vektor-funksiyalar $-\infty < x < +\infty$ intervalda yechim bo'ladi. Buni bevosita tekshirib ko'rish mumkin, $y^{(1)}(x)$ va $y^{(2)}(x)$ yechimlar fundamental sistema tashkil etadi. Bu yechimlardan Vronskiy determinanti tuzamiz.

$$W(x) = \begin{vmatrix} \cos x & -\sin x \\ \sin x & \cos x \end{vmatrix} = \cos^2 x + \sin^2 x = 1 \neq 0.$$

Demak, $W(x) \neq 0$, $-\infty < x < +\infty$. $y^{(1)}(x)$ va $y^{(2)}(x)$ yechimlar fundamental sistema tashkil etadi. Berilgan sistemada $A(x) = \begin{pmatrix} 0 & -1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}$. Shunday qilib, $\begin{pmatrix} \cos x & -\sin x \\ \sin x & \cos x \end{pmatrix}$ matrisa

$$\frac{dZ}{dx} = \begin{pmatrix} 0 & -1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} Z$$

matrisali tenglamaning fundamental matrisasi bo'ladi. Endi fundamental matrisasi

$$Z(x) = \begin{pmatrix} \cos x & -\sin x \\ \sin x & \cos x \end{pmatrix}$$

bo'lgan chiziqli bir jinsli sistemani tuzaylik.

$$\frac{dZ(x)}{dx} = \begin{pmatrix} -\sin x & -\cos x \\ \cos x & -\sin x \end{pmatrix}.$$

Endi $Z^{-1}(x)$ matrisani topamiz. Avvalo $\det Z(x) = \begin{vmatrix} \cos x & -\sin x \\ \sin x & \cos x \end{vmatrix} = \cos^2 x + \sin^2 x = 1$, algebraik to'ldiruvchilar.

$$A_{11} = \cos x, \quad A_{21} = \sin x, \quad A_{12} = -\sin x, \quad A_{22} = \cos x.$$

Shuning uchun $Z^{-1}(x) = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{21} \\ A_{12} & A_{22} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \cos x & \sin x \\ -\sin x & \cos x \end{pmatrix}$. Bundan

$$A(x)=\begin{pmatrix} A_{11} & A_{21} \\ A_{12} & A_{22} \end{pmatrix}=\frac{dZ(x)}{dx}Z^{-1}(x)=\begin{pmatrix} -\sin x & -\cos x \\ \cos x & -\sin x \end{pmatrix}\begin{pmatrix} \cos x & \sin x \\ -\sin x & \cos x \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} 0 & -1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}$$

Shunday qilib, berilgan fundamental matrisaga yagona matrisali differensial tenglama mos keladi. (1) matrisali tenglamanin umumiy yechimi $Z(x)=\begin{pmatrix} \cos x & \sin x \\ -\sin x & \cos x \end{pmatrix}\cdot C$ ko‘rinishda, berilgan normal sistemaning umumiy yechimi esa,

$$\begin{pmatrix} y_1(x) \\ y_2(x) \end{pmatrix}=y(x)=\begin{pmatrix} \cos x & -\sin x \\ \sin x & \cos x \end{pmatrix}\cdot C=\begin{pmatrix} \cos x & -\sin x \\ \sin x & \cos x \end{pmatrix}\cdot\begin{pmatrix} C_1 \\ C_2 \end{pmatrix}=\begin{pmatrix} C_1\cos x-C_2\sin x \\ C_1\sin x+C_2\cos x \end{pmatrix}$$

ko‘rinishda yoziladi.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н.** *Оддий дифференциал тенгламалар.* Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
2. **Понтрягин Л.С.** *Обыкновенние дифферциальные уравнения.* М.:Наука, 1969.
3. **Степанов В.В.** *Курс дифференциальных уравнений.* М.: Гиз.Физ- мат. литература.1958
4. **Эльсгольц Л.Е.** *Дифференциальные уравнения и вариационное исчиление.* М.: Наука.. 1965.
5. **Филиппов А.Ф.** *Сборник задач по дифференциальным уравнениям.* М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Bir jinsli chiziqli differensial tenglamalar. Yechimning asosiy xossalari.
2. yechimning boshlangich qiymatlar va parametrlar bo‘yicha differensiallanuvchanligi haqida teorema.

Glossariy

Chiziqli bog’liq sistema - Agar bir vaqtda nolga teng bo‘lsa hunday $\alpha_1,\dots,\alpha_k$ o‘zgarmas sonlar mavjud bo‘lsaki, ular uchun biror J intervalda ushbu $\alpha_1\varphi^{(1)}(x)+\alpha_2\varphi^{(2)}(x)+....+\alpha_k\varphi^{(k)}(x)\equiv 0$ ayniyat o‘rinli bo‘lsa, u xolda

$$\varphi^{(1)}(x);_2\,\varphi^{(2)}(x),....\varphi^{(k)}(x)\varphi^{(i)}(x)=\begin{bmatrix} \varphi_1^{(i)}(x) \\ \dots\dots\dots \\ \dots\dots\dots \\ \varphi_n^{(i)}(x) \end{bmatrix} \tag{2}$$

vektor funksiyalar I intervalda chiziqli bog‘liq deyiladi.

Fundamental sistema - Agar biror I intervalda aniqlangan

$$\varphi^{(1)}(x),\varphi^{(2)}(x),\varphi^{(m)}(x),\varphi^{(i)}(x)=\begin{bmatrix} \varphi_1^{(1)}(x) \\ \dots\dots\dots \\ \dots\dots\dots \\ \varphi_n^{(1)}(x) \end{bmatrix} \quad i=\overline{1,n} \tag{4}$$

vektor –funksiyalar sistemasi (1) tenglamaning chiziqli erkli vektor –echimlari sistemasini tashkil etsa, u xolda bu sistema yechim larning fundamuntal sistemasi, yoki qisqacha, fundamental sistema deyiladi.

Umumiy yechim xaqida teorema - Agar (4) yechim lar fundamental sistemani tashkil etsa, u xodlda barcha yechim lar ushbu

$$\varphi(x) = C_1\varphi^{(1)}(x) + C_2\varphi^{(2)}(x) + ... + C_n\varphi^{(n)}(x) \tag{5}$$

formula bilan topiladi, bunda $C_1, C_2, ..., C_n$ ixtiyoriy o'zgarmaslar.

Keyslar banki

Keys: Masala o'rtaga tashlanadi: Differensial tenglamani yeching: $y'' + \frac{y'}{x} + \frac{y}{x^2} = 0$.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- keysdagi muammoni hal qilish mumkin bo`lgan asosiy formula, tushuncha va tasdiqlarni keltiring (individual va kichik guruhlarda);
- to`plangan ma'lumotlardan foydalanib, qo`yilgan masalani yeching (individual).

Nazorat uchun savollar

1. Chiziqli operator va uning xossalarini ayting?
2. Vektor funksiyalarning chiziqli bog'liqligi deb nimaga aytiladi va u qanday ko'rinishda bo'ladi?
3. Fundamental matritsa deb qanday matritsaga aytiladi?
4. Vranskiy diterminanti qanday tuziladi.
5. Qanday matritsa fundamental matritsa bo'ladi?

Amaliy mashg'ulot-20

1. $y'' = \left(2xy - \frac{5}{x}\right)y' + 4y^2 - \frac{4y}{x^2}$

j: $x^2y = c_1 tg(c_1 \ln c_2 x),\ c_2(x^2y + c_1)\,|x|^{2c_1} = x^2 + x^2y - c_1;\ x^2y\ln cx = -1$

2. $x^2(2yy'' - y'^2) = 1 - 2xyy'$ j: $4(c_1y - 1) = c_1^2 \ln^2 c_2 x$.
3. $x^2(yy'' - y'^2) + xyy' = (2xy' - 3y)\sqrt{x^3}$ j: $cy = x^{3/2};\ y = -2x^{3/2}\ln cx$
4. $x^4(y'^2 - 2yy'') = 4x^3yy' + 1$ j: $2c_2x^2y = (c_2x - c_1)^2 - 1;\ xy = \pm 1$
5. $yy' + xyy'' - xy'^2 = x^3$ j: $2c_1c_2y = c_2^2\,|x|^{2+c_1} + |x|^{2-c_1}$

TEST

Quyidagi tenglamalardan qaysi biri Eyler tenglamasi hisoblanadi?	* $x^2y'' - 9xy' + 21y = 0$	$xy'' + y' + y = 0$	$x^2y'' + xy' + \frac{1}{x}y = 0$	$xy'' - 9y' + 21xy = 0$
y_1 va $y_2 = c_1y_1\int e^{-\int p(x)dx}\frac{dx}{y_1^2}$ funksiyalar qaysi tenglamaning ikkita chiziqli erkli yechimlari bo'ladi?	* $y'' + y'\cdot p(x) + yQ(x) = 0$	$y'' - y'\cdot p(x) + y^2Q(x) = 0$	$y'' - y'p(x) + yQ(x) = 0$	$y'' + y'p^2(x) + yQ(x)$
$y'' + 9y = 0$ tenglamaning $M(\pi, -1)$ nuqtadagi o'tuvchi va shu nuqtada $y + 1 = x - \pi$ to'g'ri chiziqka urinuvchi integral egri chziqni toping.	* $y = Cos3x - \frac{1}{3}Sin3x$	$y = Cos3x + \frac{1}{3}Sin3x$	$y = Cos3x + Sin3x$	$y = Cos3x - Sin3x$
$y'' + 16y = 0$ tenglamaning umumiy yechimini toping	* $y = c_1\cos 4x + c_2\sin 4x$	$y = ce^{-16x}$	$y = c_1e^{4x} + c_2e^{-4x}$	$y = c_1e^{-4x}\cos 4x + c_2e^{-4x}\sin$

$y'' + 4y = 0$ tenglamaning umumiy yechimini toping	$*y = c_1 \cos 2x + c_2 \sin 2x$	$y = c_1 e^{2x} + c_2 e^{-2x}$	$y = ce^{-4x}$	$y = c_1 \cos 2x + c_2 x \cos 2x$
Berilgan differensial tenglamaning xususiy yechimini aniqlang: $y''' - y'' = 5x^2 + 4$	* $y_1 = \frac{5}{12}x^4 - \frac{5x^3}{3} + 7x^2$	$y_1 = 5x^4 + 4x^2$	$y_1 = 5x^2 + 4$	$y_1 = ax^2 + bx + c$
Berilgan tenglamaning tipini aniqlang: $(x + 3x^2)y' + xy = 0$	* o‘zgaruvchilari ajraladigan	to‘la differensial	Bernulli	y ga nisbatan chiziqli
Xususiy yechimi $y_1 = xe^x$ bo‘lgan chiziqli o‘zgarmas koeffitsientli differensial tenglamani ko‘rsating.	$* y'' - 2y' + y = 0$	$y'' - 2y' - 3y = 0$	$y' - y = 0$	$y'' + 2y' + y = 0$
Xususiy yechimi $y_1 = x^2 e^{-x}$ bo‘lgan chiziqli o‘zgarmas koeffitsientli differensial tenglamani ko‘rsating.	$* y''' + 3y'' + 3y' + y = 0$	$y''' - y' = 0$	$y'' - y = 0$	$y''' + 3y'' = 0$
Xususiy yechimni aniqmas koeffitsientlar usuli bilan toping $y'' - 5y' + 4y = 4x^2 e^{2x}$	$* y = (ax^2 + bx + c)e^{2x}$	$y = x(ax^2 + bx + c)e^{2x}$	$y = x(ax + b)e^{2x}$	$y = ax^2 e^{2x}$

MA'RUZA № 26
Mavzu: Chiziqli bir jinsli bo‘lmagan sistemalar
Reja

1. Chiziqli bir jinsli bo‘lmagan sistemaning umumiy yechimi xaqidagi teorema.
2. O‘zgarmasni variatsialash usuli. Koshi formulasi.
3. Chiziqli bir jinsli bo‘lmagan sistemaning yechimini yuqoridan baxolash.

Tayanch so’z va iboralar: *o‘zgarmas koeffitsientli bir jinsli chiziqli differensial tenglamalar sistemasi, chiziqli bir jinsli differensial tenglamalar sistemasini xarakteristik tenglamasi, chiziqli bir jinsli differensial tenglamalar sistemasini xarakteristik tenglamasini ildizlari xaqiqiy va xar xil bo‘lgan holda sistemaning umumiy yechimi.*

Ushbu

$$\frac{dy}{dx} = A(x)y + b(x) \tag{1}$$

sistema berilgan bo‘lsin. Bunda $A(x)$ kvadrat matritsa va $b(x) \neq 0$ ustun vektor I intervalda aniqlangan va uzluksiz. Chiziqli L operator yordamida birinchi sistema

$$L[y] = b(x) \tag{1’}$$

ko‘rinishda yoziladi.

1-TEOREMA. *Agar $\psi(x),\ x \in I$ vektor funksiya unga mos bir jinsli bo‘lmagan (1) tenglamaning biror yechimi bo‘lib, $\varphi(x),\ x \in I$ vektor funksiya unga mos bir jinsli*

$$\frac{dy}{dx} = A(x)y \tag{2}$$

tenglamaning yechimi bo‘lsa, u holda shu vektor funksiyalar yig‘indisi $\varphi(x) + \psi(x)$ bir jinsli bo‘lmagan tenglamaning yechimi bo‘ladi.

Isbot. Bevosita $L[\varphi(x) + \psi(x)]$-ni hisoblaymiz. $L[\varphi(x)] \equiv 0$, $L[\psi(x)] \equiv b(x)$ ekanligini hisobga olsak, ushbu $L[\varphi(x) + \psi(x)] = L[\varphi(x)] + L[\psi(x)] \equiv 0 + b(x) \equiv b(x)$ ayniyat teoremani isbot etadi.

2-TEOREMA(umumiy yechim haqida). *Chiziqli bir jinsli bo‘lmagan sistemaning umumiy yechimi uning biror xususiy yechimi bilan mos bir jinsli sistema umumiy yechimining yig‘indisidan iborat.*

Isbot. Agar bir jinsli (2) sistemaning fundamental matritsasini $Z(x)$, bir jinsli bo‘lmagan sistemaning xususiy yechimini $\psi(x)$ desak, teoremaning tasdig‘i bo‘yicha bir jinsli bo‘lmagan sistemaning umumiy yechimi $y(x) = Z(x)C + \psi(x)$ ($C -$ixtiyoriy o‘zgarmas ustun vektor) ko‘rinishida yoziladi. $Z(x)C + \psi(x)$ vektor-funksiya (1) tenglamaning yechimi. Endi bu yechim umumiy ekanini isbotlaymiz. $y = y^0(x),\ x \in I$ vektor-funksiya (1) tenglamaning $\psi(x)$ dan farqli ixtiyoriy yechimi bo‘lsin. U holda yagona $C^0 -$o‘zgarmas vektor uchun I intervalda $y^0(x) = Z(x)C^0 + \psi(x)$ ayniyat o‘rinli ekanini ko‘rsatish mumkin. Haqiqatdan, $y^0(x)$ funksiya $y^0(x_0) = y^0$, $\psi(x)$ funksiya $\psi(x_0) = \psi^0$ boshlang‘ich shartni qanoatlantirsin. Ushbu $y^0 = Z(x_0)C + \psi^0$ yoki

$$Z(x_0)C = y^0 - \psi^0,\ \sum_{i=1}^{n}(y_i^0 - \psi_i^0)^2 \neq 0$$

vektor tenglamani ko‘ramiz. Bundan $Z(x_0)$ matritsaga teskari matritsa mavjudligi uchun (chunki $\det Z(x_0) = W(x_0) \neq 0$) yagona C^0 –ni topamiz:

$$C^0 = Z^{-1}(x_0)(y^0 - \psi^0).$$

Shunday qilib, $y^0(x)$ funksiya uchun

$$y^0(x) \equiv Z(x)Z^{-1}(x_0)(y^0 - \psi^0) + \psi(x)$$

formulaga ega bo‘lamiz. Teorema isbot bo‘ldi.

2. O‘zgarmasni variatsiyalash usuli. Koshi formulasi. O‘zgarmasni variatsiyalash usulini J.Lagranj nomi bilan ataladi. Uning mazmuni quyidagicha.

Ushbu

$$\varphi^{(1)}(x),\ \varphi^{(2)}(x),\ \dots,\varphi^{(n)}(x)$$

funksiyalar I intervalda (2) tenglamaning fundamental sistemasi bo‘lsin. (1) tenglamaning yechimini quyidagi

$$y=\sigma_1(x)\varphi^{(1)}(x)+\sigma_2(x)\varphi^{(2)}(x)+\dots+\sigma_n(x)\varphi^{(n)}(x) \tag{3}$$

($\sigma_i(x),\ x\in I,\ i=1,2,\dots,n-$ biror noma'lum skalyar funksiyalar) ko‘rinishida izlaymiz. Bu (3) funksiya uchun avvalo $\sigma_i(x),\ i=1,2,\dots,n$ funksiyalar I intervalda differensiallanuvchi bo‘lishi zarur. Qolgan shartlarni (3) funksiya yechim bo‘lishi shartidan chiqaramiz. Shuningt uchun (3) funksiyani (1) tenglamaga qo‘yamiz:

$$\sum_{i=1}^{n}\frac{d\sigma_i(x)}{dx}\varphi^{(i)}(x)+\sum_{i=1}^{n}\sigma_i(x)L(\varphi^{(i)}(x))=b(x)$$

Ammo $L(\varphi^{(i)}(x))\equiv 0$ bo‘lganidan quyidagiga egamiz:

$$\sum_{i=1}^{n}\frac{d\sigma_i(x)}{dx}\varphi^{(i)}(x)=b(x) \tag{4}$$

Topilgan venktor tenglama skalyar funksiyalar $\dfrac{d\sigma_1(x)}{dx},\ \dots,\dfrac{d\sigma_n(x)}{dx}$ uchun chiziqli bir jinsli bo‘lmagan tenglamalardir. Uning determinanti vronskiandan iborat. $\varphi^{(1)}(x),\ \varphi^{(2)}(x),\dots,\varphi^{(n)}(x)-$ vektor- funksiyalar I da fundamental sistemani tashkil etgani uchun bu vronskian noldan farqli. Demak, (4) vektor-tenglamadan $\dfrac{d\sigma_i(x)}{dx},i=1,2,\dots,n$ funksiyalarning yagona ifodasini topamiz:

$$\frac{d\sigma_i(x)}{dx}=\delta_i(x),i=1,2,\ \dots,n,\ x\in I\ .$$

Bundan

$$\sigma_i(x)=\int_{x_0}^{x}\delta_i(\tau)d\tau+\overline{C}_i,\ x\in I,\ i=1,2,\dots,n$$

($\overline{C}_1,\overline{C}_2,\dots,\overline{C}_n$ – ixtiyoriy o‘zgarmaslar) topilgan ifodalarni (3) ga qo‘yamiz:

$$y=\sum_{i=1}^{n}\overline{C}_i\varphi^{(i)}(x)+\sum_{i=1}^{n}\varphi^{(i)}(x)\int_{x_0}^{x}\delta_i(\tau)d\tau\ . \tag{5}$$

Topilgan ifodadan $\overline{C}_1,\overline{C}_2,\dots,\overline{C}_n$ –lar ixtiyoriy o‘zgarmas bo‘lgani uchun $\sum_{i=1}^{n}\overline{C}_i\varphi^{(i)}(x)=\varphi(x)$ vektor-funksiya (2) tenglamaning umumiy yechimi bo‘ladi. $\psi(x)=\sum_{i=1}^{n}\varphi^{(i)}(x)\int_{x_0}^{x}\delta_i(\tau)d\tau$ vektor funksiya esa bir jinsli bo‘lmagan sistemaning xususiy yechimidir.

Shunday qilib, umumiy yechim haqidagi teoremaga asosan (5) formula (1) tenglamaning umumiy yechimini ifodalaydi.

O‘zgarmasni variatsialash usulidan bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun Koshi masalasini hal qilishda ham foydalanish mumkin. Haqiqatdan, bizga ushbu

$$\frac{dy}{dx}=A(x)y+b(x),\ x\in I,\ \ y(x_0)=y^0 \tag{6}$$

masala berilgan bo‘lsin. (2) tenglamaning $x=x_0$ bo‘lganda birlik matritsaga aylanuvchi fundamental matritsasini $Z(x,x_0)$ deylik. Demak, $Z(x_0,x_0)=E$. Bunday matritsa (2) tenglamaning *normal fundamental matritsasi* deyiladi. Agar uzluksiz differensiallanuvchi noma'lum $\sigma(x)$ vector-funksiya uchun $\sigma(x_0)=y^0$ tenglik bajarilsin desak, (6) masalaning yechimini

$$y=Z(x,x_0)\sigma(x) \tag{7}$$

ko‘rinishda izlash mumkin. Avvalo $y(x_0)=Z(x_0,x_0)\sigma(x_0)=Ey^0=y^0$. Endi (7) vector-funksiyadan hosila olib, (6) ga qo‘yamiz:

$$\frac{dZ(x,x_0)}{dx}\sigma(x)+Z(x,x_0)\frac{d\sigma(x)}{dx}=A(x)Z(x,x_0)\sigma(x)+b(x)$$

Bundan,

$$\frac{dZ(x,x_0)}{dx}\equiv A(x)Z(x,x_0)$$

ayniyatga ko‘ra quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$Z(x,x_0)\frac{d\sigma(x)}{dx}=b(x).$$

Bu tenglamaning ikki tomonini chapdan $Z^{-1}(x,x_0)$ matritsaga ko‘paytiramiz:

$$\frac{d\sigma(x)}{dx}=Z^{-1}(x,x_0)b(x).$$

Endi x_0 dan x gacha ($x\in I,\ x_0\in I$) integrallab topamiz:

$$\sigma(x)=\sigma(x_0)+\int_{x_0}^{x}Z^{-1}(\tau,x_0)b(\tau)d\tau. \tag{8}$$

Topilgan ifodani (7) ga qo‘ysak, quyidagi formulaga kelamiz:

$$y(x)=Z(x,x_0)\left(y^0+\int_{x_0}^{x}Z^{-1}(\tau,x_0)b(\tau)d\tau\right)$$

yoki

$$y(x)=Z(x,x_0)y^0+\int_{x_0}^{x}Z(x,x_0)Z^{-1}(\tau,x_0)b(\tau)d\tau. \tag{9}$$

Bu (9) formula (6)masalaning yechimini beradi va *Koshi formulasi* deb ataladi.

Agar (9) formulada y^0 vektor ixtiyoriy bo‘lsa, bu formula chiziqli tenglamaning umumiy yechimini beradi.

Koshi formulasining yana sodda ko‘rinishda yozish mumkin. Buning uchun ushbu

$$Z(x,\tau)\equiv Z(x,x_0)Z^{-1}(\tau,x_0),\ x\in I,\ x_0\in I,\ \tau\in I,\ \tau\le x \tag{10}$$

ayniyatni isbot etamiz. Quyidagi

$$\Phi^{(1)}(x)=Z(x,\tau),\ \Phi^{(2)}(x)=Z(x,x_0)Z^{-1}(\tau,x_0)$$

belgilashlarni kiritamiz. Ravshanki,

$$\Phi^{(1)}(\tau)=Z(\tau,\tau)=E,\ \Phi^{(2)}(\tau)=Z(\tau,x_0)Z^{-1}(\tau,x_0)=E,$$

demak,

$$\Phi^{(1)}(\tau)=\Phi^{(2)}(\tau). \tag{11}$$

Shubhasiz, $\Phi^{(1)}(x)$ matritsa $\frac{dZ}{dx}=A(x)Z$ (*) tenglamaning yechimi, $\Phi^{(2)}(x)$ matritsa ham shu tenglamaning yechimi bo‘ladi.

(10) ayniyatdan foydalanib (9) formulani

